

EMRE TUNJER

# ISHQ

qalbning duosidir



*Sen sevgilim deya yozilib, ayolim deya o'qilasan.*

*“Bu dunyo bizga yetarli emas”*

*deganim — jannatdagi yo'ldoshimsan.*

Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_ ₸

--	--

11. 85

**EMRE TUNJER**

**ISHQ QALBNING  
DUOSIDIR**

*“Zukko kitobxon”*  
**Toshkent – 2022**

*“Zukko kitobxon” nashriyoti ushbu kitobni Turkilyaning “Xayykitap” nashriyoti bilan 2022-yil 16-martda tuzgan shartnomasi asosida chop etdi.*

**UO‘K: 821.512.161-3**

**KBK: 84(5Typk)**

**T 85**

**Emre Tunjer.** “Ishq qalbning duosidir” / turk tilidan **Muqaddas Abduvosilova va Ergashboy Matyoqubov tarjimasi** / “Jahon adabiyotining bestselleri” turkumi – Toshkent. “Zukko kitobxon”, 2022. – 192 bet.

*Sen bo‘l, so‘nggisi bo‘l, so‘ngsiz bo‘l!*

*Ilk muhabbatimsan! Oxiring yo‘q, avvaling g‘oyib bo‘lgan. Bo‘l-magan emas, boshqalar ham bo‘lgan, ammo sen tufayli barchasi yo‘q bo‘ldi.*

*Sen xatolarim ko‘rsatgan haqiqatsan, oldingilar ergashtirib kelgan huzur yo‘lisan.*

*Ko‘nglimga yog‘gan sevgi yomg‘irisan, har tomchingdan ishqim shifo topyapti!*

*Bolaligimsan! Samimiyatim, ta’rifsiz baxtiyorligimsan.*

*Tuproqning yomg‘ir bilan atrofga yoyilgan iforisan, choyimning eng totli qultumisan. Sen mening javobsiz savollarimning javobi, har duomda tilaganim, har nafasda sog‘inganimsan.*

*Ko‘piga hojat yo‘q, borining ichida sen bo‘lsang, kifoya.*

*Sen sevgilim deya yozilib, ayolim deya o‘qilasan. “Bu dunyo bizga yetarli emas” deganim — jannatdagi yo‘ldoshimsan.*

**UO‘K: 821.512.161-3**

**KBK: 84(5Typk)**

**ISBN: 978-9943-8222-8-3**

© Emre Tunjer.

© Xayykitap Yayınları Originally published in the Turkey by Hayygrup Yayinchilik A.Ş.

© “Zukko kitobxon” nashriyoti

Pop TAKM

inv: 2023/1-307

***MUALLIF HAQIDA***

Kompyuter muhandisligi, elektrotexnika muhandisligi, ijtimoiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar sohalari bo'yicha bir nechta universitetlarda tahsil olgan. Ko'p yillar davomida "BEST FM" radiokanalida "Oqshom" radioeshittirishiga olib borgan. 2009-yildan reklama va xalq bilan aloqalar sohasida faoliyat yuritishni boshlaydi. Ushbu sohalarda ko'plab muvaffaqiyatlari loyihalarni yo'lga qo'ydi. Shundan so'ng asosiy e'tiborini ijtimoiy tarmoqlarga qaratdi va tez orada ijtimoiy tarmoqlar fenomeni bo'lgan "Hayot falsafasi" nomi bilan mashhur bo'ldi. 2012-yilda esa "Hayot falsafasi" nomli hazilomuz kitobi nashrdan chiqqan. 2014-yilda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan "Xo'jayin — ijtimoiy tarmoq sultanati" kitobi chop etildi. Emre Tunjer kasbiy faoliyatini strateg, maslahatchi va o'zaro munosabatlar motivatori sifatida davom ettirar ekan, shu bilan birga, sahna ko'rsatuvlarini ham tayyorlab bormoqda va "Karadeniz FM" radiokanalidagi boshlovchilik faoliyatini ham davom ettirmoqda.

”

Qaniydi, o‘zingni tunga **isyonsiz**  
**topshirsang** edi...

Kun quyoshga asir tushardi. Lablaringdan  
topgan bir shukronang minglab kunduzga  
yo‘l ochardi.

Ko‘zlaringga yog‘ayotgan yomg‘ir Undan  
sen uchun bir kamalak paydo qiladi.

---

## **Hayotda bir martagina oshiq bo‘lishing lozim, boshqa payt esa shunchaki inson...**

Shuni unutma: qanchalik ko‘p oshiq bo‘lsang, shunchalik ko‘p yolg‘izlashib borasan, kichkintoyim!

Chunki inson har bir ishqisi tufayli asta-sekin yemirilib bo-raveradi. Ustiga-ustak, yolg‘iz boshi bilan chorasizdir, butun yaratilmagan.

Ha, to‘g‘ri o‘qiding, kichkintoyim, inson butun yaratilmagan, o‘zining haqiqiy muhabbatini topsagina, butun bo‘ladi.

Haqiqiy muhabbatini izlashining sababi ham mana shu.

Butun bo‘lmoq yo‘lidagi safaridir... Butun bo‘lishga intili-shidir...

Ammo bu izlanish jarayoni juda ham tahlikalidir, chunki inson ishqida yo‘l qo‘ygan har bir xatosi tufayli o‘zining bir par-chasini yo‘qotadi.

Tegingen har vujuddagi turfa hidlardan ta’sirlanadi. His qil-gan har bir qalbdagi turli hissiyotlarga burkanadi. Har ko‘zda har xil ranglarga duch keladi. Har bir so‘zda har xil fikrlarga... Har bir ishqdan nimalardir oladi va olganlarini boshqa ishqdan ham kutadi. Yemirilayotganini sezmaydi. Har biri yo‘qotishi ko‘ziga muvaffaqiyat bo‘lib ko‘rinadi. Har bir ishq tufayli quvonch tuyadi, huzurlanadi, chunki har bir ishq dastlab boshqacha ko‘ri-nadi.

Ammo vaqtি kelarki, ishqlar, sevgilar hamda yangi boshlanishlar kamlik qila boshlaydi. Ayniqsa, qalbning sofligi bir marta yemirildimi, kirlandimi — uni qayta tuzatib bo‘lmaydi. Endi esa

hattoki ishqning eng go‘zali kelsa-da, beqiyos-u betakror daraja-da armug‘on etilsa-da, qalbni to‘ldira olmaydi.

Inson barcha go‘zalliklarga bitta inson orqali erishishga harakat qiladi, lekin bitta inson kamlik qiladi.

Chunki mukammal inson yo‘q.

Oxir-oqibat, bir paytlar ishq uchun jo‘sh urgan yuragi eski, qadrdon hayajonlarini topa olmay qoladi.

Ha, kichkintoyim, shuning uchun ham: “Kelajagingda yonningda bo‘lmaydigan tuyg‘ular buguning uchun loyiq emas”, — deyishadi.

Albatta, hayotda hech nimaning kafolati yo‘q. Kafolat olib sevishning ham ahamiyati yo‘q. Ammo bugun seniki bo‘lgan insonni ovunish sevish uchun sevma. Ruhing yolg‘izlikdan char-chagan bo‘lsa-da, tasalli topish uchungina noloyiq insonni quchma. Lablaring ehtirosdan yonayotgan bo‘lsa-da, ehtirosingni qondirish uchun o‘pma. Chin dildan istayotgan bo‘lsanggina va oqibatlarini qabul qila olsanggina, sev, quch, o‘p. Aks holda, bunday qilma.

Shuni unutma: harom vujudlar halol badallar to‘latadi. Halolingga olib boradigan yo‘ldan chiqma. Tabiiyki, xato qilishing va yanglishishing mumkin, ammo sabrli bo‘lsang, zotan munosib inson seni topadi. Demoqchimanki, kichkintoyim, arzimas insonlar uchun vaqtingni bekorga sarflama, ko‘nglingni, ruhingni ifloslantirma.

”

Oshiq bo‘lmoq — do‘s<sup>t</sup> bo‘lmoq, hamdard  
bo‘lmoq, birgalikda kulmoq, birgalikda  
yig‘lamoq deganidir.

Oshiq bo‘lmoq — bir hayotni ikki kishi  
yashamoqdir.

---

## **Ishq isyondir!**

Aslini olganda, ishq ong-u idrokning quliga aylangan tuyg‘ularning isyonidir. Go‘yoki uzoq muddat davomida nafas ololmay qolgan vujudning kislorodga ehtiyoji bo‘lgani kabi tuyg‘ular ham erkinlikka chanqoqdir. Shu tufayli ham kutilmagan onda bir bahona topib, nazoratingizdan chiqib ketadi. So‘ngra tuyg‘ular va ong-u idrok orasida g‘avg‘o boshlanadi. Dastlab kuchsizlik qilgan va nimalar sodir bo‘layotganini anglolmay qolgan ong-u idrok nazoratni qo‘lga olish uchun jiddiy kurashga kirishadi. Chunki ong-u idrokning ishi bo‘lib o‘tgan barchasini nazorat qilishdir va davomiy ishq esa u uchun o‘lim deganidir. Shu tufayli tuyg‘ularni o‘ziga bo‘ysundirish uchun imkonibor barcha ishni qiladi. Vaqt kelib, kuch-quvvatga erishadi va ishqning af-suni bilan to‘lqinlangan tuyg‘ularni yaxshimi-yomonmi bir bitim tuzishga ko‘ndiradi. Shu tarzda ba’zan ong-u idrok yana mutlaq hukmdorga aylanadi va o‘zi istagan yo‘lda yurishda davom etadi, ba’zan esa o‘rta yo‘l topiladi: buning nomi — sevgidir.

## Bir-birimizga hadyamiz...

Insoniyat o‘tmishning asiri emas, asaridir. Chunki o‘tmish keljakning kalitidir va shu paytgacha boshingdan o‘tgan kechinmalar seni endi duch kelishing mumkin bo‘lgan kechinmalar tomon yetaklaydi.

Aynan shu bois seni men tomon yetaklagan o‘tmishimni meni sen uchun hozirlagan va seni kelajagimning bir parchasiga aylantirgani uchun sevaman.

Shu bois o‘tmishim va kelajagimni sendek betakror bugun bilan bog‘lagan taqdirimni sevaman.

”

Ayol kapalak qanoti kabitidir. Sinishi oson, tuzalishi imkonsiz. Buni qayerdan bilishimga qiziqyapsizmi? Chunki umrimni uning qanotini tuzatish uchun sarfladim.



## O‘tmishga bog‘lanib qolmang, kelajakda ham yetarlicha o‘tmish bor

O‘tmishingizda sizni qayg‘uga botirgan va aslo ortda qolmaydiganday tuyilgan g‘am-tashvishlaringizni o‘sha paytlardagidek his qila olasizmi? Mayli, aslo unutilmaydiganday tuyilganlarni xotirlay olasizmi? O‘tib ketamasligiga ishonchingiz komil bo‘lgan kechinmalar o‘tib ketmadimi?..

Sabr qiling!

Tabiiyki, oson emas. Ammo shunday kunlar keladiki, yaralar bitib ketadi, tashvishlar, dardlar, qayg‘ular g‘oyib bo‘ladi. Unutmangki, o‘tmishingizga qarab yashar ekansiz, o‘tmish o‘tib ketmaydi, ammo kelajak o‘tmishga aylanadi.

”

Ey, sevgi deya atalmish tuyg‘u.  
Ey, ehtiros bilan bog‘lanib qolganim.  
Senga tashnaman.  
Chaqirsam, kelasanmi?

## Ko‘milgan bir ishqim bor: qabristoni — qalbim, duosi — xotiralarim...

Ba’zan haqiqatni ko‘rishni istamayman, qalbimning eng chur joyiga ko‘maman. Ustini yolg‘onlar va pushaymonliklar bilan o‘rab qo‘yaman... Hech kim topa olmasligi, qalbimni qaytadan azoblamasligi uchun shunday qilaman. Ammo uni berkitish qiyin. Undan qutulishning imkonini yo‘q... Xotiralar qochganim sayin quvyapti. La’nati xotiralar! Esga organim sayin ko‘payapti. Ba’zida faqat nafas olish uchungina imkon qoldiryapti. O‘ldirmaydi, ammo yashashimga ham izn bermayapti. Chiday olmayapman, qalbim faryodlar bilan haqiqatlarni hayqiryapti, qarshilik ko‘rsatyapman, unga qulq solmayapman. Chunki uni tinglasam, ishonib qolaman. Ishonib qolsam, o‘zimni yo‘qotib qo‘yaman. Imkonsizlikni unutaman.

Bir umidga yopishib organman, umidim o‘lsa, men ham o‘lamani. Ha, shu tufayli yolg‘izlikdan qo‘rqaman. Aynan shuning uchun haqiqatimdan qochaman. Shuning uchun yolg‘on ishqlariga quchoq ochaman, ha, aynan shu tufayli...

”

So‘z berma, kichkintoyim.  
Ishonch berki, so‘zga ehtiyoj  
qolmasin.

---

## **Shukr qil! Hali-hanuz hayotdasan va ba'zi narsalarни o'zgartirish uchun imkonining bor**

Ertaklar har doim baxtli nihoya bilan tugaydi, kichkintoyim. Chunki faqatgina yaxshilar g'alaba qilganida emas, yomonlar g'alaba qilganida ham baxtli nihoya bo'lishi mumkin. Aks holda kim yaxshi, kim yomon ekanligini qayerdan ham bilardik?

Masalan, Hansel va Gratel... Ikki aka-uka Jadini o'ldirib, qotil bo'lishadi va baxtli yakun... Xo'sh, Jadi-chi?! Aslini olganda, ertaklardagi har yakun baxtli yakundir. Tabiiyki, sen bunga o'zingni xursand qiladigan tomondan qarayapsan. Qolaversa, ertaklardaadolat bor: "bir bor ekan, bir yo'q ekan" deya boshlanadigan jumlasidayoq qoidalarini ma'lum qiladi — ortiqcha umidlantirmaydi.

Hayot ham xuddi shunday. Boshimizdan o'tgan har bir kechinma "bor" va "yo'q" orasidadir. Ammo inson bir narsaning borligiga ko'nikib qolgach, uning yo'qligi va yo'q bo'lib qolishi mumkinligini unutadi. Shu sababli ega bo'lganlarimiz bizlarni qisqa muddat xursand qiladi. Bu muddatni tezda tugatamiz. Ega bo'lganlarimizga ko'nikib qolganimiz sayin ularning biror-bir ahamiyatli, qadrli tomoni qolmaydi, lekin yo'qlik nimaligini anglasakkina, ega bo'lganlarimizni qadri yana namoyon bo'ladi. Ay-nan mana shuning uchun inson sevganlarini yo'qotar ekan, ularning qadrini yanada yaxshi anglay boshlaydi. Ulardan mahrum

bo‘lish azoblantiradi. Ammo PUSHAYMONLIKlar yanada ko‘proq azob beradi.

Shuning uchun ham pushaymon bo‘lmaslik va doimo baxtiyor bo‘lmoq uchun “bugungi kun” bilan yasha. O‘tmishga yopishib, kelajak haqida rejalar tuzar ekansan, buguningizni qo‘ldan boy bermang. Yashagan har bir lahzangning qadrini bil va bu lahzalarni qay holda yanada yaxshiroq o‘tkazishing mumkinligi haqida o‘yla. Afsuslanib qolmaslik uchun qilishingiz kerak bo‘lganlarning hammasini bajar va to‘g‘ri qaror qiling. Hech narsaga erisha olmasang ham, keyinchalik o‘zingga beradigan savolning javobiga ega bo‘la: “Yanada yaxshi bo‘lishi uchun o‘y ladim, ammo o‘sha paytdagi men faqat mana shularnigina qila oldim”. Ega bo‘lganlaringning qadrini bil va munosib insonlarni yetarlicha qadrla. O‘tmishga yopishib olma, buguning bilan yasha va kelajakka moslash. Chunki bugun kechagi inson emassan. O‘zgargansan. Unutmaki, o‘tmishning c‘tib ketganiga ishon sanggina, u o‘tmishga aylanadi.

*Hayot ertak kabidir:*

*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan.*

*Ikkalasini qo‘sning. Yig‘indi nol (0), ega*

*bo‘lganlaringiz ham nol (0).*

## **Oldin aniqlab ol, kichkintoyim. Ishqni izlayapsanmi yoki oshiqnimi?**

Hayotingni yashnatadigan tuyg‘uni izlayapsanmi?  
Umringni bag‘ishlaydigan bir ko‘ngilnimi?  
Xo‘sish, istayotganingga munosibmisan?  
Chunki har kim o‘ziga munosib bo‘lganini ertami-kechmi  
topadi, va har kim qalbi tufayli ayriladi.

Shu uchun qalbingni pok saqla.

Pok saqlaki, senga ham o‘zing kabi biri armug‘on etilganda  
afsuslanmaysan.

Shuningdek, shunday ishqni orzu qilginki, qalbingni egallash  
Istanbulning fathi kabi qiyin, fotihi esa yagona bo‘lsin.

Faqat mana shunday mashaqqatlarga to‘la kurash bilangina  
haqiqiy ishqqa erisha olasan.

Chunki inson sevganlari bilan sinaladi. Sevgingga munosibi-  
ni sev. Xuddi o‘zing kabi munosibini!

”

Duolaringda  
eslanginki, qalbi  
unutmasin...

## **Unutma, kichkintoyim...**

Ishq izlash orqali topilmaydi — bu yo'lda adashib qolmoq kerak. Hattoki g'oyib bo'lmoq lozim... Mening nima qilganimga qiziqyapsanmi? Ishqni izlar ekanman, g'oyib bo'ldim va yo'qligim ham mana shunday boshlandi.

Ha, barcha narsa ma'nosini yo'qotgan bir paytda faqatgina U goldi. Yo'lning boshi ham, oxiri ham U. Faqat U haqiqat, Undan boshqasi yolg'on. Aynan o'sha lahzada haqiqiy ishq bilan tanishdim. Izlaganim U ekan. Yo'qlikka yuz tutganimdagina angladim. Unga oshiq bo'lgim keldi, epolmadim. Chunki U ibtidoning ham intihoning ham egasidir. Uni anglar ekanman, ishq bor va borliq, yo'q va yo'qlik o'rtasidagi kurashimga aylandi.

”

Men do‘zaxman-u, sen esa jannat!  
Sen uzoqdasan — har nafasim aziyat!  
Sensiz o‘lish oson, yashamoq esa mahorat.  
Kelgin yonimga, sevgilim, bergen rohat.  
Yo meni kechir, rozi bo‘l, sening izningsiz  
Sen-la orzularimga berganim-chun halovat.  
Qaniydi, seni tanimasaydim, har yonimni  
Titratsaydi qalbimdagи senga oid jaholat.  
“Shunda yoqmasdi do‘zax, bo‘lmasaydi jannat”.

## Qalbning ko‘zi yonmasa, ishq ko‘zga ko‘rinmaydi!

Kichkintoyim, ishq, aslida, umidlarimizning asaridir,

Umidlardir — Layli va Majnunni bir-biriga bog‘lagan.

Umidlardir — oshiqlarni Farhod-u Shiringa aylantirmagan.

Chunki dunyoni, eng avvalo, umidlarimiz orqali idrok etamiz, keyin esa haqiqatlar bilan yuzlashamiz.

Shu bois inson ishqqa xaridor bo‘lar, texnologiyaga bo‘lganidek.

Erishganlarning ko‘ngli to‘ladi. Ammo umidlar o‘z mevasini bermasa, qalblarni jarohatlaydi, xafa qiladi, g‘azablantiradi, o‘ksitadi va g‘am-qayg‘uga botiradi.

Axir, insonlar umidini oqlaganlar bilan baxtli va huzur-halovatlari bo‘lishadi-da.

Qolgan boshqa har narsa va har kim nuqsonlidir.

Erishilmagan esa sirli va doimo qadrli bo‘ladi.

Afsuski, yanada yaxshisining borligini bilish insonning umidini yanada yuksaltiradi... Xuddi ishq kabi...

Ishqda bugun bilan yashaganlarning kelajagi o‘tmishga asir tushishining sababi ham mana shu.

Chunki sevmoq — qalbning mehnatidir. Uni isrof qilib bo‘lmaydi, u taom emas — to‘yib bo‘lmaydi.

Umid ishqni oziqlantiradi, ammo behuda harakat qalbni charchatadi. Agar parchalariga emas, butuniga oshiq bo‘lsang, ayriliq o‘limdir. O‘lishini bilib yashayotgan inson uchun o‘limdan oldin o‘lish fikri zulmdir.

**Kimlarningdir qalbi ko‘rdir:  
go‘zalliklarning, munosibini ko‘rolmaydi.**

## Huzurdan toj kiyganning qirolligi baxtiyorlik bo‘ladi

Kichkintoyim, ko‘zlar insonning ko‘zgusidir. Ha, shunday! Chunki inson o‘zini qanday ko‘rsa, dunyoni shunday ko‘radi. Demoqchimanki, ko‘zlar inson qalbida nima bo‘lsa, ularning hammasini o‘ziga ko‘rsatadi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, har bir insonning qalbida har xil fasl hukm suradi. Shuning uchun ham har kim dunyoni o‘zga-cha idrok etadi.

Kimningdir qalbida qish hukm suradi — aslo isinolmaydi. Yolg‘izdir, hissiyotlari ham qaltiratar. Qora bulutlar bilan burkangan. Har ko‘rganiga eziladi. Yig‘lashi uchun har narsa baho-na bo‘la oladi. Nihoyasida bulutlar oqadi, ko‘zlar to‘ladi...

Kimdir kuz faslida silkinadi. Egasiz tuyg‘ular dengizida yel-kanlarini yoyadi. Quruq bir barg kabi uchib ketadi.

Kimlardir yoz kabitidir. Ba’zan bu fasl bergen lanjlikdan hu-zurlanadi, ba’zan esa jazirama issig‘ida azoblanadi.

Kimningdir qalbi bahor kabitidir: hammasini boshidan bosh-laydi.

Demoqchimanki, kichkintoyim, go‘zallikning foydasi yo‘q, qarayotgan ko‘zlar chiroyli ko‘rmasa. Ha, shu bois go‘zalni go‘-zal qiladigan o‘ziga xosligidir, go‘zalligi emas.

”

Kichkintoyim, o‘zingni majburlasang, yo ezilasan, yo azob chekasan. Boshqani majburlasang, charchaysan. Hammani boricha qabul qil, kimnidir o‘zgartirish uchun fidoyilik qilma.

Istasang, o‘zing uchun o‘zgar. Ammo boshqa birovning istagi tufayli o‘zgarma. Mayli, parvo qilma, munosiblar yoningda qolsin, nomunosiblar uzoq tursin.

Kichkintoyim, pushaymon bo‘lishdan qo‘rqma, pushaymon bo‘lmaslikdan qo‘rq.

Chunki pushaymonliklar asling kabi bo‘lishingni ta’minlaydi, xatolarga chuqur mulohaza va yetarlicha e’tibor qaratish bilangina saboq chiqarish mumkin.

Shuning uchun ham pushaymonlikni his qilish juda oqilona harakat hisoblanadi va inson xatolarini tuzatar ekan, pushaymonlikni his qiladi.

”

Mingtasiga oshiq bo‘lsam ham, bittasi  
senga teng kelmaydi. Qalbingni qalbim  
bilan birlashtirmoq uchun seni  
quchaman. Vujudingni qo‘llarim bilan  
emas, ruhim bilan quchaman. Ko‘zlarim  
dunyo uchun ko‘rdir, seni qalbim bilan  
ko‘ryapman. Sen bilan o‘tadigan  
kelajak jannat kabi ekan, sensizlik  
zulmatini xayollaring bilan yoritaman.

”

Ko‘rishni bilgan uchun har noxushlikda  
bir hikmat bor, har narsada bir go‘zallik  
yashiringandir.

Aynan shu sababli shoir uchun har narsa  
she‘rdir, har bir she‘r esa o‘zini o‘qigan  
har bir odamni shoir hisoblaydi.

”

Ha, to‘g‘ri! Seni sevdim!  
Hattoki o‘zingni o‘zing sevolmaydigan  
darajada.

Ha, to‘g‘ri! Sening oldingda zaifman,  
chorasizman, asirman.  
Sensiz yarim jonman.

Ammo bilki, sen bo‘lmasang ham DUNYOGA  
qayta olaman,  
DUNYO BILAN qayta olaman..

Ha!

O‘zimni ham o‘ylamay, seni unutaman...  
Shunday bir unutamanki, tugaganligini  
anglolmay qolasan va vaqt kelib, ko‘zlarimga  
qaraganingdagina anglab yetasan.  
Hech kim emasligingdan uyalib qolasan!

”

Shoir bo‘lishing shart emas, qalbimdagi she‘r  
bo‘lsang, bas.

## Sababsiz...

Qalbingizni ta’rif etib bo‘lmas bir hayajon qamrab oladi. Sababsiz bir sevinch vujudingizni quchadi. Hech bir sababsiz yel-dek chopishni va hayqirishni istaysiz. Ammo Yugura olmaysiz, chunki o‘zingiz tomon yugurishingizga o‘zingiz to‘sinqinlik qilasiz. Hayqira olmaysiz, chunki o‘zingizni o‘zingiz tinglashni istamaysiz. Vaqt keladiki, o‘zingizga asir ekanligingizni anglaysiz. Erkinlik istaysiz. Ammo na yugurish uchun kuch-quvvatingiz va na hayqirish uchun nafasingiz qoladi.

Sukut saqlama, ey ko‘nglim, hayqir! To‘xtama, ey ko‘nglim, bora oladigan joyingga yugur... Hamon kelajak uchun fursat bor ekan, buguningni behuda sarflama...

”

Allohim!

Ko‘nglimga, umrimga munosib  
insonni nasib et!

---

## Yonimga munosib bo‘lmasang ham, mayli, chunki umrimga munosibsan...

Ayol esa: “Nima uchun?” — deya so‘radi.

Erkak kalovlanib qoldi. Nima deyishini bilolmay qoldi. Ko‘zlarini yumdi va yutinib qo‘ydi. Nimalarnidir o‘ylab qolgan-day osmonga nazar soldi. Havo qorong‘ilashgandi, yulduzlar asta-sekin bulutlar orasidan sirilib chiqaboshladidi. Shamol quruq barglar bilan asfaltning ustida raqs tushardi. Erkak chuqur nafas oldi va:

— Sen ahmoqlarning yagonasiswa. Chin dildan sevgan odam biron-bir sababga ehtiyoj sezmaydi, shunchaki sevadi... Sabablarini surishtirishdan voz kech endi... Qo‘yaver, davom etaversin yoki g‘ov bo‘lma, ketaversin, — dedi.

Ayol chuqur tin oldi va bilinar-bilinmas kulimsiradi. Kutilmagan javobga duch kelgandi-da. Birga bo‘lish uchun bahonalar to‘qimagan va yolg‘on gapirib ishontirishga urinmagan erkakka birinchi marta duch kelgandi. Bu holatdan juda ham ta’sirlandi. Ich-ichidan unga yon berishni, taslim bo‘lishni istardi, ammo, shu bilan birga, bu jozibali onning buzilishini ham istamayotgan edi. Astagina erkakka yaqinlashdi. Ikkovi ham hayajonlar ichra edi. Yuraklarining urishi xuddi simfoniyada chalinayotgan orkestr cholg‘ularidek bir-biriga uyg‘un urar va sevgi haqidagi go‘zal qo‘shiqqa jo‘r bo‘lardi. Erkak endigina bir nimalar demoqchi edi-yu, lekin ayol o‘ng qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘ini uning lablariga bosib: “Jim bo‘ling”, — deya ishora qildi va yonog‘idan yengilgina o‘pib qo‘ydi.

Ayolning lablari go'yoki kalit edi va erkakning barcha qulflari ochilib ketgandi. Erkakning qalbida vaqtiga vaqtiga bilan sanchib og'riq beruvchi yaralari bor edi. Ammo ayolning teginishi bu yaralarni ham davolagandi.

Aynan shu lahma erkak o'ng qovurg'alarining orasidagi bo'shliqning sababini to'liq anglagan edi. Endi esa erkak ayolga muhrlanib qolgan edi va bundan keyin ikki vujud uchun ham bitta qalb yetarli emas edi. O'lim kabi yolg'izlikdan qutulish uchun bir-birlariga ehtiyoj sezardi.

Keyin esa xudbinliklaridan voz kechib, yarim ko'ngillarini butun qilmoq uchun, biri-biriga qalb bo'lmoq uchun quchoqlashdilar.

Har ikkisi ham dunyoga bitta ahdni hayqirayotgandi: "Ishq benihoya emas, ammo ishqisiz dunyoning bo'lganidan bo'lma-gani yaxshi.

”

Hurmat-e'tibordan qolinsa, uni  
qayta tiklash mumkin, ammo  
ko'ngildan qolinsa, hech narsa  
qilib bo'lmaydi.

”

Kichkintoyim, imkoniyating bor ekan,  
hayotdan huzurlan. Ko‘rdingki,  
bo‘lmayapti: hayotingning huzurini  
qochirganni hayotingdan chiqar.

Va aslo unutma:

Keraksiz insonning ketishi kamayishga  
emas, rivojlanishga sabab bo‘ladi.

---

## Vaqti kelganni ortga surish yukni og‘irlashtirar

Munosabatlaridan ishonch izlagan ko‘lga o‘xshaydi. Yomg‘ir yog‘sa, to‘ladi. Yog‘masa, qurib qoladi. O‘zini to‘ldirib de-nigizlarga qadar olib borishi uchun yomg‘irni kutadi. Shu tufayli kam yog‘gan yomg‘ir uni qoniqtirmaydi. Yomg‘ir unga istagini bera olishi shart. Lekin ko‘l ishonchli yomg‘ir kutayotgani uchun dengiz bilan qovusha olmaydi.

Oqar suv kabi bo‘lish ham kerak. Hech kimni kutmaydi. Dengiz tomon yuguradi. Tabiiyki, yo‘li bir tekis ketmaydi, har to-monga bo‘linib ketishi mumkin, ba’zida devorlar to‘g‘onga aylana-di. Ammo shunga qaramay, yashashda davom etadi. Ba’zan yomg‘ir yog‘ar, sevinar — yog‘masa ham xafa bo‘lmaydi.

Umr ham shunday bir ne’mat. Aytmoq uchun kech qolganla-ringiz safar xaltangizda yig‘ilib boraveradi va vaqt o‘tgan sayin og‘irlashaveradi. Hayot qiyinlashadi. Imkoningiz bor edi-yu, le-kin qilmay ortga surdingiz, kechiktirdingiz. Endi bularni o‘ylar ekansiz, “bugun”ingiz qochadi. “Bugun”ning ortida quvar ekan-siz, ertangi kun kelar va o‘tmishning umidsizliklari qadamlarni azoblaydi. Bu dunyo dengizga qovushgan oqar suvdir, ko‘l emas...

”

Nomunosib insonlarga duch kelish vaqt ni  
behuda sarflash degani emas, ular  
munosib insonni kimligini o'rgatuvchi  
murabbiylardir.

---

## Qismat!

Bir darding borligini aytishyapti!

Meni yo'qtibsan va o'rninga hech kimni qo'ya olmagan  
ukansan.

Meni va men bilan o'tgan kunlaringni sog'inibsang.

Meni yo'qtibsan!

Pushaymon bo'libsan va jumlalarining pushaymonliklar bilan  
to'lib ketibdi.

Dardingning birdan bir darmoni men ekanman.

Lekin meni yo'qtibsan.

O'lirganiningni ayta olmabsan.

Birgalikda o'tkazgan shirin xotiralarimizni birma-bir oyo-  
qosti qilib o'lirganiningni ayta olmabsan.

Shunchaki qiziqyapman: baxtli qilishiga ishonganlarining —  
boshqalar shunga arzirmidi?

Meni yo'qtibsan!

Xo'sh, yo'qotmaslikning imkonini bormidi?

## **Qo‘rqma, yashashda davom et!**

Kichkintoyim, ketgan ketar va qolgan yutar. Chunki qolmoq mashaqqatlidir va har bir mashaqqat o‘zidan keyingi baxtiyorlikning poydevoridir.

Shuningdek, senga azoblar, qayg‘ular aslo tugamaydiganday tuyiladi, lekin tugaydi.

Bugungi mashaqqatlar o‘tgan har bir tun kabi ortda qoladi.

Qo‘rqma, yashashda davom et!

Dardlaringning boshida kutib qolma. Yo‘lingda davom et...

Uzoqlashganing sayin dardlaring kamayaveradi va bir kun ko‘rasanki, juda kichrayib qolgan bo‘ladi va, ehtimol, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.

## Sukut saqlama!

Neni har narsada eshitishni istayman. Go'yoki har qo'shiq seni anglatyapti. Hattoki shahar ham go'yoki orkestrga aylanib, ha-junni sen uchun kuylayapti...

Nafasing to'xtamasin!

Bensiz nafas zahardir. O'pkam sening nafasing bilan to'li-shini istayman.

Nhamol seni keltirsin.

Oq'llaring pastga tushmasin!

Duolaring oddiy bir havas uchun emas, butun bir hayot uchun timmasin. Gapisrin, ishqimizni istasin!

Yuraging men uchun ursin!

Aks holda, huzur-halovatimdan mahrum bo'laman, ichida sen bor boylikka muhtojman.



## Asling kabi bo‘l!

Kichkintoyim, shukr qil! Kelajagingni ajoyib o‘tmishga ay lantirish imkoniyatiga hali ham egasan. Hozirgi holingga shukr qil!

Hech bo‘masa, o‘tmishning asariga aylana olasan, asiriga emas. Shuning uchun kutma va kuttirma.

Unutma: vaqt juda foydali bo‘lsaydi, o‘ldirmasdi. Shu tufayli ham asling kabi bo‘l, orzu-umidlarini vaqt hukmiga tashlagan lardan bo‘lib qolma, kichkintoyim.

Kurash! Barcha muvaffaqiyatsizliklarga, imkoniyatsizliklarga, g‘am-tashvishlarga qaramay kurash. Taslim bo‘lma! Barcha narsa yer bilan yakson bo‘lgan bo‘lsa-da, taslim bo‘lma va bar-chasi yerda qolaversin, parvo qilma. Sen esa o‘zingni osmonda kabi his qilyapsan — omadlisan. Chunki na yiqilasan, na yerda-gilar kabi Yerning tortishish kuchiga asir bo‘lasan. Mana shu farq va o‘zgachalikdan huzurlan.

Shuning uchun ham asling kabi bo‘l, **hech kimni keragidan ortiqcha qadrlama, qadringni isrof qilasan...**

”

Avval: “Arziydimi?” — deb SO‘RA.  
Keyin: “Arzidimi?” — deb SO‘RA.

Hayot shu ikki savolning javobida  
yashiringan...

---

”

**Allohim...**

Ma’shuqamni rafiqam, rafiqamni  
ma’shuqam ayla!

---

## Sendagi ishq o'zingdadir, ammo mukofoti qayerda?

Kichkintoyim, ishqni til bilan ifodalab bo'lmaydi, sevgi iz-hori uchun so'z ojizlik qiladi.

Ishq ko'ngil ishidir, so'zlar kifoya qilmaydi, jumlalar yetmay qoladi.

Demoqchimanki, jon-jahd bilan erishib bo'lmaydi, nasib qilsa, bo'ladi.

Shu boisdan ishq faqat tili bilan emas, ko'ngli bilan duo qilib so'raydiganlarga nasib qiladi.

Chunki Yaratgan tilimizni ham biladi, dilimizni ham Ishqni ham biladi, oshiqni ham... Duo — qalbning sevgi izhordini.

Shu bois qalbida ishq bo'lganning tili duoda bo'ladi.

Chunki biladi: ishqqa so'z bilan, zo'rlik bilan erishib bo'l-maydi — qalb bilan, rozilik bilan erishish mumkin.

Qalb esa hikmat bilan olovlanadi.

Hikmat esa hammada ham bo'lavermaydi, faqat o'z egasida-gina bo'ladi.

Yaratganning hikmatidan shubhalanib bo'lmaydi.

Ha, shuning uchun ham ishq nasibadir.

Ishq har istaganning emas, Yaratgan kimga nasib etgan bo'l-sa, o'shaning qismatidir.

Kichkintoyim, xulosa shuki, tili sukut saqlaganlar emas, qalbi sukut saqlaganlar ishqdan mahrum bo'ladi...

## Baxtli bo‘lish uchun SABR QIL, SHUKR QIL, HARAKAT QIL, ammo O‘ZINGNI MAJBURLAMA...

Kichkintoyim, baxtli bo‘lish uchun kechirishni, ko‘rib ko‘rmaslikka olishni o‘rganishing lozim...

O‘jarlik qilib vaqt ni behuda sarflashdan ko‘ra, parvo qilmaslikni o‘rganishing kerak.

Ertaga o‘ladigandek yashar ekansan, kecha o‘lgandek hisob bera olishing kerak. Sabr qilishing, shukr qilishing va istaganining ni qo‘lga kiritish uchun yetarlicha harakat qilishing kerak, ammo majburlamasliging shart.

Baxtiyorlik qarshingda turadi, lekin nima uchundir uni ushlolmaysan. Teginganing kuydiradi — sevganging azoblaydi. Maqsadlaring baxtiyorligingdan badal oladi. Hayot ham go‘yoki ko‘kning ustini qoplagan yuk kabi bo‘ladi. Dardlarni, avvalo, boshqalardan izlaysan. Keyin esa navbat o‘zingga keladi.

Ha, aynan o‘sha lahzada boshingga har narsaning ustma-ust kelganini anglab yetasan. Qochish uchun yo‘l izlaysan, ammo barcha yo‘llar yana o‘zingga olib keladi. O‘zingdan qutulolmaysan. Buguningning huzur-halovati qochgani sayin o‘tmishing ong-u idrokingga ilgakdek yopishib oladi, kelajak ma’no-mazmunsiz bo‘lib qoladi. Imkoniyatlar mashaqqatlarga aylanadi. Tepaliklar tog‘ga aylanadi.

“Tugadi”, — deysan va quyoshni kutishdan voz kechasan. Chorasizlikning zulmatiga taslim bo‘lasan.

**Aslo kutmagan bir paytingda U qarshingga chiqadi.**

**O‘tmish unutilar, kelajak umidga aylanadi.**

**O‘tmishning hukmi tugaydi va U kelajakka umid beradi.**

”

Har narsa bir sabab uchun, xolos...

---

”

Men ham sendek bir yolg‘onning asiriman.

Yordam ber, qutqar meni bu asoratdan.

Qani, to‘xtama. Meni quch va ruhimni ozod  
qil. Meni ishontir!

Chunki sen — haqiqat bo‘lishini istagan  
yagona yolg‘onimsan.

Qani, to‘xtama, meni o‘zingga ishontir.

---

”

Unutmang, kichkintoyim!

Baxtli munosabatga intilayotgan ekansan,  
senga muammolarining hal qiladigan inson  
emas, muammolarining bilan yuzlashganida  
yolg‘iz qoldirmaydigan inson kerak.

---

”

Nihoyat sen qarshimdan chiqding...  
Xasta qalbim so‘nib-so‘lmoqqa yuz tutar  
ekan, nigohlarинг bilan qurib qolgan  
tuyg‘ularimga yomg‘ir bo‘lding. Tubsiz  
quduqda yolg‘izlikni bag‘rimga bosar  
ekanman, sochlaring meni hayotga tortdi.  
Betizgin fikrlar tushlarimni qoraytirar  
ekan, sen-la bo‘ladigan kelajak umidi  
xayollarimga nur bag‘ishladi.  
Men bir chala-yarim jumla ekanman, sen  
esa “men” so‘zi ila boshlangan  
jumlalarimning “ega”si bo‘lding, men esa  
“sen” bor jumlalarga muhtoj bir  
“bog‘lovchi”man...

---

“

Mensiz orzularingni o‘zingga harom qil, hayo  
qil, sevgilim. Mayli, boshqalar boshqa  
tushlarga halol bo‘lsin. Seni meniki bo‘l,  
umidim! Azobla, istasang, parchala, ammo  
ko‘nglingni ko‘nglimdan ayirma, malagim.  
Ko‘zlarimni ko‘zlarining bilan, vujudimni  
vujuding bilan bag‘ringga bos.  
Yomonliklar kelsa, sendan kelsin. Sendan  
kelgan hammasiga roziman.  
O‘lsam ham, qo‘llaring-la ko‘m meni.  
Tuprog‘imdan sen taralgin, ahd-u qarorim.

---

”

Taslim bo‘lma! Duo qil!  
Bir eshik yopilar ekan, boshqa eshiklar  
ochiladi, albatta. Isyon qilma! Shukr qil!  
Holingga sabr qil va Unga ishon.  
Aslo unutma: U seni o‘zingdan ham ancha  
yaxshi biladi. Ehtimol, bu mashaqqatlar senga  
baxtiyorlik eshigining kaliti sifatida armug‘on  
etilgan va huzur-halovat hamon kelajakda  
yashiringan.

---

## U mensizlikni tanlar ekan...

Kichkintoyim, unga ayt, orzularimni pushaymonlik qabristoniga ko‘mdim.

U qabristoning tuprog‘i yo‘q. Chunki tuproq umid beradi, ishonch beradi, kelajak bilan yupatadi, ishontiradi. U yerda tuproqning keragi yo‘q. Chunki orzularimning ishonchga ehtiyoji qolmadi.

U qabristonga yomg‘ir yog‘maydi. Chunki suv hayot baxsh etadi, kuch beradi, yolg‘onlarga ishontiradi, aldaydi.

U yerda yomg‘irning keragi yo‘q. Chunki orzularimning yashashi uchun biror-bir sababi qolmadi.

Kichkintoyim, ayt unga, mensizlikning yuki bir kun, albatta, og‘irlik qiladi. O‘sanda — mensiz kunlarning asiriga aylanganida — men bilan o‘tkazgan kunlarining qadrini anglaydi. Unga ishq sifatida ko‘ringan o‘yinchoq baxtiyorlik yo‘lidagi tikanzorga aylanadi. Ammo xotirjam bo‘lsin... Qarshisiga endi chiqmayman. Na e’tiroz etishga va na shikoyat qilishga haqqim bor. Chunki uni boricha, aslicha sevdim. U esa bir tanlov qildi. Har tanlov bir voz kechishdir va u mensizlikni tanladi. Dastlab orzularim uning qalbi sudida qatl etilishga shafqatsizlarcha hukm qilindi va butun umr usiz yashashga mahkum etildim. Angladim va qabul qildim.

Kichkintoyim, ayt unga, bir kun qabrim tomon yo‘li tushsa, qo‘rqmasin.

U qabristonda faqat o‘liklar suhbatlashishadi. Qotillar kim ekanligini biri-biriga aytadi. Pushaymonliklarini anglatishadi. Meni va orzularimdagи uning go‘zalligini anglatadilar.

Ayt unga, kichkintoyim, so‘nggi so‘zni o‘zi aytdi, so‘nggi duoni ham o‘zi qilsin.

”

Agar gul sovg‘a qilmoqchi bo‘lsang, o‘rniga urug‘ini hadya  
qil. Parvo qilma!

Ruhingdagi gullarni qo‘porma.

Ajablanganlardan: “Qo‘lingizda so‘lgan gulmi yoki siz  
bilan jonlanadigan gulmi?” — deb so‘rarsan.

Qaysi biri?

---

”

Kichkintoyim, yo‘qliging bu dunyoga hech qanday hissa  
qo‘shmaydi. Shuning uchun ham borlig‘ing bilan dunyoni  
mahkam quchoqlab ol.

---

## Maktub

Sevimli sevgisiz sevgilim!

Sog‘-salomatmisan? Ahvoling yaxshimi? Mensizlik senga ijobjiy ta’sir qilganini aytishyapti, shu to‘g‘rimi?

Mening ahvolimni so‘rasang, yaxshiman, ammo dardliman. Vujudim sensizlik deya nomlangan bir bir kasallikka duchor bo‘ldi.

Bu kasallik o‘ldiradigan darajada emas, ammo faqat zulmat-dan iborat.

Tongda uyg‘onsam ham, tunim davom etaveradi.

Qalbim sensizlik quyoshiga aylandi, ruhimni kuydiryapti.

Ong-u idrokim o‘ldi, ko‘zi tuproqqa to‘ldi: fikrlarimni ham ko‘ra olmay qoldim.

Albatta, shifo topaman va sensizlikka ko‘nikaman.

Oxir-oqibat, sensizlik men uchun hech narsani anglatmay qo‘yadi.

Ha, men uchun shunday biriga aylanasan. Darhol emas, vaqt o‘tishi bilan shunday bo‘lasan.

Balki, dardimga malham bo‘lishi uchun o‘zimga gapirgan yolg‘onlarim bilan shifo toparman...

Balki, sensizligimning bo‘shlig‘ini to‘ldirgan ayollar orqali shifo toparman...

Albatta, shifo topaman.

Hozircha sen uchun bir yulduzning qo‘riqchisiman. Uning nuriga qanoat qilyapman.

Ammo bir kuni quyosh chiqadi — buni bilaman. Albatta, o‘sha yulduz g‘oyib bo‘ladi va hayotimdagи zulmat nihoyasiga yetadi — o‘sha kunni kutyapman.

”

**Senga va duolaringga  
ehtiyojim bor...**

”

Har bir ayol o‘zini dunyodagi yagona  
ayoldek his ettiradigan bir erkak  
bilan bilan umrguzaronlik qilishni  
istaydi.

## **Sukutlarimni ham eshita olgan inson bilan umr o'tkazaman!**

Sevgilim, yo'qotmoqdan qo'rqlmayman, yo'qolmoqdan qo'rqlaman...

Yo'qligingda yo'qligimni bilinib qolishidan qo'rqqanim uchun seni mahkam ushlab olganman.

Mevasiz bir hayot umidlarimni yutar ekan, bir tabassuming uchun bor-u yo'g'imni fido qilaman.

Men kutayotgan yorug'lik negadir derazamga urilmayapti. Chorasizman, charchaganman, hol-u madorim qolmadi...

Ammo seni xafa qilmaslik uchun uchun gaplarimni qalbimga ko'myapman va sukunatimni eshitishing uchun kutyapman.

**“Barchasi ko‘nglingdagidek bo‘lsin”,  
— deb emas, “Barchasi baxayr  
bo‘lsin”, — deb duo qilish  
yaxshiroqdir. Chunki ko‘ngil ba’zan  
bexayrga yopishib oladi**

“Shoshilgan ishga shayton aralashadi”, — derlar, haqiqatan ham, shunday. Siz aslingiz kabi bo‘ling, yolg‘izligingizni baham ko‘rar ekansiz, shoshqaloqlik qilmang.

Unutmang, noto‘g‘ri boshlanishdan ko‘ra to‘g‘ri kutish yaxshiroqdir. Charchaganingiz tufayli o‘ylab, mulohaza qilishdan aslo voz kechmang. “O‘ylab ko‘raman”, — deb ham o‘zingizga aziyat yetkazmang. Demoqchimanki, tuyg‘ularingizning ham, o‘y-fikrlaringizning ham asiri bo‘lib qolmang.

Shuni unutmang: yolg‘iz yashamoq, noto‘g‘ri yashashdan ko‘ra yaxshiroqdir. Tuyg‘ularingizning shovqini, aqlingizni kar qilishiga ham izn bermang. Fikrlaringizning tuyg‘ularingizni egarlab olishiga ham izn bermang, ikkalasini tarozining ikki pal-lasiga qo‘ying. Tarozining qaysi pallasi og‘ir kelayotgan bo‘lsa, albatta, o‘shani tanlang.

Ammo, baribir, qalbingiz bilan aqlingiz orasidagi g‘avg‘oni to‘xtata olmayotgan bo‘lsangiz, aqlingizni to‘xtating. Chunki qalbingizni to‘xtatsangiz, har narsa to‘xtaydi.

Qarabsizki, aqlingiz g‘olib bo‘ldi va olgan qarorlaringiz sizni yolg‘iz tashlab ketdi, bunday paytda ikkilanmang, yo‘lingizda davom eting.

Ammo munosib insonni izlashdan aslo voz kechmang. Sabrli bo‘ling va taslim bo‘lmang! Chunki **yolg‘izlik nomunosib insonlar bilan baham ko‘rilmaydigan darajada bebahodir.**

Bilaman, ba’zan shu qadar yolg‘izlanib qolasizki, yo‘qolib qolmaslik uchun hattoki soyangizni bag‘ringizga bosgingiz keladi. Sabr qiling!

Nomunosib inson bilan abadiy yolg‘izlikka ko‘milishdan ko‘ra yolg‘iz yashamoq ancha yaxshiroqdir. Shuning uchun ham o‘zingiz uchun munosibini izlashdan voz kechmang.

Egri inson bilan egilishdan ko‘ra tik turgan holda to‘g‘ri insonni kuting.

Balki, bugun qarshingizdan chiqmagan bo‘lishi mumkin.

Kuting!

Borlig‘-u yo‘qlikning sohibi bo‘lgan ZOT odildir. Bir kun sizga munosib insonni ko‘rsatadi. Ana o‘shanda bu insonni bag‘-ringizga bosishingiz qoladi, xolos.

## Og‘ir yuk!

Eng og‘ir yuk sarosimani va beqarorlikni yuzaga keltiradigan yukdir. O‘zingizni bunchalar qiynamang. Qaror qiling va qutuling muammolardan! Mulohaza yuritish, tabiiyki, yaxshi. Ammo keragidan ortiqcha mulohaza qilish ko‘r qiladi. Ko‘ra olishingiz mumkin bo‘lgan xatolarni ham ko‘rishingizga to‘sinqilik qiladi. Shuning ham insonni eng ko‘p charchatadigan vaziyat ham beqarorlikdir. Charchagan ong-u idrok bilan fikrlashning esa bir qarorga kelishda foydadan ko‘ra zarari ko‘p. Oxir-oqibat esa, inson o‘z qo‘llari bilan o‘zini xatolarga taslim qiladi.

Bu: “O‘ylamay-netmay biror-bir ishga kirishing”, —degani emas. Albatta, to‘satdan va kutilmaganda bir qarorga kelmang. Avvalo, barchasini o‘lchang, biching va keyin qaror qiling. Ammo mukammal bo‘lish uchun harakat qilar ekansiz, o‘zingizni oxiri berk ko‘chaga kiritib qo‘ymang. Chunki mukammallik boshi-oxiri bo‘lmagan uzun bir yo‘ldir. Bu yo‘lga bir marta chiqdingizmi, bas, baxtiyorlik umidsizlikka aylanadi.

Gardaningizdagagi yuklarni uloqtirib tashlang va yengil nafas olib yashang. Bir shoir aytganidek: “Eng yomon qaror ham beqarorlikdan yaxshiroqdir”. Chunki beqarorlik kemaning langar tashlashiga o‘xshaydi. Kema harakatlanishga qanchalik urinsa ham, langar qo‘yib yubormaydi. Qaroringizni bering va o‘zingizni bu azobdan qutqaring. Balki, eng a’losi bo‘lmasa-da, yaxshisi bo‘lar. Yoki har qanday holatda ham xayrlisi bo‘ladi.

”

Hayot og‘ir emas, uni insonlar  
og‘irlashtirgan. Chunki inson doimo eng  
yaxshisi uchun intiladi va eng yaxshisiga  
erishganida yanada yaxshirog‘i borligini  
anglaydi. Ega bo‘lganiga qanoat  
qilmaydiganlar uchun yanada  
yaxshirog‘ining borligi narsa ruhiy  
tushkunlikdir. Demoqchimanki, **hayot,**  
**aslida, og‘ir emas, ko‘zingizda**  
**bo‘rttirganingiz uchun og‘irdir.**

“

So‘z bilan bo‘lmaydi, kichkintoyim.  
Asliyat bilan bo‘ladi. Asliyatda bo‘lsa,  
yuzaga chiqadi. Aks holda, so‘z  
o‘zgaraveradi.

Uning o‘rnida ma’no-mazmunsiz shovqin  
qoladi. Ammo asliyat degani shundaymi?  
Inson aytgan so‘zdan qaytishi mumkin,  
ammo asliyatidan voz kecha olmaydi.  
Asliyati to‘g‘ri bo‘lmaganning so‘zi  
to‘g‘ri bo‘lsa, nima foydasi bor? Asliyati  
bilan sevmagan shunchaki tilda sevsा,  
nima foydasi bor?

Shu tufayli asliyattingga uyg‘un bo‘l,  
kichkintoyim va asliyatida darz  
ko‘rganlariningdan uzoq tur.

Shuni bilki, “zilzila”lar so‘zda yashirinar,  
lekin asliyatda yuzaga chiqadi.

## Oqila ayol — go‘zal ayoldir

Chunki oqila ayol yo‘lini topib o‘zining go‘zal ekanligiga qarshisidagi insonni ishontira oladi. Balki, ichki go‘zalligi, balki, tashqi go‘zalligi bilan maftun etar. Lekin imkonini topib qarshisidagi insonni ishontiradi. Axir, go‘zallik tushunchasi ong bilan idrok etiladi-da. Ushbu idrokni boshqara olish oqila ayol uchun juda ham oson ishdir. Kiyimlari o‘ziga yarashib turadi. O‘ziga qaragan ko‘zlarni suhbatil bilan go‘zallashtiradi. Qarshisidagi insonning qaysi his-tuyg‘ulariga teginish kerakligini biladi. Chunki haqiqiy ishq vujud emas, badal istashini biladi. Bundan tashqari, go‘zallik vaqtga mag‘lub bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan o‘z jozibasini yo‘qotadi. Ammo oqilalik o‘tgan vaqt davomida to‘rvasiga to‘plagan bilimlari orqali yanada kuchli qiyofa kasb etadi. Ha, aynan shuning uchun ham Zevs Afrodita bilan emas, Gera bilan turmush qurgan.

Chunki go‘zallikni yaratuvchi ne’mat oqilalikdir va uni pardoz-andoz-u estetika bilan yaratib bo‘lmaydi. Oqilalik aslicha ko‘rsatadi. Kamaytirmaydi ham, ko‘paytirmaydi ham...



## **Sevishdan qo‘rqma, kichkintoyim!**

**Butun umr sev!**

**Qalbing to‘lgunicha sev!**

Shunday sevginki, ko‘rganlar oshiq desin.

Shunday sevginki, ko‘rganlar ishtiyoq-u jasoratingdan lol qolsin.

Shunday sevginki, “sevaman” deganlar xijolatda qolsin!

Oshiq bo‘lishdan qo‘rqma, kichkintoyim, qalbing hurligi bilan sev.

Qalbing to‘lgunicha sev!

Shundayin oshiq bo‘lginki, ko‘rganlar telba desin, “Qaniydi, men uchun shunday telbalik qilsa”, — deya orzu qilsin.

Shunday oshiq bo‘lginki, ko‘rganlar hasad qilsin, “Meni sevadigan ham shunday sevsin”, — deya duo qilsin.

Shunday oshiq bo‘lginki, “oshiqman” deganlar xijolatda qolsin.

## **Avvalo ovozini unutasan, so‘ngra esa o‘ylaringdan sassiz-sadosiz g‘oyib bo‘ladi...**

Kichkintoyim, eslashga urinmasang, har bir odam unutilar.  
Uni eslaganingda hayotni ushlab qolishga urinmasang, unutilar.

Dunyoning markaziga qo‘yishdan voz kechsang, har narsa unutilar.

Yarangni tinimsiz tirnab, bitishiga g‘ov bo‘lmasang, unutilar.

Ba’zi insonlar kech unutadi, ammo, baribir, unutadi — unutmaslik uchun bahona topishmasa, bas.



## G‘olib bo‘lishni istaysanmi?

U holda nima qilsang ham, avvalo, o‘zingni baxtli qil.

Chunki asl muvaffaqiyatni g‘oliblar emas, baxtlilar qo‘lga kiritadi.

Chin dildan baxtli bo‘lishni istayotgan bo‘lsang, fikrlaringni hurmat qilmaydigan insonlarga quloq tutma. Chunki hurmat ulug‘ ne’matdir, ma’naviy qashshoq insonlarda uchramaydi.

Ma’naviy qashshoq insonlar boshqalarning baxtiyorligidan o‘g‘irlash tufayligina hayotda qolishadi.

Qadringni bilmagan insonni afsus-nadomatlar ichida qoldir.

Shuningdek, hayotingga qadr qo‘shganning qadrini bil, kichkintoyim. Chunki eng katta boylik — xayolga kelishning o‘zida yoq xushnud eta oladigan inson bo‘la olishdir. Shu tufayli ham kimlargadir: “Yaxshiyamki, borsiz”, — deya olsak, aynan shu insonlar hayotning bizga armug‘on etgan eng ajoyib sovg‘asidir. G‘azabi zakovatidan, xudbinligi iste’dodidan ustun bo‘lgan insonlarga vaqtingni sarflama, isrof qilasan.

”

Baxtiyorlikda VA'DA,  
G'azablanganda JAVOB,  
G'amginlikda QAROR  
**BERMA!**

---

”

Yolg'izlikka aldanib, hafsalang pir bo'lsa  
ham ishqingdan g'azablanma,  
kichkintoyim.

Isyon qilma! O'zingni hayotning oqimiga  
tashla. HUKM EGASIning har kim uchun  
bir rejasi bor, albatta. Shunday ekan,  
eshikma-eshik yurishning nima foydasi  
bor? XAYRLI ISHLARNING SOHIBI  
sabr etganlar uchun ertami-kechmi xayrli  
bir eshikni ochadi.

---



## Ayolning tashqi go‘zalligi emas, qalbidagi go‘zallik muhimdir

Kimki ushbu go‘zallikka erishar ekan, shundagina ayolning haqiqiy qadrini anglab yetadi va unga g‘am-qayg‘uni ravo ko‘r maydi. Uning vujudiga emas, qalbiga erishini istaydi.

Vujud arzimas narsadir, xolos. Demakki, tashqi go‘zallik ham o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Chunki biladiki, ayolning qalbi tashqi chiroyidan ko‘ra jozibali va ahamiyatli. Bu sirga sohib bo‘lgan erkak ayolni yanada e’tibor bilan sevishi lozimligini anglaydi.

Ranjitmay, azoblamay sevadi. Yolg‘on-aldovlarsiz sevadi. Hirs bilan emas, havas bilan sevadi... Hattoki xushomadgo‘ylik qilmasdan sevadi. Aktyor kabi emas, chin dildan sevadi. Sevmoq uchun nimalardir qilish bilan emas, sidqidildan istagani uchun sevadi.

Demoqchimanki, o‘zini o‘zgartirmasdan sevadi. Chunki bu vaziyatda qo‘lga kiritish muhim emas, munosib bo‘lmoq muhimdir.

”

Vaqt hukmiga tashlang! Bo‘lsa, sizniki —  
bo‘lmasa, qismatingizda yo‘q demakdir.

”

Yo‘l tugamasdan safar tugamaydi,  
kichkintoyim. To‘xtab qolmoq —  
manzilni uzoqlashtirmoqdir, xolos.

## Haqqi halolim sen bo‘lsang...

Sen ko‘nglimning o‘zgacha bir joyisan. Muhabbatni, senga asir tushgan orzularimni, nafasimni sen tufayli anglayapman. Sen uchun kurashyapman. Ammo qanchalik chiday olaman — bilmayman.

Vujudim sajdaga egilyapti. Taslim bo‘lmaslik uchun Robbimga duo qilyapman, yolvoryapman. “Erishmoqdan voz kechdim, yo‘qotmasam, shuning o‘zi kifoya”, — deyapman.

“Bu kurash tugamaydi”, — deya o‘ylayotgan bo‘lsang, yanglishyapsan.

Tugar, ammo qismatimga sen yozilgan bo‘lsang, tugatmoq uchun uringanimning nima foydasi bor? Agar barcha qiyin qarorlar menga qolgan bo‘lsa, tugatmoqda ne ma’no bor?..

Chunki tuyg‘ularning ham zaxirasi bo‘ladi. Ammo haqqi halolim sen bo‘lsang, har qanday yo‘l ham, baribir, senga olib boradi.

”

Shunday yashaginki,  
orzularing ham hasad  
qilsin...

## Tun...

Tun tahlikalidir, kichkintoyim. Haqiqatni ko‘rishingga to‘s-qintlik qiladi.

Tun kirgach ayollar yanada go‘zalroq, erkaklar yanada xush-surat ko‘rina boshlaydi.

Tunda xatolar ko‘p, to‘g‘rilar esa oz ko‘rinadi.

Hattoki ba’zan tunda xatolar to‘g‘ridek, to‘g‘rilar esa xatodek ko‘rinadi.

Tun ko‘p o‘ylaydigan insonlar uchun azobdir, kichkintoyim.

Chunki tun shallaqidir, sukul saqlashni bilmaydi.

Ustiga-ustak, uning so‘zlarini o‘ylashni boshladingmi, holingga voy...

Har narsani qochirib, yo‘q qiladi....

Aynan shu tufayli ham uyqu dardlilar og‘irlilik qiladi va tunda uxmlamaydigan insonlarning ko‘pchiligi g‘amgin, oz qismi baxtiyor...

”

Ikki lab orasiga tiqilib qolgan  
jumlaga o‘xshayman. Erkinlikni  
kutyapman: gapir va meni  
qutqar...

## Nima uchun seni tanlaganimni o'zimdan o'zim so'rayapman

Millionlab yolg'izlik bor ekan, nima uchun ichida sen bor bo'lgan xayollarga muhrlanib qolganman?

O'nlab boyliklar bor ekan, nima sababdan sensizlikning qashshoqligiga mahkumman?

Ba'zan o'zimdan so'rayman: hayotni yengillashtirish o'rniغا nega sen tufayli imkonsiz ishlarni amalga oshirishga urinyapman?

So'ngra qarashlaring xayolimga keladi —sovqotaman. Olayotgan nafasim chala-yarim qoladi. Onasini yo'qotib qo'ygan jajjigina polapon qushdek har tomonimni choraszizlik qurshab oladi. Doimo yonimda bo'lishingni istayman. Yonimda bo'lmasang, go'yoki ochlikka giriftor bo'laman. Agarda ketib qolsang, ertangi kunning huzur-halovat g'oyib bo'ladiganday tuyilyapti. Mavsumlarim bahorsiz qoladigandek...

Sen tomon xavotir-u hayajon bilan shoshilaman. Aynan shu onda nima uchun seni tanlaganimni anglab yetaman...

”

Bo'lmaydi emas, bo'ladi,  
ammo oldingisidek  
bo'lmaydi.

## Sabr qiling!

Bu sinovli dunyoda har tanishuv bir sinovdir, aslida...

Demoqchimanki, tanishuvlar sababsiz emas.

Kelgan nimanidir o'rgatadi yoki nimanidir eslatadi.

Yoki, kim bilar, ketgan umuman boshqa bir narsalarni boy berishni o'rgatar.

Har kimning bir maqsadi bor.

Yo sizni yo'ldan qoldiradi, yo yo'lda sizga hamroh bo'ladi.

Kim biladi?.. Yoki umuman boshqa bir yo'lni ko'rishingizga yordam berar.

Demoqchimanki, tanishuvlar behuda emas.

Hayotdagи bo'shliqlarni birma-bir to'ldirish uchundir. Balki, bugun maqsadi ma'lum bo'lmas, ammo ertangi kunlarda har birining o'rni boshqacha.

Balki, yaxshisi yaxshiliginı eslatar, yomoni yomonligini.

Ammo har biri yaxshilikka yetaklovchi eshiklarning kalitidir.

Demoqchimanki, yomon inson qarshingizdan chiqsa, darrov nolimang. Isyon qilishga shoshilmang. Baribir, shukr qiling. Ni-ma bo'lishidan qat'iy nazar, shukr qiling. Chunki o'sha noxushlik eshigini ochgan — ortidagi ezgulikning xabarchisidir. Balki, o'sha ajoyib kunlarning qadrini anglashingiz uchun sizni hozir layotgandir.

• Sabr qiling! "Yaxshilikka bo'lsin", — deya duo qiling. Tabiiyki, bexayr xabarlar ham siz uchun sinovdir.

Vaqti kelib, sinovlar tugaydi. Sinovdan o'tishini eplaysiz. Aynan o'shanda huzur-halovat va baxtiyorlik lazzatidan istagancha zavqlanasiz.

”

Har kimning roli aniq, sevgilim, ammo  
ssenariylar yo‘q.

Ularni topish uchun ham yashaymiz...  
Masalan, sen duolarimning bosh rolidasan.

Menga aytgin-chi, yaxshilikmisan yoki  
yomonlik?

Senga erishishni istayman.  
Aytgin-chi menga, nasibamda bormisan yoki  
yo‘qmi?

Lutf-marhamatmisan? Qahr-g‘azabmi?  
Sen bilan o‘tadigan bir umrga talabgorman.

Aytgin-chi, sevgilim:  
Saboqmisan? Sinovmisan?  
Men bilmayman. Sen-chi?  
Sen ham bilmaysan, to‘g‘rimi?

Bilolmaysan ham.  
Chunki buni SSENARIYNI YOZGAN biladi.  
Shu tufayli ham SSENARIYNI YOZGANDAN  
seni so‘rayman.

Seni aynan shuning uchun duolarimning bosh  
roliga qo‘yaman.

”

Qani, tunni ustingga yopib ol...  
Yoningda bo‘lmasam ham xayolimni  
bag‘ringga ol.  
Bugun uchun bo‘lmasa ham, ertangi  
kunlar uchun asra meni.

---

## **Ishq raqs kabitidir: hamma ham raqs tusha olmaydi**

Masalan...

Kimlardir biri-biriga mutanosib emas. Raqsda sherigining oyog'ini bosar va uning jonini og'ritar. Ammo o'zi esa birga ekanligidan huzurlanadi. Sherigini kayfiyatini va huzur-halovatini buzadi, ammo shunday qilayotganini o'zi sezmaydi ham. Keyin esa musiqa ham g'oyib bo'ladi. Harakatlar maromini yo'qotmaslik uchun raqs zo'raki davom ettiriladi. Buni hech kim sezmaydi ham. Hattoki raqsning boshidagi ishtiyoq aziyatga aylanib qolgan bo'ladi. Rishtalar asta-sekin uzilaveradi. Vaziyat shunday ekan, raqsni birinchi bo'lib to'xtatgangina g'olibdir.

Kimlardir biri-biriga juda mutanosib. Bir-birlaridan faqat zavqlanishadi. Quchoqlashish ular uchun uchish kabitidir. Axir, raqsda ba'zi paytlar oyoqlar yerdan uziladi-da. Raqsning qachon tugashi noma'lum. Har bir odam qalbidan kelib chiqqan holda bunday raqsni imkoniboricha cho'zishi mumkin. Demoqchimanki, qalbi buzuq insonning sevgilisi bilan tushgan raqsi ham uzoq davom etmaydi. Darrov zerikib qoladi.

Ba'zilar esa ishqida yolg'iz yashaydi. Ishqni eng yaxshi his qiladiganlar aynan ulardir. Chunki ular ishq olovida o'zlarini istagandek yonishadi. Olov ustida raqs tushishadi, ammo ishq obihayoti ularni himoya qiladi. Toki qalblari tuzalgunga qadar. Tuzalganlaridagina o'zlariga qanchalik aziyat yetkazganliklarini anglab yetishadi.

## Yolg‘izlik — eng boyning ham faqirligidir

Hashamatlar ko‘zlariningizni ko‘r qilar ekan, yo‘qlikning ma’nosini ko‘rolmaysiz. Vaqt kelib hashamat yo‘qlasa yoki nimadir yetishmayotgani sezilsa, g‘am-qayg‘ular boshlanadi.

Shu onda yo‘qlik murabbiysi qarshingizdan chiqadi, haqiqatni anglatadi. Barcha narsa bor bo‘lsa ham, baribir, nimadir yetishmaydi va shusiz hech narsa bekam-u ko‘st, to‘liq bo‘lmaydi. Kim u? Nima u? Qayerda? Bilib bo‘lmaydi.

Xuddi kamalakning parchalari kabi. U bo‘lmasa, hech bir tasvir to‘liq bo‘lmaydi. Ushbu kamchilik bedavo xastalik kabi qalbingizga cho‘ka boshlaydi. Shuning uchun barcha nafas olsada, faqat ba‘zilarga yashay oladi. So‘ngra esa faqat yashash uchungina o‘zingizni yolg‘onlarga ishontirasiz. Go‘yoki u yo‘q-dek va hech qachon bo‘lmaydigandek. Ammo yolg‘on ustiga qurilgan bino vaqt o‘tishi bilan yiqiladi. Vayronalar ostidan chiqishga intilar ekansiz, hatto yomg‘irlar ham siz uchun yog‘adi.

Lekin yomg‘ir yog‘ayotgandek emas, osmon ahvolingizga yig‘layotgandek tuyiladi. Go‘yoki nihoyasi yo‘qdek ko‘rinadi: nihoya u, u esa yo‘q. Uning o‘rnini hech kim va hech narsa to‘lidirolmaydi. Shu tufayli ham yolg‘izlik juda ham yalang‘ochdir va hech bir boylik yo‘q qila olmaydigan qashshoqlikdir, aslida.



## **Shunday bir uxlasmak, uxlasm-da unutsam...**

Kichkintoyim, bir ayolni sevib qoldimki, xayoli o‘zidan ham chiroyliroq.

Hattoki yomg‘ir ham tuproqqa u haqida gapirardi.

Shamollar uning hidini gullarga tashiydi.

Qalbimda bahor paydo bo‘lgandi.

Ketdi.

Bo‘ron ko‘tarildi.

Qalbimdagи bahor ham o‘ldi.

Qalbimdagи tuyg‘ularimni qo‘pordi, parchaladi.

Jonim azoblanyapti. Tuzalmaydiganday yonyapti. Yaralarim bitishi uchun uni bag‘rimga bosgim keladi, ammo u yo‘q...

Mendan o‘zini uzib olib ketdi.

Endi esa ichimda o‘zimdan boshqacha yana bir men bor — juda ham boshqacha...

”

Ey do'st!

“Nokning bandi, uzumning danagi bor<sup>1</sup>”  
— deya yeishidan bosh tortar ekanmiz,  
oxir-oqibat, qurt tushgan mevalarni yedik.  
Mayli, o'zimizni o'ylamaylik, ammo  
kichkina qurtning nima aybi bor?

---

<sup>1</sup> Bu ibora hech narsani yoqtirmaslik, har narsadan ayb izlash ma'nosini bildiradi. Hamma narsadan bahona topadigan, hamma narsani tanqid qiladigan va hammani yomonlaydigan odamlarga nisbatan qo'llaniladi.

## Kichkintoyim, hamma ham sevadi. Ammo har xil sevadi

Kimdir Yunus Emre kabi sevadi...

Yunus mukammallikni yaxshi ko‘rar edi. Barchasi eng a’lo darajada bo‘lishini istardi. Dargohiga shunchalar e’tibor qaratar-diki, u yerga hattoki egri o‘tin kirishini ham istamas edi. Axir, ushbu dargoh yaxshilik, to‘g‘rilik va halollik maskan tutgan joy edi-da. Shuning uchun ham Yunus Emre ustozи Tabduk tomonidan dargohning o‘tinchisi vazifasiga tayinlanar ekan, doimo o‘tkir sinchkovlik bilan benuqson o‘tinlarni tanlardi. Axir ushbu dargoh Yunusning qalbi edi va uning eshididan faqat eng to‘g‘-rilargina kirishga haqli edi.

Kimdir esa hazrati Mavlono kabi sevadi...

Xatolari bilan qabul qiladi va tuzalishi uchun vaqt ajratadi. Chunki u kamolotga yetish jarayoni qanday bo‘lishini biladi va butun umrlik safarini “**xom edim, pishdim, yondim**” so‘zlarini bilan uyg‘unlashtiradi. U uchun qalbga kirish o‘zgarishning boshlang‘ich nuqtasidir va xayrli o‘zgarish esa vaqt talab yetadi. Pishmoq lozim.

Ammo shuni ham biladiki, sevgi tufayli har narsa ertamikechmi tuzaladi.

Chunki sevgi har qanday yomonlik zahriga qarshi ziddi zahardir.

Lekin har kim ishqning badali qanday bo‘lishni biladi.

Kichkintoyim!



**Ishq tomon uchar ekansan, qanotlaring kuyadi.**

(Sa'diy Sherziy).

**Ishqqqa uchmas ekansan, qanotning nima keragi bor?**

(Hazrati Mavlono).

**Ishqqqa erishgach, qanotni kim ham qidirar?**

(Yunus Emre).

Demoqchimanki, kichkintoyim, har kim har xil sevadi. Kimdir Yunus kabi, kimdir Mavlono kabi, kimdir Jamol Surayyo kabi, kimdir esa Jan Yujel kabi... Ammo sevadi. Ammo sevgi har ko'nglida turfa xil ko'rinishda bo'ladi. Xuddi barmoq izlari-dek... Uni ishqing orqali tanib olasan. Ishqqqa tushgan nigohing-dan bilib olasan. Har kimning badali ham o'zgachadir, xuddi vujudi kabi. Kimdir unday, kimdir bunday... Ammo nihoyada munosib badal to'laydi, to'lagan badalichalik munosib bo'ladi.

Shuning uchun ham, kichkintoyim, o'zingga munosibini sev. O'zingni munosib ko'rGANidek. Kam ham, ortiqcha ham sevma. Yetarli darajada sev. Ishonching qadar sev!

## **Ishqni yo‘qotdim. Chorasizlik!**

Parvo qilmasangiz-chi!  
Nima endi ortidan quvmoqchimisiz?..  
Yana nimalar qilmoqchisiz?  
Zotan, sizni istagan o‘zi ortingizdan quvadi...

”

Unutmang!  
Buyuk baxtiyorliklar  
mashaqqatli va qayg‘uli  
bosqlanishlarni sevadi.

---

## **Kichkintoyim, ishq — erishilgandan keyin ham tugamaydigan sog‘inchdir**

Erishilgandan so‘ng tugasa, bu ishq emas, hirsdir.

Oshiq bo‘lganni to‘ydirish mumkindir, ammo hirsli inson hirsi bilan o‘ladi.

Ishq urug‘ kabidir.

Kirgan ko‘nglining tuprog‘i unumdor bo‘lsa, u yerda unadi, ildiz otadi, ko‘ngilni har tomonidan o‘rab oladi.

Ishq — hech qachon tugamaydigan ne’matdir, kichkintoyim, sevgiga aylanadi, jonga aylanadi, erishilgach esa yanada qudratli bo‘ladi.

Agar bunday bo‘lmassa, demakki, ko‘ngilning tabiatи buzuqdir.

”

Ishonchsizlik ichki azoblarining  
yig‘indisidir. Chunki inson qanchalik  
aziyat cheksa, shunchalik ehtiyotkor  
bo‘ladi.



## O'sha kichkina bolakayni eslang!

Bir shamol esyapti o'tmishdan kelajak tomon...

Ichida ajoyib ifor bilan.

Doimo yoningizda bo'lishini istagan o'sha bebaho ishonch bilan esyapti. Bir ota kabi, bir ona kabi...

Sevgisi aslo tugamaydigan nihoyasiz ishqni xotirlatyapti.

Javobsiz sevgi haqida hayqiryapti.

Huzur-halovat keltiryapti.

Shu onda yanada yaxshi anglaysizki, ko'zingizga aslo tuga-maydigan ko'ringan umr na qadar tez tugayapti.

Ishonch ham shunchalik tez g'oyib bo'lyapti. Ishongan insonlarimiz esa buning isboti sifatida birin-ketin o'lishyapti yoki ko'ngilda chiqib ketishyapti.

Ishonish juda ham qiyin va charchatadi.

Ammo inson nonko'r. Qadri bor payt unutadi, yo'qolganda eslaydi.

Bir shamol esyapti o'tmishdan kelajak tomon...

O'sha kichkina bolakayni eslang!

Parvo qilmang, ushbu shamol sizni kechagi xayollariningizga uchirsin.

Tabiiyki, taqdiringizga bir yaproq kabi ezilmoq ham bo'lishi mumkin.

Lekin bo'limgandan ko'ra nimadir bo'lishga intiling.

Turgan joyingizda mog'orlab qolganda ko'ra shamollarda sovrilib, ezilishga harakat qiling.

”

Qaniydi, nafasingni his qila olsaydim,  
sening-la ko‘zlarimni to‘ydira olsaydim...  
Qaniydi, dunyoda faqat biz bo‘lsaydik...  
Tun ham bizga hasad qiladi: darrov tong  
yorishib qoladi.

---

”

“Vaqt” eng yaxshi tabibdir, “sabr” esa  
uning eng mashhur dorisidir.

---

## O‘yin tugadi...

Old-orqam, o‘ng-u so‘lim berkinmachoq o‘yin bilan o‘ralgan! Old-orqam, o‘ng-u so‘lim berkinmachoq o‘yin bilan o‘ralgan! Halol va ajoyib insonlar qayerda qoldi? Iltimos, o‘rtaga chiqinglar, sizni topgim kelyapti. Go‘zal va yaxshi insonlar, bizlar uchun doimo eng yaxshilarni ravo ko‘rgan insonlar, qayerdasiz? Qani, sizlarni tezroq topay. Qarang, axir, 40 yildirki sizlarni topishga intilyapman. Yaqinda bu dunyodan ko‘chib ketaman, amma hali ham hech biringiz bilan tanisha olmadim. Yoki sizlar yo‘qsiz-u, bundan mening xabarim yo‘qmi? O‘yin boshlanar ekan, doim sizlar haqingizda gapistishardi, doim sizlar kabi bo‘lishni istar edim. Bo‘ldi-da endi, chiqing o‘rtaga, tezroq ko‘ringlar, sizlarni topgim kelyapti. Axir, o‘yin ham tugash arafasida-ku, nima uchun berkinishda davom etyapsiz? Birozdan keyin meni chaqirishadi, yana orqaga qaytishga majbur bo‘lib qolaman. Demoqchimanki, kelganimdek ketaman. Eng kamida, qidiruvchilik jarayonim nihoyasiga yetadi. Demoqchimanki, menga boringizcha ko‘rinishingiz mumkin endi.

Shuningdek, sir saqlashni ham juda yaxshi bilaman: hech kimga sizlar bilan tanishganimni va sizlarni topganimni aytmayman. Aytganday, agar kelsangiz, sizlarga qo‘limdagi hamma misketlarimni<sup>2</sup> berishim mumkin. Shundoq ham, yaqin kunlarda meni bu o‘yin maydonchasiga aslo kirgizmaydilar.

Hoy-y-y-y-y! Eshityapsizlarmi? Meni chaqirishyapti. Eshitilgan bu ovoz na onamniki, na otamniki... Ammo shunchalar

<sup>2</sup> Misket o‘yini— asosan Turkiyada keng tarqalgan, bolalar o‘yini. Bu o‘yinda bolalar “raqib”ining yoki “raqib jamoa”sining yerga tizilgan har xil rangli shisha sharchalarini o‘zining sharchalari bilan nishonga oladi. Tegsa, yutadi — tegmasa, yutqazadi. Mana sharchalar ham misket deb ataladi.

tanish va shunchalar sovuq bir ovoz... Har doim tasavvur qilganimdek.

Mayli, mayli! Eshitdim. Shu onda o'yin bilan bandman. Yana biroz o'ynay, keyin boraman. Iltimos, yana birozgina tashqarida qolay. Axir, hamma tashqarida-ku. Qarasangiz-chi, o'yining eng qiziq joyidamiz. Axir, o'yinni chala qoldirish mumkinmi?.. Iltimos, yana ozgina... Iltimo-o-o-s! Axir, hali ham halol va go'zal insonlarni topishga ulgurmadi... Hattoki o'ynagan nimni ham sezmadim, o'yindan endigina zavq ola boshlagan edim. Darrov chaqirib olyapsiz. Bormayman dedimmi, bor-mayman!. Uf-f-f!!! Borsam, keyin o'ynashimga aslo izn bermaysiz-ku... Bilaman, keyin tashqariga aslo chiqolmayman.

Uf-f-f!.. Ey halol va ajoyib insonlar! Yashiringan joyingizdan tezroq chiqing, barchangizni topib, keyin qaytay. Qarang, axir, tinimsiz chaqirishyapti. Shundoq ham birozdan keyin uchrashamiz-ku, bir-birimizni tanib olamiz-ku. Qo'rqlikingizga ham hojat yo'q, yomonlar sizga hech nima qilolmaydi. Men sizlarni himoya qila olaman. Axir, qancha yillar yomonlar bilan kurashdim. Yana ham to'g'rirog'i, yomonliklarning barcha turini ko'r-dim. Ammo yiqilmadim. Hanuz tik turibman, o'yinni davom ettirishga urinyapman. Ular qancha o'yinbuzarlik, g'irromlik qilgan bo'lishsa-da, o'yinimni o'ynashdan voz kechganim yo'q. Meni necha bor o'yindan chiqarishga harakat qilishdi, tishlashdi, ammo ulardan kuchliroq bo'lqanim uchun o'yindan chiqara olmадilar... Uf-f-f! Ko'rdingizmi, ana, meni olib ketish uchun kelishi-di. Qarang, axir... Qaranglar, axir, meni olib ketishyapti. Hech bo'limganda, bittangizni topsam bo'lmasmidi?..

Yana ozgina o'ynashni istayman. Iltimos, qo'yib yuborsangiz, nima bo'ladi?.. Qo'yib yuborsangiz, men ham yaxshi odamlardek berkinib olaman, aslo tashqariga chiqmayman. Yana

birozgina o‘ynasam, nima bo‘ladi? Kimga zararim tegadi? Ovoz chiqarmasdan o‘ynashda davom etaman. Qani, izn bering... Shundoq ham, yana biroz o‘ynasam, o‘zim qaytib kiraman. O‘ynamasam, ezilaman. Shuningdek, yana bir qancha o‘yinlar bor, ularni ham o‘ynashni istayman. Bolalarim bilan birgalikda yangi o‘yinlarni o‘rganmoqchi edik. Ayolim o‘rgatgan o‘yinlarni yana o‘ynamoqchi edik va bu o‘yinlarga yangilarini qo‘shmoqchi edik. Aytganday, nega meni qo‘llaringizda ko‘tarib ketyapsiz? Nima keragi bor? Qani, qo‘yib yuboringlar meni. Qani, izn bersangizlar, nima bo‘ladi, o‘ynashda davom etay. Kun botib, havo to‘liq qorong‘ilashgan bo‘lishi mumkin, lekin qorong‘ida bo‘lsa ham o‘ynashda davom etishni istayman. Axir, har bir tunning bir tongi bor-ku? O‘ynar ekanmiz, ushbu qorong‘ilikni, balki, yori-tarmiz... To‘xtang, meni qo‘yib yuborsangiz, sizlarga barcha mol-mulkimni beraman. Bugungacha erishganlarimning hammasini beraman. Faqatgina biroz muddat istayman. Bilaman, hamma joy zulmat, havo juda sovuq, ammo mening o‘yinim hali davom etyapti. Hech bo‘lmasa, oxirgi o‘yinimni tugatishimga izn bersaydingiz...

Ey, yaxshi, halol va go‘zal insonlar... Qani, chiqinglar, meni qutqaringlar! Men uchun gapiring: olib ketishmasin meni. Qo‘yib yuborishsinki, sizlar bilan o‘yinimizni davom ettiraylik. Agar mana shuni hal qilsangiz, sizlarni topishdan ham voz kechaman. Iltimos, men uchun birozgina vaqt topinglar.

Hech bo‘limganda, ayolim va bolalarim bilan vidolashib ol-saydim. Endi ular meni g‘irromlik, o‘yinbuzarlik qilgan odam şifatida ko‘rishadi. Ularga shunchaki vaziyatni tushuntirib, qayerda bo‘lishimni aytib, darrov qaytib kelaman. Qochib, bekinib olmayman! Darrov qaytaman! Qani, meni yerga tushirlaringchi... Axir, bolaligimdan beri meni shu yo‘rgakka o‘rab qo‘y-



gansiz, endi bundan chiqaringki, men ham huzur bilan nafas olay. Bu yo'rgaklarning ichida harakatlana olmayapman. Juda ezilib ketdim!!!

Qanaqasiga mumkin emas??? Qanaqasiga mumkin emas??? Qani... Chi-qa-ri-i-i-i-ng me-n-i-i-i-i bu yerdan chiqaring!.. Bor-yo'g'i 40 yildan tashqarida bo'ldim. Ko'p bo'lmasdi. Darrov ich-kariga olib kirishning nima keragi bor? Ustiga-ustak, men endi kap-katta odamman-ku... Qachon qaytishimni o'zim hal qilaman. Meni majburlab hech nima qildira olmaysiz!. Istanasangiz ham, qilda-ira olmaysiz. Siz qilayotgan ish, shak-shubhasiz, odam o'g'irlash deyiladi.

Ey yaxshi, halol va go'zal insonlar!

Odam o'g'irlashyapti!

Qutqaringlar meni!

So'z beraman: hech biringizning yuzingizga qaramayman. Sizlarni kimligingizni bilmayman, bilib olishga ham bilib olishga urinmayman. Iltimos, menga yordam beringlar. Bu odamlar meni muzxonaga qamab, yelkalarida ko'tarib o'g'irlashyapti. Ustimga esa bir nimani kiydirib qo'yishibdi — buni ilgari aslo kiymaganman. Uf-f-f! Cho'ntaksiz kiyimlardan nafratlanaman. Menimcha, misketlarimni ham o'g'irlashishdi, shu kungacha erishganlarimni hammasini olishgan, har holda... Iltimos, yordam beringlar! Men hech nima qilmadim. Aslo yomon ish qilmadim. Ammo menga doimo yomonlik qilishdi. Yaxshini aslo ko'r-madimki, yaxshilikni qanday ko'ra olaman?.. Ishonchim komil: yaxshi inson edim, hech bo'lmasganda, yomonlardan ko'ra yaxshiroq edim. El qatori yashadim. El qatori qaridim. 2 farzandim, 1 ayolim bor, ammo dunyoda mening hamrohim, o'xshashim yo'q edi. Bo'lganida edi, yomonlar allaqachon uni menga o'xshatishardi. Har narsam bor-u yo'g'im edi. O'g'irlamadim, tortib

olmadim, o‘g‘irlaganga ham zarar bermadim. Axir, nima qildim men? Hali hech narsa qilmadim-ku, qilolmadim.

Qo‘yib yuboring meni, qo‘yib yuboring! O‘rnimga boshqasini olsangiz bo‘lmaydimi? Hali to‘lanmagan qarzlarim bor. Aytganday, qari va xasta qo‘schnim bor... menimcha, mendan oldin uni olib ketishingiz kerak. Shuningdek, ustiga-ustak, men hali tayyor emasman. Men endigina 40 yoshga kir yapman. 41 yoshga kirishdan oldin sinovga hozirlanmoqchi edim. Hozir sinovga kirtsangiz, o‘ta olmayman... Shuncha yillardan buyon o‘zimni sinovdan o‘tishga hozirladim. Sinovga endigina tayyorlanishni boshlagandim, sizlar esa meni olib ketyapsizlar. Birozgina vaqt bersangiz, barchasini birdaniga hal qilaman. Ishchan odamman. Ustiga-ustak, qilishni rejalashtirgan bir qancha xayrli ishlarim bor. Meni hozir olib ketsangiz, ularni kim qiladi?

A-a-a-a-a! Endi esladim, aslida 2 kunga qolmay sigareta chekishni tashlamoqchi edim. Hattoki sport bilan shug‘ullanib, sog‘lom hayotni boshlamoqchi edim. Yana uzoqroq yashashimni ta‘minlashi uchun... Ikki yildan keyin esa to‘liq tibbiy tekshiruvdan o‘tmoqchi edim. Qani endi, shu libosni ustidan yechinglarchi... Juda ham isib ketdi. Ushbu sovuqda meni terlatib yubordi. Aytgancha, birortangizda sham yoki qo‘lchiroq bormi? Orqaga qaytishda yo‘limizni yo‘qotib qo‘ymaylik. Ha, yana bir narsa xayolimga keldi. Yillar davomida onajonim ko‘p xafa qilgandim, endi yaxshi ko‘rishimni o‘ziga aytmoqchi edim. Bir marta aytib kelsam bo‘ladimi, izn berasizmi?

Tushundim... Qaroringiz qat’iy. Mayli, meni majburlashiningiz shart emas. Qolaversa, qochib ketmasligim uchun meni ushbu go‘zal manzarali osmono‘par binoga qamab qo‘yishingizga ham hojat yo‘q. Axir, shundoq ham, ustimga mana bu libosni kiy-dirib qo‘yaningiz tufayli hech qayerga qocholmayman.

Ko'chada, olomon orasida bu qiyofada yurishdan uyalaman. O'zimni yap-yalang'ochdek his qilyapman.

He-e-e-e-y-y-y-y.... Meni olib ketayotganlar bu safar uzoq davom etmasa kerak, har holda. Baribir, bir qancha ishim chala qoldi. Orqaga qaytib ularni oxiriga yetkazib qo'yaman.

Aytganday, anavi yerda turgan — mening ayolim. Naqadar chiroyli, shunday emasmi? U bilan tanishgan ilk kunimizni esl-ayman, hayotimda menga berilgan 3 ta eng bebaboh ne'matning biri u. Qolgan ikkitasini ham turmush qurganimizdan so'ng menga u bergen... Ular ham hozir onalari yonida turishibdi. Ikkovlari ham kap-katta bo'lib qolishgan, ammo mening ko'zimga halihanuz kichkina bolakaylar kabi ko'rinishadi.

Yana qayerga ketyapmiz... To'xtatinglar bu poyezdni. Hali oilam bilan quchoqlashib xayrplashishga ulgurmadim. Mashinist! To'xtat shu poyezdni... 2 daqiqada vidolashib olamiz. Xuddi ishga ketayotganimdagidek... To'xtatinglar bu poyezdni... Men borishdan voz kechdim. Aslida ham borishni aslo istamagandim. To'xtatinglar!!!

Qanaqasiga?.. Bu poyezd emas-ku?.. U holda ko'zimga kirgan bu tutun nimaning tutuni?.. Qaranglar, axir, ustimga yopirilib kelyapti. Ah-h-h-h... Burnimning ichiga ham kirdi... Bu tutundan tuproqning hidi kelyapti, ammo bu tuproq emas. Chunki hech bir tuproq ustimda bulut kabi bunday tura olmaydi.

Iltimos, meni qo'yib yuboringlar... Eshitinglar, axir, hayotim-da bir qancha PUSHAYMONLIK LAR bor... Barchasi cho'ntagimda... Ishonmasangiz, o'zlarining ko'ringlar. Mening qo'lim u yerga yetmayapti. Bo'lmasa, hammasini o'zim ko'r-satardim.

Go'yoki...

”

Parvo qilmang!

Nima bo‘lsa ham, bir kun ortiga nazar  
tashlaganida atrofidagi qadrsiz toshlarni  
to‘plash bilan ovora bo‘lib qolganligi  
tufayli juda ham bebahो bir olmosdan voz  
kechganini anglaydi.

---

”

... Keyin esa nigohini olib qochdi.  
Chunki nigohi qochira oladigan yagona  
narsasi edi.

Ko‘ngli qoldi, xayollari qoldi...  
Ketish yechim emas edi, ammo qolish  
o‘lim edi.

Qolganlar uchun qilinadigan hech nima  
yo‘q edi.

Chunki qolsa, o‘zidan voz kechishga  
majbur bo‘lar edi.

”

Bir ayolga o‘ziga munosib qadr-qiyomat  
bersangiz, mukofoti munosib  
bo‘lganiningizdan ham ko‘proq bo‘ladi.  
Chunki saxiylik ayol kishining tug‘ma  
tabiatida bor.

## Ishq maktubi

G‘oyib bo‘lgan sevishganlar ensiklopediyasiga yangi qo‘shilganlar...

Vaqt naqadar tez ilgarilab ketmoqda, kunlar ham shiddat o‘tmoxda, ammo o‘tmishdagi kurnlardan qolgan xotiralar negadir o‘tib ketmayapti. Azobi ham, rohati ham o‘tib ketmayapti...

O‘tib ketgan har bir kundan keyin o‘zimni yana seni kutayotgan yangi kunda topyapman. Keyin esa o‘zboshimchalik bilan yana kutishni davom ettiryapman. O‘sha kunni shunday tushunyapman, rejalaشتiryapman. Senga aytadiganlarimni so‘zma-so‘z hisoblab chiqyapman. Hattoki oladigan nafasimgacha hisoblayapman. So‘ngra o‘sha kun kelgach barchasi bir-biri bilan chalkashib ketyapti. O‘zimning ovozsiz qichqirig‘im bilan bo‘g‘il-yapman. Har narsani senga ko‘rinmaydigan, eshitilmaydigan tarzda qilyapman. Aslida, qilayotganlarimni o‘z xohishim bilan qilmayapman, telbalik deganlari shunday bo‘lsa kerak. Sen ha-qingda o‘ylash...

Ishq nima, sevgi nima, insonning qalbi yonishi nimani anglatadi, ishq azobi nima, o‘ylar va tuyg‘ular yurakka qanday san-chiladi, olgan nafasi insonni qay tarzda kuydiradi? Bularning barchasini bilaman-u, lekin kimdir so‘rasa, unga qanday tushuntirishni, qanday ko‘rsatishni bilmayman. Ba’zida erkin nafas olish uchun ham shunchaki seni quchoqlab, ichimga tortishni istayman. Bu tuyg‘uning xayoli ham menga juda g‘aroyib tuyiladi. Ammo o‘pkam sening hiding bilan to‘lib-toshgan, har nafasda meni kuydiryapti.

... Yana telbalarcha gapiryapman.

Hanuz har doimgidek go'zalsan.

Uyqudan endigina uyg'ongan bo'lsang-da, har tomoning chang-to'zonga belangan bo'lsa-da... Sen har onimdasan, har xayolimdasan, ko'ringan har bir rasmdasan... Senga tegishli bo'lgan narsalarning birortasini uyimdan ham, tushlarimdan ham, ko'k yuzidan ham, Yer yuzidan yo'q qila olmadim.

Har holda, ilk bor menda unutib qoldirgan xayolingga ta-shakkur etishim kerak. Chunki xayoling menga ilk marta bun-chalik yaqindan teginyapti. Nima bo'lsa ham...

Senga erishish va sen bilan suhbatlashish uchun... Uf-f-f-f! La'nati jag'im ochilsa, yopilishni bilmaydi. Har ochganimda chala qolgan jumlalarim to'kiladi. Aslida, o'zimni tuta olaman, ammo qalbimga yo'qliging bergen yaralar qonar ekan, u chiqargan o'y-u xayollarni to'xtata olmayman. Senda qolganlar meni zo'riqtiryapti...

Tanlov qimorida bir-birimizni boy berar ekanmiz, vaqt to'rvasiga ayriliq jumlalarini solib qo'ydik, faqat go'zal onlarimizni boshimizdan o'tkazgan joyda unutdik. Kelajak rejalarimizning barglarini yozayotgan daraxtimizni bus-butunlay quritdik. Orzularimizni hayotimizga kirta olmaganimiz uchun bizga oid har narsa xato edi. Shuningdek, sen ham, men ham shunday edik. Men sendan voz kechishni hech qachon o'ylamaganman, o'ylay olmaganman ham. Nima bo'lsa ham, bu haqida o'ylashni ham istamayman.

Bo'lib o'tganlarning barchasi qo'rqinchli tush bo'lishini, uyg'onganimda esa sevinishni istayman...

Oxirgi marotaba ko'rishganimizda, ha, o'shanda, hammani hayratda qoldirganimizda sendan bo'sa olmoqchi edim va hammasi filmlardagidek tugagan joyidan yangidan boshlanmoqchi

edi, ammo... Qarshimizda bir dona “AMMO” bor, ustiga-ustak, yonidagi PUSHAYMONLIKlar bilan birga...

Balki, ora-chora xayolingga kelayotgandirman. Aslida, qo‘llingga telefoningni olib menga bittagina xabar yozmasligingni ham bilaman. Hattoki qo‘ng‘iroq ham qilolmaysan. Ammo men senga qo‘ng‘iroq qilib yurgan telefonimni hali ham olib yuribman va har doim ishlab turadi. Hattoki quvvatining tugab qolishiga ham yo‘l qo‘ymayman. Meni adashgan joyimdan topa olishing uchun telefon raqamimni ham o‘zgartirmadim. Aslida, qo‘llimdan kelgan har narsani qilishga urinyapman. Faqat qo‘llaring qo‘llarimga yana qaytib kelishi uchun... Ammo sen... Jumlalaram yana tizginidan chiqib ketishni boshladi.

O‘ylaymanki, bu orada imtihonlaring ham tugagan.. “Ularni yaxshi topshirib olgan bo‘lsang kerak”, — demoqchi edimki, ammo bunga hojat yo‘q, yo‘lini topib hal qilgandirsan. Umid qilamanki, hamma ishing joyida, sog‘-salomat va baxtlisan.

Shundoq ham, seni baxtsiz holda tasavvur qilolmayman, sening baxtsizligingda zulmat ichiga tushib qolaman. Tabassumning dunyomni yoritadi.

Ayni paytda Istanbuldamisan?

Balki, Anqaradadirsan, yoki Bursadamisan, yoxud Afyonda yashayapsanmi, yo Yozgatdamisan, yoki Ag‘ridadirsan, yoxud Diyorbakirdamisan, yo Xataydamisan, balki, Trabzonda?..

Qayerda bo‘lsang bo‘laver, men o‘sha kuni soat 12:34 da... O‘sha joyga boraman va sening kelishingni kutaman faqat...

Shuningdek, ko‘rinishi o‘zgartirilgan bo‘lsa-da, bir paytlar sen bilan birgalikda o‘tirgan stolimizda, sen bilan birgalikda eshitgan qo‘shiqlarimizning sadosi ostida kutaman...

U yerga borishda oldin sohilga boraman. Bizni birinchi marta uchrashtirgan o‘sha sirli joyga... Yemasam ham, o‘sha kunda-

gidek kumpir<sup>3</sup> buyurtma qilarman, balki... Seni kutaman. Jimgina... Balki, har doimgidek kech qolarman. Yo‘q! Yo‘q!.

G‘ururim toptaladimi?..

Seni sevaman va buning uchun hech qachon pushaymon bo‘lmadim. Kutaman.

Kelmasang yoki kelolmasang tugaydimi? Bu savolni yozar ekanman, o‘zimdan o‘zim kulyapman. Chunki, menimcha, javobini sen ham, men ham bilamiz.

Aslo tugamaydi.

Kutishimni boshqa kunga qoldiraman, xolos.

Har qanday narsa menga sendan kelgan bir xabarni, bir qo‘ng‘iroqni, yoki sen tomon bir yo‘lni ko‘rsatadi...

Ba’zan xabar berish uchun bulutlarni sen jo‘natgan bo‘lishing mumkinligi haqida xayol suraman va shu onda zulmat ichra uyg‘onaman.

Istanbulga emas, dunyoning bir chetiga chaqirsang ham, uchib boraman.

Bir xabar yozsang, bir qo‘ng‘iroq qilsang, bas. Bunday qilmasang ham...

Kutaveraman...

Yaxshiyamki, seni uchratgan ekanman... Yaxshiyamki, bu ko‘zlarining yuragimni tilkalagan ekan. Yaxshiyamki, borsan... Yaxshiyamki, o‘sha kuni o‘sha yerga kelib seni ko‘rgan ekanman...

Kutaveraman...

---

<sup>3</sup> **Kumpir** — qaynatilgan kartoshkaning ichiga qovurilgan go‘sht (yoki kolbasa), pishloq, makkajo‘xori, zaytun yog‘i, qaynatilgan no‘xat va sabzi solib tayyorlanadigan yengil taom.

”

Do'stingiz ketadi,  
Sevgilingiz ketadi,  
Oshnangiz ketadi,  
Qo'shningiz ketadi,

Ortda faqat o'zingiz-u Robbingiz qoladi...

Shuning uchun sizni HECH QACHON  
YOLG'IZ QOLDIRMAGANGA ishoning.

Unga ishoning.

Duolaringizga qalbingizni sidqidildan  
oching.

Sizga, albatta, xayrli yo'lni ko'rsatadi.

Keyin esa o'zingizga ishoning...

Boshqalar uchun o'zingizdan voz  
kechishni bas qiling. Avvalo, o'zingizni  
baxtli qiling, qolganlarni esa keyin...

---

## Ortda o‘tmishimning qahramoni — faqat “men” qoldim...

*Darding dardim edi.* Hamma uning dardining darmonini birgina so‘zda ekanligi aytardi. Chunki u mendan boshqalarga faqat bir so‘zni aytardi. Ularning fikriga ko‘ra “ayriliq” juda ham oson va muammo chiqdimi, darrov qilinishi kerak bo‘lgan ish edi. Ammo “ayriliq” men aytishim mumkin bo‘lgan bir so‘zga teng kelardi. Bu jumla “o‘lim bilan qovushish” bilan baravar edi. Baribir, bitta so‘zdan ko‘payib ketdi.

Bu so‘zning har bir harfi uchun qulog‘imdan to‘lov olgan aqlim bola-chaqasining so‘nggi rizqini ham o‘y-fikrlarga sarf qildi.

Unga sohib bo‘lish tufayli oziqlantirgan kechinmalarim azoblarimni yanada semirtirdi. Bu, aslida, xalq manfaatlarini ko‘zlaydigan norasmiy hukumatning muammosi kabi edi. Bu sovuq vujudimda o‘tkazilgan demokratik saylovlarning muvafaqiyatsizligi va pushaymonliklarning og’irligidan bo‘yni bukilgan umidlarimning titrog’i edi.

*Nuqsonlaring nuqsonlarim edi.* Qarshimdagи insonga tuy-g‘ularimga aloqador nimalar yedirgan bo‘lsam, qo’llarimda qolgani quoqlarimdan qalbimga qusganlari edi. Ammo hech kim nuqsonini ko‘rsatmadи, doimo yashirdi... Ega bo‘lmagan fazilatlari bilan maqtanib, meni parchalab nuqson topadigan ochko‘zlar, hayotimga mehmon bo‘lib kelganlar hayotdan kutgan umidlari bilan emas, pushaymonliklari bilan kifoyalanishga majbur bo‘lishdi. Har qadahda sharaf uchun meni oyoqda tutgan oriyat edi va, afsuski, toma-toma oriyatdan oriyatsizlik qoldi.

***Qalbimdagи “men” sen uchundir.*** Men boshqalar tomonidan faqat “sen” tufayli ezilmadim. Kimdir ezgan bo‘lsa, o‘zi aybdor edi. Chunki har kim manmanlikni ko‘zlar edi. Har nafasa o‘tmish tomon oqqan xayollarimni yeganlar umidlarimdan oziganlib, har bir bir bekatda ustimga minadigan boshqalar joy hozirlardilar. “Kim bo‘lsa ham” deyolmaydiganlar uchun yaqinlarining qadri hech kimi yo‘qlardan qadrliroq edi. Shu tufayli ham men hech kimsiz qoldim. Bugun kechaga, ajoyib davrlar noxush lahzalarga, taraqqiyot tanazzulga, u esa nihoyaga bo‘yin egdi. Ha, mana shunday azobli holatlar qalbimga sanchiladi. Bundaylar harakatda bo‘lgan ko‘krak qafasimning ichida muzlatgich kabi yashirinib olishgan, “Balki, bir kun foydalanarman”, — deya kutishyapti.

O‘ylarimni o‘ylar ekanman, ko‘ngilsizliklarimni yo‘q qilish uchun “sartarosh”ga tuyg‘ularimni qirqtirdim. Endi esa “go‘rkovim” qonga bulg‘angan sadoqatimni qonli toshlar bilan ko‘mishga majbur bo‘lib qoldi.

***Kechinmalaring kechinmalarimdir...*** Har bir tug‘ilgan kunitda qariyotgan umrim va dardga burkangan boshim bor edi. Zulmatga burkangan yuragimdan kelayotgan bulutlar tufayli ko‘zlarimdan yoshlар oqardi. Keksayganda egilgan, keyin esa quritilib ahamiyatini yo‘qotgan g‘oyalarim notanish g‘oyalardek qadr ko‘rmadi. Aytgancha, ayni paytda hamma uxbab yotganida, mening ko‘zimga aslo uyqu kelmasdi. Bo‘lib o‘tganlarni, tugab ketganlarni va tugatganlarni ko‘rdim. Xayollar manzarasi xirala-shadi, ranglar aralashib ketdi — tushuna olmadim. Faqat raqamlar oqib tushardi undan. Ko‘rdimki, xayollar tasvirini qayta tiklay olmadim — men ham kutilmaganda uyquga ketdim. Endi tushlarimda kezaman. Men o‘tmish davrlarni faqat tush kabi talqin qiladiganlardanman. Bundan buyon turgan joyimda unib-o‘s-

man va shamol qay tomonga essa, o'sha tomonga hidlarimni tarataman.

Ey-y, imkonsizlikdan imkon topgan o'zligim! O'lgan kunningni esla. Eski xotirangga sotgan vujudning oh-u dodlarga to'la hidini va yegan luqmangning tuproqqa aylanganini unutma. Yangi kunlarni sevinib qarshi olar ekansan, uning har bir lahzasida o'tmishni xotirlab turginki, bahona izlashingga hojat qolmasin. Sen o'zing bilasan, qolganini hech kimga bildirma. Zotan, azob-lagan-u, lekin azoblanishimga arzimaydiganlar bir kun kelib ruhimga qo'1 cho'zganliklari uchun vujudimning har bir nuqtasi-dagi o'zgarishlarni sezadilar. Zotan, odamlar hattoki meni o'zim-dan ayirganliklari uchun ham sevinishadi.

”

O‘zgarish mashaqqatlidir.

Ammo go‘zalliklar  
mashaqqatlar ortida  
yashiringan.

---

## Quduqning soyasida...

G'ururimni osgan joyim — masjidning minorasidan shu on janoza namozi eshitilyapti. Hali ism aytilgani yo'q ammo, o'zimni o'lganning o'rniqa qo'yib ko'rdim. Mendan oldinlari aslo bo'limgan pokizalik hidi taralyapti. Balki, g'assol meni yuvib qo'ygandir — bilmayman. Mendan hech kim hech nima so'ramadi, ammo marmarningsov uqligini yog'ochning yoriqlaridan his qilyapman. Nega bilmayman, lekin, hech sovqotmayapman. Bilib bo'ladimi, balki, o'limimni eshitganlarning tuyg'ularini sovitayotgandirman.

Shoshmang, imom hazratlari, biroz to'xtang. Bu vaziyatga o'zimni tayyorlab olay, ismimi aytmay turing. Shundoq ham, o'limimni eshitib keladigan yaqinlarim ham unchalik ko'p emas. Chunki rohat-farog'at yashagan paytlarim atrofimdagilarga biron foydam tegmas edi va insonning o'z nafsi yo'lida foydalanganlari oshna-og'anynichilik-do'stlikning ildiziga urilgan bolta edi. Nima bo'lganda ham, charxpalak kabi bu dunyodan umid ko'p edi. Chorasizliklarga inson hayotida aslo joy yo'q edi. Endi esa gap imomga qoldi! Janozaning so'ngida g'olibni e'lon qiladi. Aslo hayajonlanmay, ya'ni har doimgidek mag'lub bo'lganlarning ismini tilmay olmay gapiradi. Imomdan bu ismni eshitganlar, "Facebook"ga kirib, o'lgan odam kim ekanligi aniqlashtirishga harakat qiladilar. Keyin esa, balki, xafa bo'lishar; balki, sevinishar; balki, xotirasidagi bo'shliqni ushbu ma'lumot bilan to'ldirishar; balki, "Google"dan izlashsa-da, o'lgani inson kimligini bila olishmas. Chunki ketayotgan inson bu dunyodagi barcha

ma'lumotlarini yashiringan yoki o'chirib yuborgan bo'lishi ham mumkin...

Ammo ishonchim komil: bu safar men g'olib bo'ldim. Oxir-oqibat, hech kim tenglasha olmaydigan HISOB-KITOB EGASI meni ham olib ketish uchun keldi. Men uchun keldi va... Ruhimni vujudimdan chiqarib olib, so'nggi manzil tomon yo'l oladi va meni ham so'nggi manzilga olib ketadi. Yillar davomida kutgan navbatim keldi va bu safar so'nggi nafasim bilan yaxshilab puflab, barcha shamlarni o'chirishim lozim.

Qani, imom hazratlari, boshlang!

Ismimni aytинг-u, do'st-u oshnalarimni oxirgi marta ko'ra-yin. Endi g'olib men ekanligimni aytmasangiz, hech kim ishonmaydi.

Aslida, hech kim kelmasa ham bo'lardi. Ovora bo'lishning nima keragi bor. Qolaversa, hech kim kelmasa ham, ustiga moviy dunyoning shirinliklari qo'yilgan ushbu "patnis"ni sovuq tup-roqqa in'om etadiganlar, baribir, bo'ladi. Bularni tanimayman, ammo: "Qaniydi, vaqt borida ular bilan tanisha olsaydim", — deya afsuslanyapman.

Qani, imom hazratlari, boshlang! Ismimni aytинг-u, abadiy uyquga ketish qanday bo'lishini butun dunyo eshitsin. Dunyonи o'zim bilan qamrab olishni sabrsizlik bilan kutyapman! Barcha sukul saqlasin! Ana, endi kelyapti! Aytganday, iltimos, bu xazinalar sandig'ini ko'tarib ketayotganlar juda ehtiyot bo'lishsin. Axir, ushbu safar yo'lida juda ko'p tebranaman. Imom hazratlari, so'z sizga!

...

Eh!.. Bo'lishi mumkin emas! Sizga aytilgan ismni yana bir bor tekshirib ko'ring. Yana yutqaza olmayman. Bu safar jon-

## Sukut saqlab sevmoq...

Insonlar bir-birlariga baqirishining sababini bilasanmi, kichikintoyim. Chunki insonlar bir-birlaridan g‘azablanishsa, qalblari ham bir-biridan uzoqlashadi. Oralarida masofa paydo bo‘ladi. Bu masofa uzaygan sayin insonlar ham bir-birlaridan uzoqlasha boshlaydilar. Ovozini eshittirish uchun baqirishga majbur bo‘lishadi. Kimdandir qanchalik g‘azablansa, ovozi shunchalik bandlashadi. Shu tarzda o‘zini yaxshiroq anglashlari mumkinligi o‘yaydi. Ammo ovozi ko‘tarilgan sayin qarshisidagi qalb yaqiniga ham kela olmaydi. Chunki qalbning qulog‘i juda ziyrak. Eng yomon ham qulog ham qarshisidagi odamga yaqin turadi va eshitganlarini asliday o‘z sohibining qalbiga anglatadi. Ushbu shiddat bilan yuzma-yuz qolgan qalb sinadi yoki uzoqlashgan joyida qoladi.

Axir, inson sevganiga shunday munosabatda bo‘ladimi? Suhbatlarda qalblar yaqin bo‘lgani uchun sokinlik ustunlik qiladi, baqirmoq emas. Chunki ularning orasida masofa yo‘q. Aslida qalbning ziyrakligi ham shuni talab qiladi. Chin dildan sevgan inson sevgilisining qalbiga o‘zining qalbidek munosabatda bo‘ladi. Azoblanmasligi uchun himoya qiladi, asraydi, sohibiga aylanadi. Shuning uchun ham bir-birlari bilan bir butun bo‘lish yo‘lida olg‘a qadam tashlayotganlar o‘zaro shivirlashib gaplashishi. Shuning uchun ham inson sevgilisining qulog‘iga sevgi izhorini shivirlab aytishini istaydi. Shivirlashib suhbatlashish hattoki uzoq qalblarni ham bir-biriga yaqinlashtiradi, ta’sirlan-

irradi. Shuning uchun ham radioda shoirlar she'rlarini shivirlagandek o'qishadi. Hattoki bundan samarali usul bor. Shunday paytilar bo'ladiki, bir-birini sevgan o'zaro suhbatlashishiga ham hojat qolmaydi. Bir-birlariga qarashlari yoki teginishlarining o'zi yetarli bo'ladi.

Chunki ikki qalb shunchalar yaqinki, biri-birini so'zsiz his etar,

## Kichkintoyim, haqli ekanligimni bilaman!

Ammo har kim shunchalar haqliki, haqli bo‘lmoqdan uyala-man.

Bilaman: halollik eng yaxshi fazilatdir.

Ammo har kim shu qadar halolki, mening halolimning ma’no-mantig‘i qolmaydi.

Bilaman, kichkintoyim...

Men-ku bilaman, ammo boshqalar meni bilmaydi-da.

Ha. Aynan shu tufayli so‘zlamoq zaharga, jim turish azobga aylanadi.

Go‘yoki og‘zimda tikanli saqich bor-u, tupurib tashlashim esa taqiqlangan.

Chaynasammi? Kutsammi? Qaror qila olmayapman.

Bilaman: taslim bo‘lmasligim kerak.

Vaqti kelib har narsa o‘zgaradi, amalga oshmas orzular ham ro‘yobga chiqadi, bilaman.

Ammo chiday olmayapman.

Duolarimdan boshqa sig‘inadigan joyim qolmadi. Usiz dera-zadan qarar ekanman, dunyo ma’no-mazmunsiz ko‘rinyapti.

Bilaman: ega bo‘lganlarimning bor-yo‘g‘i — shu. Mening ham bor-yo‘g‘im — shu.

Bilaman: kelajakda barchasi yaxshi bo‘ladi, ammo faqat u bo‘lmaydi.

Bilaman! Bilaman!

Ertami-kechmi qandaydir bir qarorga kelishim shart. Buni ham bilaman.

Ammo qarorlarim oldi to'silgan tirbandlikka o'xshaydi.

Bir xato boshqa to'g'ri qarorlarimga ta'sir ko'rsatmoqda.

Tiqilib qolyapman. Avvalo, bu xatodan qutulishga intilyapman.

Kutganim sayin g'avg'o kattalashyapti. Kutganim sayin tushkunlik qamrab olyapti.

O'zimni behuda bir urinish bilan tinmay bo'g'yapman, bo'g'ilayapman!

Ammo hech bir narsa tugamadi — ishonaman.

Shuni bilamanki, shuncha yukni yelkamga YUKLAGAN ZOT o'z yordamini ham ayamaydi. Bugun yoki keyinroq, al-batta, yordam beradi.

Shu bois hech kimga va hech narsaga e'tibor bermay kutyapman.

”

Qarshingizdagini xafa qilmaslik uchun  
o‘zingizni parcha-parcha qilganingiz  
yetmadimi?

Bas qiling, singan qalblarni siz emas, ular  
tuzatsin!

Qadringizni biling!

”

Sen asling kabi o‘zgachasan,  
kichkintoyim.

Xo‘sh, nima uchun asling kabi bo‘lishdan  
voz kechmoqchisan?

Asling kabi bo‘lishdan voz kechsang,  
ortingda nimani qoldirmoqchisan?

Ha, mana shunday qalbingga  
yashirganlaring tufayli asling kabi  
emassan.

Ortga chekinma! Qo‘rqma!  
Unutma: sukut saqlab, qalbingga  
yashirganlaring tufayli shu holga  
tushgansan.

Qalbingga yashirganlaringni qo‘yib  
yubor: barcha bilsin.

Seni sevgan qolsin sevmagan ketsin.  
Faqat shu yo‘l bilan huzur-halovat  
topasan.



”

Do'st — shodon kunlaringizda shar, nolon  
kunlaringizda qutqaruv chambaragi  
kabidir.

Ya'ni ba'zida u bilan baxtiyor kunlar  
baham ko'rilsa, ba'zan esa g'amgin kunlar  
dardlashiladi.

---

”

Orzularingizning sohibi bo'ling...

Taslim bo'l mang!

Shuncha vaqt sarflagan mehnatingiz  
behuda ketmasin!

Sabr qiling!

Albatta, erishasiz!

---

## Siz mening kafilimsan, qanotimsan va ayolimsan...

### Sen jannat kafilimsan.

Bir hovuch nigohingdan haqqimni olib, Haqni xotirlarman.  
Sen kulsang, qalbimdagi gullar ham kular, shukr qilarman.  
Boshqalar bilmaydi, besh mahal emas, har lahza sog‘inarman.  
Sababi sensan: VAQT SOHIBINI sen bilan esga olarman.

### Sen jannat qanotimsan!

Seni quchganim sari ko‘nglim qanot qoqar: manzili jannat.  
Har joy sajdagoh: qalbim yonar qilmoq uchun duo-yu ibodat.  
Ko‘zingga tushgan ko‘zim poytaxti diyorning baxtli saltanat.  
Umrim sen tomon ketgan yo‘llardan to‘plar huzur-u halovat.

### Sen jannat ayolimsan.

Senga boqar ekanman, jannatni istaydi tanimdagи jon.  
Hayotning eng go‘zal qo‘shig‘ini shivirlar ovozing har on.  
Sen jannatning timsolisanki ichra ushbu foniy jahon.  
Sen menikisan, men esa o‘zingdagи jannating jonajon.

”

Unutma, kichkintoyim!  
Odobli, nomusli, iffatli bo‘lish faqatgina  
ayolning burchi emas.  
Agar shunday bo‘lsa edi, shunchalar  
chiroyli bo‘lgan Yusuf alayhissalomning  
qayg‘usi nima edi?  
Nima uchun yashirindilar?

## **Yolg‘iz emassiz!**

### **U Al-Basiyrdir...**

Har qadamni, har luqmani ko‘radi.

### **U Al-Xabiyrdir...**

Yashira olmaysiz, yashirina olmaysiz. Yashirsangiz-da, ni-ma o‘zgaradi? Yashirinsangiz-chi? Masalan, bo‘lganingizdek ko‘rinishni yoki ko‘ringaningizdek bo‘lishni xohlarsiz...

Befoyda!

Aslingizdan boshqacha emassiz.

Tarozida aslingiz kabi bo‘lasiz va aslingizga munosib baho olasiz.

### **U Al-Hasiybdir...**

Unda barcha narsaning bahosi bor.

Ertami-kech so‘raladigan javobsiz savollar nihoyasida...

Har bir banda u dunyoda o‘zining hisobini beradi.

Gunohlar berkina olmaydi...

Shu tufayli ham qalbingiz-u tilingiz bir bo‘lsin.

Dardingizni aytинг, duolarning bag‘riga otilling va huzuriga boring.

Ishq istaysizmi? Tabiiyki, haqqiningizdir.

Ammo **ISHQda to‘g‘ri bo‘lingki, sizga to‘g‘ri insonni ishonib topshirsin.**

Hech qachon unutmang: U istasa, ro‘yobga chiqadi. Chunki U har narsaning sohibidir.



U ishqingizning ham, oshig‘ingizning ham sohibidir...

Siz-chi, nomunosib ekanligi ma’lum bir insənning adolatiga ishqizingizni ishonib topshirarmidingiz?

Bunday qilmasdingiz, qila olmasdingiz.

Shuning uchun ham to‘g‘ri bo‘lishingiz lozim.

Shunchalar to‘g‘ri bo‘lishingiz kerakki, boshqa to‘g‘ri odamlar uyalsin, har kim siz kabi bo‘lganga havas qilsin.

Ammo U: “BO‘L”, — demagan bo‘lsa, nima qilsangiz ham, baribir, foydasi yo‘q! Majburlasangiz ham, sindirsangiz ham, parchalasangiz ham ro‘yobga chiqmaydi.

Ro‘yobga chiqmayotgan bo‘lsa, demakki, bir sababi bor, sabr qiling! Bilingki, xato qilishdan himoya qilinyapsiz.

Chunki eng to‘g‘risini U biladi.

Agar sizning ishqizingiz to‘g‘ri bo‘lsa, albatta, nasibangizga munosib sevgini qarshingizdan chiqaradi.

Nasibangizda bo‘lmasa, aql-xayolingizni egallasa ham, qalbingizga o‘rnashib qolsa ham, nasib etmaydi...

## **Kichkintoyim, hamma bitta havodan nafas oladi, lekin faqat ba'zilargina olgan nafasini baham ko'radi**

Bir nafasni baham ko'radiganlar saxiy bo'ladi. Chunki ular uchun baham ko'rmoq — yashamoqdir. Baham ko'rmay yashay olishmaydi. Baham ko'radi, bahan ko'rishadi. Faqtgina moviy osmoni baham ko'rmoq bilan cheklanib qolishmaydi. Chunki turfa xil bo'lishsa-da, bir Yerdadirlar. Shu tufayli Yerni ham baham ko'rishadi. Yerni baham ko'rmoq bilan ham qoniqishmaydi, ovozni ham baham ko'rishadi. Ovozni baham ko'rmoq ham yetmay qoladi, so'zlarni ham baham ko'rishadi. So'zlarni baham ko'rmoq yetarli bo'lmay qoladi, nigohlarini ham baham ko'rishadi. Nigohlar ham yetarli emas, hayotining lazzatini baham ko'rishadi. Hayot lazzatini baham ko'rmoq bilan ham qoniqishmaydi, yaxshilikni baham ko'rganlaridek, yomonlikni baham ko'rishadi. Baxtiyorlikni baham ko'rishganidek qayg'u-hasratlarini ham baham ko'rishadi. Umidsizlikda umidni ham baham ko'rishishadi. Dardlarini baham ko'rishadi darmon bo'lmoq uchun.

Mana shunaqa gaplar, kichkintoyim, ba'zilar tilda emas, chin dildan saxiydir. Saxiylik har kimning ham tug'ma tabiatida mavjud emas. Shuning uchun ham barcha bir osmonga nigoh tashlar va ba'zilar bir daryoda oqishadi. Shu tufayli ham ba'zilar har xil ikki varrak bo'lishsa ham, bir shamolni baham ko'rishadi To'g'-rilikni, halollikni, ishqni, sevgini baham ko'rishadi.

Bir nafasni baham ko‘radiganlar jasurdir. Chunki saxiylik janorat talab yetadi. O‘ylamangki, hamma ham shunday deya. Aslo bunday emas! Faqatgina ba’zilar shunday, ha, bu ba’zilar o‘zga chadir va bular o‘zлari kabi o‘zgachalarga munosibdir. Biri qufl bo‘lsa, biri kalitdir va to‘g‘ri kalit bilan qulfning o‘zaro uyg‘unligi xayrli eshikni ochadi.

Demoqchimanki, bir kuni shunday saxiy insonni uchratsang, uni mahkam quchoqlab ol. Hayotingni, havoni, nafasingni u bilan baham ko‘r. Bunday insonni topolmasang, taslim bo‘lma. Bundaylar mashaqqat bilan topiladi. Shunday bo‘lgani yana ham yaxshi. Toki qovushguninggacha izlashdan voz kechma. Chunki hayot nomunosib insonga saxiylik qilinadigan darajada qadrsiz emas.

”

Shubha-gumon zahardir va bebahone’ matlarni o‘ldiradi.

Masalan, ishqni, sevgini,  
ishonchni, hurmatni...

”

Qalbim qo‘lingdagi bir varrak kabitdir.  
Ipini qo‘yib yuborsang, uchib ketadi,  
g‘oyib bo‘ladi, ertami-kech yer bilan  
yakson bo‘ladi.

## **Sen bo'l, so'nggisi bo'l, so'ngsiz bo'l!**

Ilk muhabbatimsan! Oxiring yo'q, avvaling g'oyib bo'lgan.  
Bo'lman emas, boshqalar ham bo'lgan, ammo sen tufayli bar-chasi yo'q bo'ldi.

Sen xatolarim ko'rsatgan haqiqatsan, oldingilar sudrab kel-gan huzur yo'lisan.

Ko'nglimga yog'gan sevgi yomg'irisan, har tomchingdan ishqim shifo topyapti!

Bolaligimsan! Samimiyatim, ta'rifsiz baxtiyorligimsan.

Ko'piga hojat yo'q, borining ichida sen bo'lsang, kifoya.

Sen sevgilim deya yozilib, ayolim deya o'qilasan. "Bu dunyo bizga yetarli emas" deganim — jannatdagi yo'l-doshimsan.

”

Yaxshi niyatli bo'lishning badali azob,  
oqibati esa xayrlidir...

## **Eng rohatbaxsh uyqu — sen bilan meni bir tushda uchrashtirgan uyqu**

Tuproqning yomg‘ir bilan atrofga yoyilgan iforisan, choyimning eng totli qultumisan. Sen mening javobsiz savollarimning javobi, har duomda tilaganim, har nafasda sog‘inganimsan.

”

Insonning shaxsiyati ishqiga va  
muhabbatiga o‘xshaydi, ya’ni shaxsiyati  
naqadar yuksak bo‘lsa, muhabbati ham  
shunchalik buyuk bo‘ladi.

---

”

Cho‘g‘da qiyomiga yetkazib qaynat  
choyimni, xuddi hasratingda meni  
qaynatganingdek.

Piyolamda lablaring izini qoldirishni  
unutma, xuddi ruhimda qoldirganingdek.  
Choyga shakar solishga hojat yo‘q sening  
yoningda.

Chunki sen ila o‘tayotgan har on zotan  
shakar ta’mlidir.

Ko‘zlarining men uchun eng go‘zal  
manzara, boshqalariga hojat yo‘q,  
ko‘zlarining qarshimda bo‘lsa, kifoya.  
Sen bilan yoki xayoling bilan... Axir, bu  
dunyoda ishqni bir lahza emas, har lahza  
qultumlab ichyapman...

”

Nuqsonsiz bo‘lishning iloji yo‘q,  
ammo nuqsonga qaramaslik  
mumkin...

---

”

Shunday onlar bo‘ladi, dunyo ustingizga  
yiqilganday bo‘ladi. Dardlar  
bo‘g‘zingizga tiqilib qoladi,  
yutinolmaysiz.

G‘am-qayg‘ular tog‘-tog‘ bo‘lib,  
ruhingizni qamrab oladi, nafas olishingiz  
ham qiyinlashadi. Gapirmoq uchun na  
ongingizda va na qalbingizda mador  
qoladi. Eng yaxshi ko‘rgan  
narsalaringizning huzur-halovati ham  
uzoqlarga qochadi.

## **Taslim bo‘lmang!**

**Unutmang: yorug‘likni go‘zal qilgan qorong‘ilikdir.**

Dardlaringizning tuzog‘iga tushib: “Hammasi tugadi”, — deya aslo o‘ylamang. Tugaydigan, albatta, tugaydi. Ammo har bir nihoya boshqa boshlang‘ichning eshigini sassiz-sadosiz ocha-di. Lekin shovqin-suron tufayli sezilmay qoladi.

Inson o‘z zulmatiga shunchalar berilib ketganki, xazon bo‘lgan bog‘ida ochilgan narsaning “gul” ekanligini ham sezmay qoladi. Agar barcha dard-ü qayg‘ulari o‘sha xazon bo‘lgan bog‘idiagi gulning ochilishi uchun zarur bo‘lgan o‘g‘itlar ekanini ang-laganida edi, shunchalar qayg‘uga botarmidi?

Taslim bo‘larmidi? Yoki voz kecharmidi?

## **Tugunni ishq bilan tugsangiz, hech kim yecholmaydi**

Sevmoqchi bo‘lsangiz, o‘zingizni sevgandek sevishingiz shart.

Unga ham, bunga ham, shunga ham — hech kimga taqlid qilmasligingiz shart.

Qat’iyat bilan tik oyoqda tura olishingiz shart.

Balki, hamma kabi boqarsiz, ammo har kimdan o‘zgacha ko‘rishingiz lozim.

Sevmoqchi bo‘lsangiz, o‘zingizni sevgandek sevishingiz shart.

Ismini lablaringiz orasida takrorlashingiz yetarli emas, duolaringizda ham tilingizda bo‘lishi shart.

Xatolariga sabrli bo‘lishingiz, uni baxtli qiladigan muomala qilishingiz shart.

Aldash u yoqda tursin, aldanmasligingiz ham shart.



”

Kichkintoyim!

Tili bilan dili bir bo‘lma gandan QO‘RQ!  
Gunohini savob bilan berkitgandan QO‘RQ!  
Yolg‘onni to‘g‘ri ko‘rmoqdan QO‘RQ!

---

## Unutma, kichkintoyim

Kun o'tadi, o'tmish ortda qoladi.

Shu boisdan sevish uchun vaqt sarflar ekansan, chin dildan  
sev. Yolg'onlarga qoqilmay, ehtiroslarga berilmay sev.

Samimiylit bilan sev!

Tilda sevib bo'lmaydi, qalbing bilan sev. Kichkintoyim,  
qo'rqmasdan jasorat bilan sev. Buguningga munosibini emas,  
butun umringga munosibini sev. Berkitib emas, duolaringda til-  
dan qo'y may sev. Eng a'losi ekanligini bilib emas, eng xayrlisi  
ekanligiga ishonib sev.

Demoqchimanki, undan kutgan umidlaring bilan emas, bo'la  
olganicha, boricha sev, kichkintoyim.

Yaxshi-yomoni tomoni bilan, xatolari-yu to'g'rilar bilan sev.

Eng muhimi, o'zing kabi o'zingga munosibini sev.



*Emre Tunjer*

*'Ishq qalbning duosida*

“

Kichkintoyim, qanot — uchmoq uchun  
so‘nggi chora, avvalo, seni pastga  
tortganlardan qutul.

## Tushunsang-chi!

Ha, senga aytyapman! Haqiqatlarni angla endi!  
Istanbul sen bilan butun, sensiz nochor, foydasiz odam kabi-  
dir...

Ey ayol! “Oddiy bir shahar-ku!” — deya o‘tib ketma, bu sha-  
har senga muhtoj!

Ustida ko‘plab hayot bor, ammo u eng ko‘p sendan bahra  
oladi. Tushunsangiz-chi!.

O‘ylamaki, sohillarini bog‘lab, bo‘g‘zini siqayotgan ko‘priklari  
bilan baxtli deya.

Chiday olarmidi, shamollarda taralgan iforing bo‘lmasa?..

O‘ylamaki, yetti tepaligini<sup>4</sup> istilo qilgan insonlar bilan huzur-  
halovatda deya.

Chiday olarmidi, yuraging o‘sha yerda urib turmasa?..

Sezmayapsanmi?

Ko‘cha chiroqlarining miltillashi sen uchun...

Ovozlari go‘yoki orkestrdek chalyapti, sen eshitishing  
uchun...

Barchasi sen uchun... Anglasang-chi!

O‘ylamaki, bu g‘alati ko‘rinishi shunchaki bir holat deya...

Bu buyuk shahar har qadamida turfa faslga burkanadi.

Dardi tufayli emas, sen tark etganing tufayli qishga duchor  
bo‘lgan.

- Bahori xushnudligidan emas, seni his etgani tufaylidir.

Bu shahar senga nega bunchalar sabrli tuyilyapti?

<sup>4</sup> Istanbul shahri, ya’ni eski Konstantinopol shahri xuddi Rim shahri kabi yettita tepalik ustiga qurilgan.



Qiz qal'asiga<sup>5</sup> nashtar otgan ko'zlarining xotirasi bo'lma-  
ganida shu kunga qadar cho'kib ketmasmidi?

Belgradni yoqmasmidi, Galateyani yiqlasmidi?

O'zini har on sen uchun, senga hozirlayapti...

Senga go'zal ko'rinish uchun shamol bilan yo'llarini supur-  
yapti...

Senga go'zal ko'rinishi uchun to'lqinlarini oyog'ing ostiga  
keltiryapti...

Senga go'zal ko'rinishi uchun ruhini senga o'xshatyapti...

Sen uchun...

<sup>5</sup> Taxminan miloddan avvalgi 24-yilda Qora dengizning Marmar dengizi bilan tutash-gan  
yerida — Istanbul bo'g'ozida qurilgan qal'a.

## Och mushukcha kabi talpinayotgan qalbimni to‘ydira olasanmi?

Aslida, ko‘p narsa istamayman, qadaming teggan har bir joyida men ham bo‘lsam, kifoya...

Nigohlarine teggan joylarda ruhimni hayratda qoldirsam, har nafasda o‘pkangni to‘ldiruvchi havo kabi qalbingni quchsam.

Tushlaringda kutsam seni. Qaniydi, shunday bo‘lsa, sen men bo‘lsang, men esa sen bo‘lib tug‘ilsam.

Qaniydi, shunday bo‘lsa, sen qanot bo‘lib, meni jannatga uchirib olib ketsang...

”

Endi esa tunga ichiga tushib qolding...

Ayt-chi menga, sevgilim:

Bu yorug'likda uyqu keladimi?..

## Yigit esa bardosh bera olmadi...

Sukut saqlamoqchi edi, ammo ichidagi shovqin-suronga yengildi. Sukunat devori yorildi va ichkarida yig‘ilib qolgan barcha gaplari asta sizib chiqqa boshladи bu yoriqdan:

“Ko‘ngling joyiga tushdimi?

Kutganingga arzidimi?

Qani, jim turma, gapir!

Chala qolgan ishlaring tugadimi?

Kamchiliklariningdan qutuldingmi?

Mukammalini topdingmi?

Yosh uyqularingda keksalarning tushini ko‘rishingdan maqsad nima edi?

Xayollarining parchalangan matolardek sochilishga sabab bo‘lgan kim edi?

Xato qilishdan zerikib, charchab ketmadingmi?

Eng a’losini izlar ekansan, soxtalari bilan qarshilashmoq charchatmadimi? Nega bir luqma yolg‘izligingni to‘ydirmoq uchun ming yillik ishonchingni parchalading?”

Qiz hayratdan qotib qoldi. Bunday keskin gaplarni kutmagan edi.

Aslo kutmagandi.

Chunki bu yigit har qanday holatda kutishiga ishonchi komil edi. Undan, balki, zarurat tug‘ilgan foydalanish, yo‘lda ishonch bilan davom etishini uchun zaxira shina sifatida foydalanmoqchi edi.

Unga bergen azobini o‘zi ham anglab turgan edi. Ammo ket ham deya olmasdi, xuddi kel deya olmagani kabi.

Turgan joyida qolishini istardi. Faqat o'sha joyda. Balki, qo'rquvdan qo'rquvdan qurban qilinadigan biri bo'lishi uchun shunday qilayotgandir. Balki, o'zini qadrliroq his qilish uchun dir...

Yigit esa chorasisiz edi. Haqiqatning qirg'og'ida o'tirib, orzu-sini kutardi.

Qiz sukut saqlardi.

Yigitga "o'l" deya olmadi. Yashashiga izn berdi. Kim ham bunda o'limni yashamoq deya olardi?

“”

Qalbim esa ichiga sen kirgan bir tush  
uchun uyg'onar.

O'tmish yo'q, kelajak yo'q.  
Faqat bugun bor.

Xuddi lablarimga qo'ngan bir qor parchasi  
kabi ushbu tushni yashashga majburman...

”

Balki, sen ham meni kutayotgandirsan,  
men esa seni. Ammo kutmoq yetarli emas,  
yo‘lga tushaylik.

Umidsizlikka tushmasdan oldin.  
Qani, jim turma, salomingni hayqir  
zulmatga. Kim biladi, balki, ovozing men  
uchun yorug‘lik bo‘lar.

## **Farqing qolmasa, endi “Menimcha sen ham boshqalar kabisan” qoladi**

Kichkintoyim, doimo odatiy kun uchun odatiy rejalarim bo‘lgan. Masalan, kinoteatrga borish yoki bouling o‘ynash kabi... Sayr qiladigan kunimni doimo mana shunday fikrlar bilan boshlayman. Aslida, qilishni istaganlarim har doim turlicha bo‘lgan. Qilganlarim ham shunday. Ammo atrofimdagilarga taklifim doimo bir xil bo‘lgan. Vaziyat shu darajaga yetdiki, kinoteatrning eshididan ortga qaytib o‘zimni butunlay boshqa ishlar ichidan topdim...

Asliyatidek bo‘lganlar vaqt qanday o‘tib ketganini sezmay qolishadi. Ammo asliyatim bilan qarshilashar ekanman, uni is-yonga aylantirish juda ham huzurbaxsh bo‘ldi... Kichkintoyim, senga tavsiyam shuki, taklifni sen ber va takliflaringda asliyattingdek bo‘l.

Chunki sening yoningda bo‘lishini istagan asliyatining o‘zgartirmasang ham yoningda bo‘ladi. Chunki uning maqsadi — sen bilan birga bo‘lish. Boshqacha insonlar shunday bo‘la oладими? O‘zgacha insonlar jozibalidir va har kim u bilan birga bo‘lishni istaydi, sen esa e’tiborsiz odamga aylanib qolasan.

”

Jamiki yashirin o‘zgachaligingni  
yoningga o‘z asliyati ila kelgan insonlar  
bilan baham ko‘r.

Chunki bir kun kelib o‘zgachaliging  
tugaydi-yu, senga e’tibor kamayadi.  
Choy tugaydi-yu, ammo piyola qoladi.  
Kun g‘oyib bo‘ladi-yu, ammo tun qoladi.  
Hamma ketadi-yu, ammo sevgan qoladi.

---

”

Sabr qil, kichkintoyim!  
Bu lahzalar — o‘tmish uchun siqilib,  
kelajakni boy berish kuni emas.  
Bu lahzalar — bugunni quchoqlab,  
kelajakni qutqarish kuni.  
Baxtiyorlik yaqin! Sabr qil!

”

Agar qulashing hali-hamon  
nihoyasiga yetmagan bo‘lsa,  
parvozdan huzurlan...

## Ayol esa suvga gapirdi...

Suvning eshita oladigan holi yo‘q ediki, tinglasa. Ammo yomg‘irga aylanib qochishga ham tayyor emas edi. Majburligidan tingladi, tinglagan sayin dimiqdidi. Shu darajadagi dimiqdiki, ayol suvda o‘z aksini ham topolmay qoldi. Chunki suv ham gapira boshlagan edi: ayolning aytganlarida o‘z rangni topgandi. Ammo ayol bu rangni yoqtirmadi. Aslida, bu rang ayolning asliyatini edi. So‘ngra ayol gapirishdan to‘xtadi.

Ayol gapirishdan to‘xtar ekan, suv yomg‘irga aylandi va takroran o‘z rangida yog‘a boshladи, asliyatini topdi. Yog‘averdi, yog‘averdi. Erkinlik huzur-halovatining bag‘riga otildi.

Ayol esa sabrsiz edi, suvsiz jaziramaga chiday olmadi va erib ketdi — suvga aylandi. Vaqt kelib, bu suvni bir erkak ko‘rib qoldi... U ham suvga gapira boshladи...

Suvning eshita oladigan holi yo‘q ediki, tinglasa...

99

Unutma: asil hakam — insonning  
vijdonidir.



## **“Iltifot va xushomadlaringga bilan meni ishontir”, — dedi ayol**

Erkak esa yolg‘onlarini emas, o‘zidagi haqiqatning sevilishi ni istayotgan edi. Ayol baxtiyorlikni izlardi, ammo baxtsizlik ortidan ketayotgan edi va shuning uchun boshqalar tomonidan al-danganini angolmas edi.

Erkak esa bir qultum ishq uchun ayol izlayotgan edi... Bu ayol va erkak hech qachon birga bo‘la olishmadi. Chunki u yigit to‘g‘ri yo‘lda yurayotgan, ayol esa yurgan yo‘lini to‘g‘rilashga urinardi. Borini boricha qabul qilish o‘rniga topganini o‘ziga moslashtirishga urinardi.

Erkak rozi bo‘lmadi, ayol ko‘ndirolmadi.

Erkak oshiq bo‘ldi — huzurlandi, ayol esa orzularining abadiy qo‘riqchisiga aylandi.

”

Meni shamolga topshir...

Xuddi varrak kabi...

Ammo aslo qo‘limni qo‘yib yuborma.

Qo‘yib yuborsang, ucholmayman-ku, axir.



## Boshla!

Hozir voz kechsang, barcha harakating behuda ketadi. Hislaringdan, nafratingdan, dard-u qayg‘ularingdan qutul, kichkintoyim.

Unutma, sen bo‘lmasang, hech bir narsa bo‘lmaydi. Sen yo‘-qolsang, bu dunyo ham yo‘qoladi.

Chunki hamma barcha sening filmingda o‘ynayapti, sen uchun o‘ynayapti. Qadringni hech kim sezmasa-da, o‘zing e‘tibor ber... Ammo boshqalar ham xuddi shunday o‘zining filmida ekanligini aqlingdan chiqarma. Sen o‘z ko‘zingcha filmning bosh qahramoni roldasan, boshqa tomoshabinlar ko‘zida esa ahamiyatsiz bir roldasan. Shu bois, kichkintoyim, avvalo, o‘zigni, keyin esa sevganlaringni qutqarishing lozim... Agar vaqtin or-tib qolsa, boshqalarni ham qutqar. Ammo, dastlab, o‘z hayotingni baxtga to‘ldirishing shart, o‘z filmingni zavqli kechinmalar bilan yo‘naltirishing lozim...

Boshla! Kutma! Ortga surma!

Taslim bo‘lma!

Voz kechma!

## **Yoningda bo‘lmoq — shunchaki bir havas emas, balki sen bilan bir umr yashash uchun...**

Sen hayotimga bir tomchi bilan yog‘ding.  
U cho‘g‘ga aylandi — yong‘in tomon yo‘l topdi...  
Bir qarash-u nigohing ko‘zlarimga arziydi...  
Bu nigohda cho‘lim jonlandi, nafasim kul bo‘ldi.  
Iforingdan bir bora nafas oldim.  
Bu nafas o‘pkamning asiriga aylandi.  
Teginishlarim ila qalbim qalbingga qorishdi.  
Ruhim ruhingning bag‘riga otildi...  
Ushla, bu vujud seniki...  
Yoki uning jonini ol.  
Yoki kelajakda o‘zing bor uyquda uyg‘ot.

## Sabr qil, kichkintoyim!

Quyoshga oshiq kungaboqardek... O'ylamaki, u bir onda ochiladi, sochiladi, ko'k yuziga qovushadi deya.

Uning yo'li azob-u mashaqqatga to'la...

Dastlab azoblanadi, tuproqdan zulm ko'radi.

Tuproq uning sinovidir: azoblaydi, qiynaydi...

Keyin esa hidoyat eshigi ochiladi.

Keyin hadya va ortidan iltifot keladi.

Ya'ni urug' paytida jabr-zulm ko'rar ekan,

Ochilganidan keyin esa iltifotni ko'radi.

Demoqchimanki, kichkintoyim,

Taslim bo'lma! Ishqingga sodiq qol...

Unutma:

Ishq ila qucharsan, bir eshik ochilur muhaqqaq,

O'tmisht uqubat ersa, kelajak jannatligi haq,

Zeroki Zul-Jalali val-Ikromdir Janobi Haq

## **Demoqchimanki...**

Sen tasavvur ham qila olmaysan. Sen tufayli qanday g‘avg‘olar bo‘layotganini, ne-ne dunyolar yiqilayotganini. Baxtiyorling ichiga yashirgan baxting tabassuming ila atrofga yoyilar. Qayg‘ularingda go‘zalliklar so‘nadi. Sen tasavvur ham qila olmaysan.

Sen ila uxlар kelajak, dahshatli tushlar sensizlikdir. Ammo kelajak bir bo‘sangdan tug‘ilgan kamalakdir. Shamol ham iforingni taratadi, u ham bolalarcha sevinchlarga to‘lib toshadi.

**Sen tasavvur ham qila olmaysan!**

## Xayrli tong!

Endi esa uyg'ongan. Moviy osmon ko'zlarining ochadi va quyosh kabi ko'k yuziga chiqasan. Ko'zlarinda zaif uyqu qolar, ammo qo'rhma. Uyqu ham men kabi senga asir, shu bois birdaniga voz kecha olmaydi. Dunyodan bir bora shunday nafas olasan va har narsa kamayib qoladi, go'yoki sen beradigan nafas ila qaytadan bekam-u ko'st bo'lish uchun. Menda ham xuddi shunday yetishmovchilik bor edi... Ko'nglimning zulmatiga nur bag'ishlaganingdan keyin faqat sen bilan bekam-u ko'st bo'lgan, sen bilan mukammallikka erishgan... Shunchalar uzoqlarda edingki, tushlarim ham senga erishmoq umidiga aylandi. Uyquga ketar ekansan, sensizlikning sukunati moviy osmonni zulmatga aylantirar. Kamalak — uyg'onganingda o'sha moviy osmonga tegib turgan nigohlarimizdir... Boshqalarga bu holat ranglar jilosi, uyg'unligi kabi ko'rinadi. Holbuki, aslida sendan menga, mendan senga bir hayot taraladi.

## Ishqdan qochishning imkoni yo‘q...

... Ishq kutilmaganda eshigingizni chertadi, o‘y-u aqlingizni oladi. “To‘xta”, — deysiz hayotga, ammo to‘xtamaydi. Har oningiz azob bo‘ladi, faqat uning nigohlarigina haqiqiy ishqning egasini xotirlatgan jannat bog‘larini sizga taqqdim etadi. Duolaringizda Allohdan uni tilaysiz, ismi tilingizda ekan, qalbingiz jannat tomon yo‘l oladi. Sababini so‘rayapsizmi? Chunki haqiqiy ishqni his qilib, oshiq tomon bormaslik mumkinmi?

Bu lazzatning ta’mi qalbingizning tomog‘ida qolib ketmasmi?..

Xo‘sh, inson: “Parchasi bunchalar yoqimli bo‘lganning busbutuni qanday bo‘lar ekan?” — deya so‘ramasmi?..

Albatta, so‘raydi.

Ha, aynan o‘sha onda ishqdan qochishga joy qolmaydi. Yuzi tegmasa ham ko‘ngli sajdaga egiladi. Ko‘ngli sajdaga egilganning vujudi ham ertami-kechmi ishq yo‘liga tushadi. Shu darraga yetadiki, besh vaqt kamlik qiladi, har oni ishq bo‘ladi... Va go‘zal chehrasini zulmat qoplayди. O‘ldirmagan bu zulmat go‘yoki sizni yashirayotganday tuyiladi. Hattoki soyangiz ham sizni tark etadi. Go‘zalligingiz qop-qora tusga kiradi, ammo tuga maydi. Yashirinar, xolos. Sabr qilarsiz. Kutarsiz va vaqt kelib zulmat ham yo‘qoladi. Go‘zalligingiz bilan tong otadi. Sizga tuga maydiganday tuyilgan azoblar jannatga aylanar, kelajakning bag‘riga otilar.

”

Bu go'zal uyquni xohlasa, tunni  
ustiga ko'rpa qilaylik...

Yulduzlarni so'ndirib, oyni bulutlar  
ila berkitaylik...

Shamolning ovozi chiqmasin,  
shitirlamasin barglar.

Bu go'zal uyquni xohlasa, ustiga  
halovatni ko'rpa qilaylik...

G'am-qayg'ularning ovozini  
o'chiraylik, dardlarni unutaylik...

Ko'rinmas bo'lsin o'tmishlar,  
betashvish bo'lsin kelajak.

Mayli-da, bugunni yostiq kabi  
bag'riga bossin bu go'zal...

”

Uxlar ekansan, senga termilish bor,  
Iforingdan sarmast bo'lmoq bor.  
Seni uyg'otish uchun istak bor, ammo  
Uyg'otishga ko'z qiymaslik ham bor



*Emre Tunjer*

*Ishq qalbning duostidni*

”

Ishq bir qadamgina narida turibdi.

Qarasangiz, ko‘rasiz,  
Bossangiz, ezasiz.

---

## **Yashash ijtimoiy mas'uliyatdir**

Bir avtobusni tasavvur qiling...

Borar joyiga umidni oshiradi, qaragan uchun insonni, ko'r-gan uchun esa qahramonni olib ketyapti.

Yelkasiga kelajak qayg'usi yuklangan yoshlar boshqalarning kelajagiga madadkor bo'lish uchun olg'a intilib, mashaqqatli yo'llarni bosib o'tishyapti. Ular koinotda mittigina bo'lib qolsa ham, chang-to'zonga aylanishyapti. Nima bo'lsa-da, ularning qalbi zamon zayliga qarshi — yaxshilik tomon qonayapti. Aldanyapti. O'z nafsi, zavqlaridan qochayotgandek yordam so'rayotganlarga bag'rini ochyapti. Inson o'zi o'zidan: "Yoshlar huzur-halovatda yashash o'rniga bu yerni nima qilib yurishibdi?" — deya so'raydi. Eshitmaydiganlardan bu savolga javob kelmaydi. Chunki eshitmaydigan eshita olmaydi, eshitishdan ham qo'rqadi. Bu jumlalar nimani anglatishini o'z kechinmalari tufayli bilishadi. Yo'l uzun, ammo dunyo avtobusdan-da kichik. Shu bilan birga, avtobus manzilga darrov olib bormaydi. Oyog'i bilan gaz tepkisini tinimsiz bosayotgan haydovchiga va uning g'azabiga parvo qilmay kuttirishni yoqtiradi. Manzilda avtobusdag'i yo'-lovchilarining birortasining ham hech kimi yo'q. Ammo, aslida esa, borar manzillarida hammaning har narsasi bor. Chunki odamlarni beminnat SEVGAN ZOT ularning sevgisining mu-kofotini, shak-shubhasiz, beradi. Avtobus ham shuni juda yaxshi biladiki — garchi bilishini yashirsa-da — insondan tuproqning hidi keladi va bu hid insonga doimo o'zini eslatib turadi. Shu tufayli ham inson insondan ajralolmaydi, axir, inson o'z tuproq'idan ajralishi mumkinmi?

Vaqt o'tishi bilan avtobus jon jomiga yanada yaqinlasha boshlaydi. Balki, avtobus yurmayotgan bo'lishi mumkin. Ichidagilar tinimsiz olg'a siljishyapti. Ammo barchasi bir xil tuyg'ularni har xil anglatishyapti. Ushbu tuyg'ularni tinglayotgan vujudlar esa yerni yanada yaxshiroq bosishadi, bosgan yerlarini nurafshon qilishyapti. Ushbu nurafshonlikka hatto quyosh ham hasad qilyapti. Ularning yonida tun ham qo'rqtyapti, qoraya olmayapti. Eng ajoyibi ham bir vujud bilan keltirilgan minglab yurak, minglab duo, minglab umid... Ya'ni bu avtobus insonlar bilan limmo-lim to'la. Ichidagilar boradigan manzilga ochilishi uchun eshiklarini hozirlayapti. Balki, bu yordam juda ham kichik bo'lishi mumkin, lekin hamma bir kichik qor uyuming qanchalar katta qor ko'chkisiga aylanishi biladi va shuning uchun ham imkonlari yetganicha eng yaxshisini qilib, o'z hissani qoshini xohlashadi. Yoshlar bu ezzulikka o'z hissasini qoshishi uchun avtobusga tigilib olishgan. Minglab boylar yordam sifatida berayotgan hisobsiz pullarni televizorda namoyish etishadi. Bundan ko'zlagan maqsadlari, balki, pullarini yanada ko'paytirishdir. Balki, paytdan foydalanib o'zlarining mahsulot brendlarini reklama qilishdir. Balki, ba'zilar ushbu fursatning obro'si va shon-shuhratdan o'z yo'lida foydalanishni ko'zlar... Ha, albatta, yaxshi niyatli, niyati xolis bo'lganlar ham bor oramizda. Nima bo'lsa ham, dalaga har xil urug'lar ekilgan. Ekin tuproqdan boshini chiqarmaganicha, nima nima ekanligini bilib bo'lmaydi. Qanday mavjudot paydo bo'lgani unib chiqsagina, bilinadi. Tarrozi taroziboning qo'lida, vaqt kelib barcha ushbu taroziga chiqadi. Tarvuz polizida o'sgan qovoqlar aynan o'sha kunda aniqlanadi va ularni birma-bir qo'porib olishadi.

Xullas kalom, kichkina bo'lsa ham tamasiz qilingan yaxshilik kattalashadi, go'zalligi bilan atrofidagi tikanlarni chirishga

mahkum qiladi. Aytganday avtobus deganimga e'tibor bermang: bu bilan farishtalarning zotdor otini nazarda tutdim. U go'yoki qing'ir-qiyshiq, notejis yo'llarda ham muvozanatini yo'qotmay, vulqon sochgan tog'lar ustidan sakrab o'tyapti... Kim biladi, sevinching sababi, balki, ichidagilarni jannat tomon olib borayotganidadir... Balki, bu dunyoda qolgan otalarimizga, onalarimizga, akalarimizga, opalarimizga, qarindoshlarimizga, bolalarimizga tezroq madad bo'lishni istagan kamtarligimizdir ... Avtobus-dagilarning bir qadami ming qadamga teng. Bittasining yoqqan olovi ming kishining qalbida yong'inga aylanadi va bu yong'inning issig'i muz qoplagan tuyg'ularni isitadi.

**"Kurashmoq imkoni bor yerda qarab turmoq  
isrofgarchilikdir".**

''

Jannatning talabgori ko'p.

Azob bo'lsam, chekasanmi?

## **Senga munosib yashamoq...**

Masalan, turmush qursak? Birgalikda umrguzaronlik qilish  
ga qasam ichsak.

Shaytonga azobni, o‘zimizga jannatni armug‘on etib, birlig  
kunlik emas, bir umrlik hamrohlikka imzo qo‘ysak.

Sen mendagi, men sendagi haqqimizni ado etsak.

Bir bo‘lsak ham, birga bo‘lish uchun quchoqlashsak. Andi  
o‘shanda senga teginishimning yanada ahamiyatliroq ma’noma  
mazmun kasb etadi.

Nafsimni faqatgina sening nafasing bilan oziqlantirsam...  
Qalbingdagi otash, ruhingdagi huzur bo‘lmoq...

Teringdagi bir safar bo‘lsam, senga qadam-baqadam erish-  
sam...

Senga munosib yashamoq...

Menga eng yaqin sensan, boshqalar uzoq.

”

**Ishq uchun o‘zingdan voz kechma.**

**Chunki ishq usiz bo‘lar, lekin sensiz  
bo‘la olmaydi.**

“

Kichkintoyim, shunday lahzalar bo‘ladiki,  
dardlaring ustida raqs tushasan. Nafasing  
yetganicha duolar bag‘riga otilasan.  
Axir, quchoqlamoq ila boshlanar gardanni  
tirnash.

Qolganlari, zotan, ta’riflab bo‘lmas bir  
parvoz.

Shu darajaga yetadiki, raqs davomida bir  
qancha qoyalar ko‘rinadi-yu, ularga  
urilmaysan. Chunki gardaningdagilar seni  
yerga itarsa, qalbingdagilar tasalli beradilar.  
Ammo ba’zan taslim bo‘larsan, qalbing ham  
sukut saqlaydi. Sukunatingni imkon sifatida  
ko‘rganlar dardlari bilan gardaningga minib  
oladi. Seni ezadi. Ammo gardan — seniki.

Inson o‘z gardanini ko‘tara olmaydimi?  
Albatta, ko‘tara oladi. Ammo gardan  
ko‘rinmaydigan joyda va ko‘zingiz o‘ngida  
bo‘limganligidan ranjiydi. Ko‘zdan uzoqda  
bo‘lgani uchun seni ko‘nglidan ham  
uzoqlashtiradi, dardlar bilan birlashadi.

Imkon bo‘lishi bilan sukut saqlaganing sayin  
ezaveradi, ezaveradi.

Keyin esa o‘sha raqs deyilgan parvozni  
eslaysan va sukut bilan sog‘inganiningni,  
duolarga chanqaganiningni xotirlaysan. Aynan  
shu lahzalarda dilingdagi duolar sizib chiqar,  
ruhing qanotlaridagi muzlar eriy boshlar.

Gardaningdan joy topa olmagan dardlar ham  
kichrayadi.

G‘amga qolmagan joy, azobga qolarmidi?

Oxir-oqibatda, qochish tugaydi, seniki  
bo‘lgan gardan sensiz qoladi.

Ammo, kichkintoyim, eng muhimi, hattoki  
ko‘zlaringga ko‘rinmaydigan gardaning ham  
har narsani ko‘rib turganiningni, o‘zini har  
doim ko‘zing o‘ngida tutganiningni bilib turadi.

---

## Kichkintoyim, sinovlar faqatgina sening emas, har kimning tashvishidir

Boshlang‘ich mактабning ташвishi бoshqa, litseyниki boshqa... Universitetga kirish ташвishi бoshqa, universitetda o‘qish ташвishi... Ammo barcha qiyinchiliklariga qaramay ta’lim olish davri insонning o‘zining kimligini anglash safarida katta rol o‘y naydi. Hech bo‘lmasa, menda shunday bo‘lgan. O‘rtoqlig-у do‘stliklar... O‘qishdan keyingi hayotimda bunchalik kuchli mu nosabatlар qura olmadim. Boshlang‘ich maktabdagi do‘stlaringni esla... Litseydagи muhitni...

Imtihon davri esa juda boshqacha bo‘ladi, tayyorlanish va hattoki tayyorlanishga intilish ham boshqacha bo‘ladi. Yoshlik quvvati hayot darsini qaynatar ekan, ta’lim darslari uchun motivatsiya olish, haqiqatan ham, qiyin masala. Ammo shuni angladimki, ayni shunday paytlarda ko‘zimizga noxush ko‘ringan kechinmalar ajoyib nihoyalar yaratar ekan. Majburan uylanishga qanchalik qarshi bo‘lsam ham, hayotimga o‘z hissasini qo‘sghan oilaviy munosabatlarning foydasini ta’kidlamay o‘tolmayman. Ayniqsa, farzandlarini to‘g‘ri yo‘lga solish uchun ota-onalarning aslo nolimay qilgan mehnatlarini...

Kichkintoyim, otamdan motivatsiya kaltagini qanday yeganimni yenga aytib bergenmidim?

Choy tayyor bo‘lsa, anglatay...

Barchada dars tayyorlash joniga tegib ketgan paytlar bo‘lgan. Aynan o‘shanday paytlar dars tayyorlashga astoydil berilgan paytlarim edi. Kechasi-yu kunduzi tinmay dars qilardim. O‘zimni juda ham ko‘p zo‘riqtirgan bo‘lsam kerakki, dars qilishga bo‘lgan ishtiyoqim birdaniga so‘ndi. Qachon dars qilish uchun

o'tirsam, uyqum kelardi. Diqqatimni jamlay olmasdim. Borib sohillarni aylandim. Motivatsiya beruvchi videolar ko'rdim. Baturib, negadir o'zimda dars qilish uchun ishtiyoyq paydo qilolmadim. Ammo bir yo'lini topib darslarimni tayyorlashim lozim edi. O'zimga motivatsiya berishga harakat qillardim, ammo ip ignadan bir marta chiqqan edi...

Maktabdan qaytayotganimda devordagi bir afisha diqqatimni tortdi. Bir onda afisha bilan gapplash boshladim.

Afisha: "Muvaffaqiyat qozonmoqchimisiz?"

Men: "Ha".

"Afisha": Motivatsiyaga ehtiyojingiz bormi?

Men: "Ha".

Afisha: "Qanday amalga oshirishni bilmayapsizmi?"

Men: "Bilmayapman".

Afisha: "Unda "Yoga" mashg'ulotiga qatnashing".

Men: "Mayli".

Bir lahzada umid uchquni paydo bo'ldi. Shu zahotiyoyq afishadagi telefon raqamiga qo'ng'iroq qildim. Ma'lumot oldim. "Yoga" murabbiysi uddaburon ekanligi aniq edi. Hatto telefonda gaplasha turib ham menga motivatsiya bergen edi. Agar bu mashg'ulotga qatnashsam, kim biladi, qanchalar hayajonlangan bo'lardim. Lekin mashg'ulotlarning narxini eshitganidan so'ng ishtiyoqimning motivatsiyaning katta qismi uchib ketgan bo'lsa-da, yig'ib qo'ygan ozgina pulim va suyanadigan tog'im — otam bor edi. Bu muammoni hal eta olardim. Otam televizor ko'rib, kulib o'tirgan paytida "otalar farzandlar uchundir" naqliga tayanib, qarshisiga chiqdim. Motivatsiyaga ehtiyojim borligini, shuni o'rgatadigan mashg'ulotga borishim lozimligini va narxini qisqacha qilib aytdim. Otam ham qisqacha qilib: "O'sha pulni

menga ber, o‘zim senga motivatsiya beraman”, — dedi. Otamdan qocha oladigan masofada turib, biroz o‘jarlik qildim. Otam ham ikki oyog‘ini bir etikka tiqib oldi. So‘ngra vaziyatni onamga tu-shuntirdim, yig‘ladim. Onam esa vaziyatga biroz “ijobiy” yon-dashib: “Men seni domлага o‘qitib, “kuf-suf” qildiray, hamma ni o‘z o‘rniga tushadi”, — dedi. Yana o‘jarlik qildim. “Sen anchamuncha o‘zboshimcha bo‘lib qolibsan”, — dedi. Men ham gapni cho‘zib o‘tirmay, akamning yoniga bordim. Akam esa: “Men ham o‘zi sendan qarz so‘ramoqchi bo‘lib turgan edim”, — dedi. Anglaganingdek, muammoga yechim topa olmayotgan edim. O‘yladim, chora izladim. Ko‘mirxonada uydagilar qishloqdan olib kelgan qorayib ketgan qozon, lagan kabi oshxona buyumlari narsalar bor edi, ularni to‘plab eskifurushga berdim. Eskifurush ham e’tiroz bildirmay hammasini oldi. Pulni naqd sanab beribdiyu, tezda ketib qoldi. Men ham darrov mashg‘ulotga yozildim. Faqat mashg‘ulotlar kutganimdek bo‘lmadi. Motivatsiya ololmadim. Hattoki mashg‘ulotlarda g‘avg‘o chiqardim. Buni ham vaqt kelsa, aytib beraman. Shuncha mashg‘ulot, qo‘llab-quvvatlash-larga qaramay, kitoblarga koala<sup>6</sup> kabi qarayotgan edim. Ordan bir necha kun o‘tdi. Xonamda qo‘sinq tinglab o‘tirgan edim, otam chaqirib qoldi. Qo‘l-oyoqlari titrayotgan edi. “Bobomning bobosidan qolgan osori-atiqa mis va kumush idishlarni ko‘mirxonamizdan o‘g‘irlab ketishibdi. Ko‘rmadingmi?” — deya so‘radilar. Dastlab nima bo‘layotganini tushunmadim. Keyin esa mening ham qo‘l-oyog‘im titray boshladi. Miyam ishlamay qolgandi. Vaqtadan yutish uchun: “Kim o‘g‘irlagan ekan, a?” — dedim. Otam: “Telba-teskari gapirma!.. Kim o‘g‘irlaganini bilsam, sen-

<sup>6</sup> **Koala** — xaltali ayiq. Asosan Sharqiy Avstraliya o‘rmonlarida yashaydi. Bolasini xaltasida olib yuradi, kattaroq bo‘lganida opichib oladi. Juda yuvosh hayvon, 12-20 yil ya-shaydi. Mo‘ynasi uchun ko‘plab ovlanganidan soni kamayib ketgan. Ovlash taqiqilangan.

dan so‘rarmidim?” — dedilar. Birozgina o‘ylab, yaxshiroq yolg‘on topishga harakat qildim. Go‘yoki Sherlok Xolms kabi bir nechta ssenariylarni xayol qildim. Ammo barcha ssenariylarda ham yutqazgan o‘zim bo‘lardim. Shuning uchun rostgo‘ylik bilan g‘alaba qilishga qaror qildim va haqiqatni aytdim. O‘sha kuni otam meni yaxshilab kaltakladi. So‘ngra: “Bu haqda ertaga men ga qayta eslat, yana gaplashib olamiz (ya’ni yana kaltaklayman)”, — dedi. Eslatdim. “Tentakmisan, xotirlatib, nega yana asabimni buzyapsan?” — dedi va yana kaltakladi va: “Ertaga yana eslat: bu haqda yana gaplashamiz”, — dedilar. Eslatmadim. O‘sha kuni esa otam: “Otangnga firib bermoqchimisan?” — deb yana kaltakladi. Qizig‘i shundaki, uch kun ichida aql bovar qilmas darajada motivatsiya olgan edim. Bekam-u ko‘st. Bosh ko‘tarmay dars qila boshladim. Miyam ham ishlay boshlagandi. Yecholmayotgan masalalarimni ham yechishni boshladim. Xullas, muvaffaqiyatimda otamning hissasi katta.

- ✓ *Kaltaklash uslubi har otaning o‘z tarziga ko‘ra o‘zgarib boradi. Avvalo, ikki jumla bilan kaltaklashdan battar qiladigan otalarga salom bo‘lsin.*

”

OTA — ishonchli bandargoh kabi  
boshpanadir... Hayotning bo‘ronlaridan,  
qiyinchiliklaridan uzoqlashishni  
istaganingizda saqlanishingiz mumkin  
muqaddas ma‘baddir.

”

Oshiq bo‘lish oson, lekin ISHQ bo‘lish qiyin, kichkintoyim. Chunki ISHQ ishq tomon ishq bilan yugurganlarnikidir. Shu tufayli ham minglab insonlar ishq haqida gapirodi-yu, faqat bittasi Majnun kabi doston yozadi.

Aynan shuning uchun ham millionlab insonlar ichida Farhod yagonadir.

Kimlardir qovushar, kimlardir esa bu yo‘lda qovrilar,..

## Layli va Majnun

Majnun bo‘lish mashaqqatli, Laylini topmoq esa omaddir. Bu safar shunday bir safarki, “men” o‘lar, “biz” tug‘ilar. Xuddi Qays o‘lib, Majnun tug‘ilganidek.

Shu afsonani tasavvur qiling... Layli va Qays ancha yosh paytalaridayoq tanishishadi... Bu davrda barcha narsa shu qadar ma’sum bo‘ladiki... Balki, ishqlari shunday sof, pokiza va tamsiz poydevor ustiga qurilgani uchun ham shu darajada pokiza bo‘lgandir. Balki, pok-pokiza qalblariga ko‘milgan ishqning qudratidir ...

Ammo hayot istaganlaridek davom etmaydi. Vaqt kelar, qarshilaridan to‘silqlar chiqa boshlaydi. Millionlab qalb orasida bir-biriga muhrlangan ikki yosh arzimas bir ayirmachilikning qurboni bo‘lishadi. Ba’zan bunga irqchilik bahona bo‘lsa, ba’zan boylik-qashshoqlik... Ba’zan esa din tufayli ajralishadi, ba’zan mazhablar sababli ayrilishadi.

Vaholonki, insonlar bir havodan nafas oladi. Vaholonki, insonlar tug‘ilish mo‘jizasi bilan dunyoga kelgan, qonlarini irqlariga ko‘ra emas, guruhlariga baham ko‘ra oladigan va hatto ya-shash uchun boshqa insonlarning tana a‘zolarini o‘z vujudlarida tashib yura oladigan maxluqotdir... Bir-biri bilan shu darajada aralashib ketadigan, bir-biridan shu tarzda jon topa olgan insonlar, afsuski, o‘zini o‘zidan bo‘lgandan ayiradi.

Laylining onasida ham bahonalar ko‘pdir va Qays bilan ya-  
qin munosabatlarda ekanliklarini bilgach, qizini o‘qishiga yubor-  
may qo‘yadi. Ko‘rishishlariga to‘sinqinlik qiladi. Sevgilisini ko‘-  
rolmagan va Laylining hasratida darbadar bo‘lgan Qaysga Maj-  
nun laqabini qo‘yishadi Ya’ni Majnunlik unga tug‘ma emas, bu  
otashga keyinchalik tushadi. Qaysning otasi Layliga sovchi bo‘-  
lib boradi, ammo berishmaydi. Majnun Laylining dardida yonib,  
devona bo‘ladi. Yo‘qotib qo‘ygan asliyatini topish uchun sah-  
roga yo‘l oladi. Qizigan qumlar orasidan yuradi. Vahshiy hay-  
vonlar-u qushlar bilan do‘sit bo‘ladi. Oradan kunlar o‘tgan sayin  
ham o‘zini, ham ishqini yanada yaxshiroq anglay boshlaydi...  
Kun kelib, sahroda qarshisidan chiqqan Laylini taniy olmay qol-  
ganida o‘zidagi haqiqat pardasi to‘liq ko‘tariladi. Vaziyat shu da-  
rajaga yetadiki, ishq ila sarmast bo‘lgan Majnun xayolidagi Lay-  
lining haqiqiy Laylidan go‘zalroq ekanini anglaydi. Chunki xa-  
yolidagi Layli juda o‘zgacha edi va haqiqisidan farq qilardi.  
Majnun uni xayolida o‘zi istaganidek chizgandi va u uchun xa-  
yoliy Layli mukammal hisoblanar edi. Bu haqiqatni anglaganida  
esa ishqdan boshqa yana bir ISHQning borligiga ishona boshlay-  
di va moddiy olam bilan aloqasini kesadi va haqiqiy ISHQning  
bag‘riga otiladi. Maqsadi mukammal ISHQqa erishish edi. Hat-  
toki Majnun Laylini cho‘lda uchratganida Layli o‘zining ichida-  
ligini va u bilan ma’naviy dunyoda qovushganini anglatadi va  
boshqa Laylini topishga kuchi qolmaganini aytadi, ammo yangli-  
shadi. Chunki ishq bo‘laklardan tarkib topgan bir butunlikdir.  
Barcha bo‘laklar bir nuqtaga kelganida, butunlikka aylanadi.  
Qalb ishq bilan yashiringan vujud uchun urar ekan, o‘pka ham  
kislorodni ishq bilan yondirar ekan, tabiat ham tartibini ishq bilan  
asrar ekan, yaratilishidayoq oshiqligini bo‘lgan inson dunyoni ishq  
bilan yashashi lozim. Axir, ISHQning har bir qiyofasi ishq sohibi

bilan yashashi kerak... Siz ishqqa munosib bo'lsangiz, yetarli. Tabiiyki, Majnun qilgan xatosini kech anglaydi. Layli esa Majnunning rad etganiga chiday olmaydi va g'am-uqubatdan vafot etadi. Majnun bu mash'um xabarni eshitgan zahoti Laylining qabri tepasiga shoshiladi. O'lishini istayotganini aytadi va buning uchun duo qiladi. Shu ondayoq qulab ruhini taslim etadi.

## **Farhod va Shirin**

Shirin asilzoda oilaning qizi, Farhod esa xalq orasidan chiq-qan mard yigit. Bir-birlarini aqldan ozar darajada sevgan ikki yosh. Temirchi usta bo‘lgan Farhod har kuni olov ichida temirga sayqal berib o‘z rizqini topadi. Halol va mehnatkash yigit. Birovning boyligiga hasad qilmaydi, ko‘z olaytirmadi. Hayotida Shiringa erishishdan boshqa biror-bir tashvishi yo‘q. Shirinning ya-qinlari esa Farhodni bu yo‘lidan qaytarish unga azob berishadi, qo‘llaridan kelgan barcha ishni qilishadi. Ammo Farhod Shiringa erishish fikrida qat‘iy turadi. Kun kelib, Shirinni bermaslik uchun bahonalari qolmagach, Besutun tog‘lariga ishora qilib, ushbu temir tog‘ni teshishni shart qilib qo‘yishadi. Farhod bu shartni bajarishning imkonи yo‘q ekanligini bilar edi. Ammo ma’shuqasiga qovushishning boshqa chorasi ham yo‘q edi. Shu onda o‘ziga bir burchakdan yashirinchcha qarab turgan Shiringa ko‘zi tushadi. Shirinning boqishlari Farhodning qalbida bir bo‘ronni ko‘taradi.

Shu onda Farhod:

— Ishq bilan yaralish mumkin, ishq bilan o‘lish mumkin, ammo ishqdan voz kechish mumkin emas, — deydi. O‘rnidan turadi va yo‘lga ravona bo‘ladi.

Barcha Farhodning ortidan kuladi... Shirinning qarindoshla-ri esa undan qutulganliklari uchun sevinayotgandi.

Shirin chorasiz bo‘lib qoladi. Na qochishga kuchi yetadi, na Farhodsiz qolishga. Farhodning hasratida har kuni yonar, yongan

sayin erir, erigan sayin zaiflashadi va sarg‘ayib so‘la boshlaydi. Farhod esa tog‘ bilan yuzma-yuz keladi. Farhodning jussasi ki-chikdir, lekin ishqqi buyukdir. Qo‘liga teshani oladi. Tog‘ni ura boshlaydi. Charchab qolgunicha uraveradi. Ko‘zlarini yumar, Shirinning nigohini xayolidan jonlantiradi. So‘ngra ishq bilan yana qazishda davom etardi. Tog‘ Farhodning har zarbidan azoblanayotganday ovoz chiqarar edi. Zotan temirchi bo‘lgan Farhod zakovati, bilimi va ishqdan olgan quvvati bilan tog‘ni tiz cho‘kiradi. Imkonsiz deyishgan ish amalga oshadi, Farhod ishqni uchun tog‘ni teshadi.

Kichkintoyim, o‘ylamaki, dunyodagi yomonliklar tugaydi deya. Tugamaydi! Ammo ishqning qovushish yo‘lidagi kurashi ham tugamaydi.

”

Ishq barcha uchundir...  
Insonlarni ajratmaydi, madaniyatni  
ajratmaydi...  
Har kimning qalbiga kiradi, har kimda  
jon topadi.  
Ishq ba'zida Kerem va Aslidir,  
Asuman bilan Zeyjondir,  
Orzu va Qambardir.  
Ba'zida Napoleon va Jozefinadir,  
Sulton Sulaymon Qonuniy bilan Xurram  
Sultondir.  
Jon Lennondir, Yoko Onodir.  
Ba'zan esa Salvador Dali bilan Galadir,  
Nozim Hikmat ila Pirayadir.

Balki turli tilda turlichaytilishi mumkin,  
ammo bir xil tuyg'uni his ettiradi.

Ba'zan esa haqiqatini yashiringan  
afsonada ham ISHQ yashiringandir.

## Meos va Triton

Poseydonning xotini Amfitrit bir nereida ya'ni, suv parisi edi. Ularning nikohida dunyoga kelgan Triton esa Poseydonning eng qadrli farzandi edi. Belidan tepasi inson, belidan pasti esa baliq qiyofasida bo'lган Triton otasi bilan birgalikda dengizlarning qo'riqchisi edi. Qasos ma'budasi Ultio esa Tritonga oshiq edi. Kunlardan bir kun Triton qoyadan dengizni tomosha qilayotgan Meosga duch keladi. Meos oqbadan, oltin sochli, har nigohi hayratlanarli darajada go'zal qiz edi. Triton bir ko'rishdayoq unga oshiq bo'lib qoladi. Meos ham Tritonga ishq bilan bog'lanadi. Shunday qilib afsonaviy ma'budlarning qonuniga zid bo'lган ishq dunyoga keladi. Bunday taqiqlangan ishqni bilib qolinishidan qo'rqqan Triton uzoq vaqt ishqini barchadan saqlab yuradi. Shuning uchun oshiqlar juda kam ko'rishar edi. Bir kuni Meos firog'iga chidolmay qoladi va Tritonga yanada yaqinroq bo'lish uchun o'zini baliqqa aylantirib qo'yishini taklif qiladi. Shu tarzda har lahma Tritonning yanada yaqin bo'la olar va hech kim bu ishqdan xabari bo'lmasdi. Meosning qattiq o'tinchi tufayli Triton taklifni qabul qiladi va Meosni bir baliqqa aylantiradi. Meos oldingi qiyofasida qanday go'zal bo'lган bo'lsa, baliqligida ham shunday go'zal edi. Rango-rang nurlar sochayotgan suvning ichida oldin yulduzchalar bilan suzayotgan baliq ko'rinishidagi Meos bir qancha vaqtdan so'ng qasos tangrisi Ultioning diqqatini o'ziga tortadi. Muhabbatи javobsiz qolgan Ultio rashk olovida yona boshlaydi va Meosni yashirinchа olib qochib, Poseydonning huzuriga keltiradi hamda taqiqlangan ishq haqida eslatadi. Poseydon o'g'lining ma'budlar taqiqlarini buzganidan qattiq g'a-

zablanadi va boshqa tangrilar orasida sharmanda bo‘lishidan qo‘rqib, Meosni gapirolmaydigan, oddiy, ammo mazali baliqqa aylantirib qo‘yadi. Poseydon bu bilan kifoyalanmay, Meosni o‘g‘lining topishiga to‘sqinlik qilish uchun hassasini yerga urib, zilzilalarni paydo qilib, dengizlarni bir-biriga qorishtirib yuboradi va bir-biridan ajratib yuboradi. Meosning qaysi dengizda, qaysi baliq qiyofasida ekanligini faqatgina Poseydon biladi. Triton esa haqiqatni bilgach, tinim bilmay, erinmay barcha dengizlarni birma-bir kezib Meosni izlay boshlaydi. Meosni topa olishning, uni boshqa baliqlardan farqlay olishning yagona yo‘li ta’mini totib ko‘rish edi.

Shu bois baliqchilar umri davomida tutgan har bir baliqlarini Meos sifatida ko‘rishadi va ishqiga hurmat ko‘rsatishadi. Demoqchimanki, Meos baliqqa bo‘lgan ishqning timsoliga aylan-gan. Endi Meosni topa olishning, uni boshqa baliqlardan farqlay olishning yagona yo‘li ta’mini totib ko‘rish. Kim biladi, balki, Meos bu tun qaysidir bir dengizchining to‘riga ilingandir...

”

Ba'zan bugundan o'tmishimga safar  
boshlanadi.

Osori-atiqalar sotuvchining  
do'konidagi ashylarga  
boqayotgandek xotiralarini alg'ov-  
dalg'ov qilsin. Unutganlaringiz,  
albatta, ko'p, ammo kechagi kunday  
eslaganlaringiz ham bor.

Kechinmalar asta-sekin izlanadi.  
Har bir qadam: yaxshi, yomon,  
go'zal, chirkin xotiralarga  
yetaklaydi.

Tabiiyki, mening ham to'rvam hayot  
daraxtining mevalari bilan to'la.

Faqat yaxshi kunlarim emas,  
boshqalarda bo'lganidek mening ham  
xatolarim ham bo'lgan.

Xafa qilganim ham bo'ldi, xafa  
qilganlar ham...

Tark etganlarim ham bo‘ldi, tark  
etganlar ham...

Yo‘qotganim uchun ba’zan sevingan  
paytlarim ham bo‘lgan, yo‘qotmaslik  
uchun qilgan harakatlarim ichida  
yo‘qolib qolgan paytlarim ham...

Kechinmalarim ham bo‘lgan,  
boshqalarning kechinmalarining  
sababchisi ham bo‘lganman.

Eslaganda ba’zan jilmaygan  
paytlarim bo‘lgan, ba’zan qayg‘u  
botgan paytlarim ham...

Ammo ko‘zguga qarab:  
“Yaxshiyamki, kechinmalarni  
boshimdan o‘tkazgan ekanman”, —  
degan paytlarim ham bo‘ldi.

---

## **Aytganday, kichkintoyim, senga o‘zim uchun o‘zim sovchilikka borganim haqidagi ibratli voqeani aytip berganmidim?**

Aslida, biror-bir yomon niyatim yo‘q edi. Sevar edim-da. Sevgim sof va pokiza edi. Axir, hayotimda birinchi bor oshiq bo‘lishim edi-da. Imkon topib unga sevgimni izhor etdim. Yuragim qinidan chiqib ketadiganday urardi. O‘sha vaqtgacha qalbimning ovozini quloqlarim ila eshitmagan edim. O‘sha onda: “Yo‘q, seni yoqtirmayman”, — desa, balki ikkinchi marta qalbimni boshqasiga ocha olmasdim. Hattoki qalb jarohat kabi hayotimga ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. Ammo, xayriyatki, u ham meni yoqtirishini aytdi. Keyin esa yana nimalardir dedi, ammo sevinchimdan hech birini eshita olmadim. U paytlar qo‘limda pul bo‘lмагани учун вақти-вақти билан ко‘rishib qayerlarnidir aylanardik. Odatda, ko‘chada shunchaki aylanib yurardik. “Nega ubu joyga bormayapmiz?” — deya so‘raganida esa yopiq joylarni yomon ko‘rishimni aytip, gapni boshqa tomonga burardim. U bundan mammunmidi — bilmayman. Ammo uning yonida bo‘lganimdan qayerda ekanligimni ham sezmas edim. Tabiiyki, u nega bu yerda ekanligimizni so‘ramagunicha. Ora-sirada unga ‘surpriz qilish учун sovg‘a olishga harakat qilardim. Buning учун hatto otamning cho‘ntaklarini yashirinchay kovlashtirgan paytim ham bo‘lgan. Odatda o‘zim учун ham bunday tavakkalga qo‘l urmayman, ammo u учун aqlga sig‘mas telbaliklar qilardim. Vaqt o‘tgan sari bir-birimizdan uzoqlashayotganimizni

his qila boshladim. Aslida, u mendan uzoqlashayotgandi. Men esa u uchun imkonim yetgan barcha ishni qilayotgandim. Munosabatlarimizni isitish uchun ikki haftada bir marta uni qarshimga o‘tqazib, she’rlar aytib, oramizdagi sovuqlikni davolashga intillardim. Onam: “Axlatni tashlab kel”, — desa, yoqar-yoqmas bajarardim, ammo u uchun bormagan joyim qolmagan. Kunlarning birida she’r o‘qir ekanmiz, ko‘zlarimiz biri-biriga tushdi, shu on lablarimning mendan beizn uning lablari tomon intilayotganini sezib qoldim. Ammo to‘satdan: “Bunday qilolmayman”, — deya o‘ylab, lablarimni yonog‘i tomon yo‘naltirdim. Uzundan uzun bo‘sа oldim. Ko‘zlarim yumilib, oyoqlarim yerdan uzilgandek bo‘ldi. O‘pkamda nafas olish uchun joy qolmagandek bir ahvolda ekanman, ko‘zlarimni astagini ochganimda qarshimda otasining ko‘zini uchratdim. Tasodifni qarangki, otasi aynan o‘sha paytda ishdan chiqib, do‘kondan u-bu narsa xarid qilib, uyiga qaytayotgan ekan. Hayotimda ikkinchi bor yurak urishimni qu-loqlarim bilan juda ham aniq eshitdim. Qo‘rquv va hayajon tuyayli nima qilarimni bilmay qolgandim. Aslida sevgilim men bilan quchoqlashishni davom ettirmoqchi edi, ammo men otasi bilan ko‘z urishtirib turar ekanman, nima qilarimni ham bilmas edim. So‘ngra u qizini chaqirdi. “E-e-e, ota”, — deya, hech narsa bo‘limgandek yoniga yugurib borib, qo‘lidagi xaltalarni oldi. “Menimcha, otasi hozirning o‘zidayoq menga tashlanib, shu yerda o‘ldirib qo‘ysa kerak”, — deb o‘yladim. Qochishni istardim, ammo oyoqlarimda mador qolmagan edi. G‘alati bo‘ldi. Otasi hech nima demay, qizi bilan uyiga ketdi. Bundan keyin boshqa ko‘rishmadik. Ammo yo‘lini topib uni ko‘rishi kerak edi. Chunki sevardim va to‘siqlardan qochish men uchun emas edi. Avval otamning yoniga bordim. “Bir qizni sevaman, u bilan turmush qurmoqchiman”, — dedim. Otam esa: “Sen endigina 15

yoshdasan, o‘psang o‘tib ketadi”, — dedi hazil aralash. Ko‘ndi-  
rish uchun biroz urindim, ammo rozi bo‘lmadi. Qora kunlar  
uchun saqlab qo‘ygan ozgina pulimni cho‘ntagimga solib, borib  
sevgilimning eshigini taqillatdim, ichkariga kiritishdi. Dovdirab  
o‘tirar ekanman, kutilmaganda otasidan sevgilimning qo‘lini so‘-  
radim va “Qizingizni bermasangiz, olib qochaman”, — dedim.  
Otasi esa: “Qizimni senga beraman, ammo askarlik burchingni  
ado qilganingdan keyin olib ketasan”, — dedi. Men ham: “Unda  
pulni qizni berganingizdan so‘ng olasiz”, — dedim va o‘sha  
vaqtning qirq million lirasiga teng pulimni ham olib chiqdim. As-  
silda nima qilayotganimni o‘zi ham bilmasdum. Bu ishimda biror-  
bir ma’no-mantiq yo‘q edi. Bu “sovchilik”dan bir kun o‘tgach,  
qizning akasi meni yaxshilab kaltaklagach, aqlim o‘zimga keldi.  
Boshim va qoshim yorilib ketgan edi, o‘sha vaqt meni shifoxona-  
ga olib bormoqchi bo‘lganlardan biri cho‘ntagimdagи bazo‘r  
to‘plagan 40 millionimni o‘g‘irlashi ham men uchun katta saboq  
bo‘ldi...

Sevgilimga nima bo‘lganiga qiziqyapsizmi? Akasining qil-  
gan ishiga qasdma-qasd, yana ikki-uch oy yashirinchha ko‘rishi  
yurdik. O‘sha yillarda: “Men Emre Tunjerman! Taslim bo‘lmay-  
man!” — derdim. Ammo oxirida bir-birimizga to‘g‘ri kelmas-  
ligimizni anglab, ayrildik. Yoshlik qildik-da...

“O‘sha kunlarda nimadan ko‘proq siqilgansiz?” — deya so‘-  
rasang: “Kaltak yeganim emas, pulimni o‘g‘irlab ketishgani  
ko‘proq xafa qildi”, — degan bo‘lardim.

## Men oldingi menmanmi?

Agar aldayotgan bo'lsam, ustimga osmon qulasin.

Men oldingi men emasman.

Endilikda qaysi do'konga kirsam, kichik narsalar emas, katta narsalar diqqatimni o'ziga jalb qiladi.

Endilikda o'zimga oid, arzimasligi bilan tashvishlantiradigan hech narsa qolmadi.

Endilikda atrofimdagilar hasad qilishi mumkin bo'lgan faqat sog'lig'imginga qo'limda qoldi.

Endilikda oldingidek atrofimni olomon bilan o'rabi ola olmayapman.

O'lay agar, to'g'risini aptyapman.

Men oldingi men emasman.

Endi qo'shiqni baland ovozda tinglash meni bezovta qiladi.

Endi o'tayotgan vaqtini yanada ko'proq qadrlayapman.

Endi oldingi axloqsizligimdan asar ham qolmagan, barcha dardlarimni yagona ayol bilan baham ko'rish yetarli.

Endi nasihat olish o'rniga har kimga nasihat beryapman.

Men oldingi men emasman.

Oldingi paytlardagidek kechalari uyg'onaman, lekin sen ha-qingda o'ylaganim uchun emas, hojatxonaga borish uchun...

Oldingi paytlardagidek uch mahal ovqatlanaman, lekin ochligimdan emas, oshxonaning qoidalariga ko'ra...

Oldingi paytlardagidek farzandlarim bilan ko'rishyapman, ammo sog'inganim uchun emas, oyda bir bora meni ko'rishga kelganlari uchun...

Oldingi paytlardagidek ertalabdan uyg‘onaman, ammo ishga borish uchun emas, imomning da’vatiga binoan darslarimni tay-yorlash uchun...

Aldayotgan bo‘lsam, boshimda qolgan 3-5 tola sochim ham to‘kilib tushsin, eng samimiy tuyg‘ularimni baham ko‘ryapman.

Men oldingi men emasman.

O‘tmishimga, o‘tmishda qoldira olmaganlarimga pushaymon bo‘lib yig‘lamayapman.

Qilolmaganlarimga va qildirolmaganlarimga pushaymon bo‘lib yig‘lamayapman.

Kelajak kunlarim uchun hozirlay olmaganlarimga pushaymon bo‘lib yig‘lamayapman.

Men bir paytlar oldingi men edim. Gapingiz to‘g‘ri... Lekin juda ham o‘zgardim. Ba’zan o‘zimga o‘xshagan qariyalar bilan o‘tirib: “Shuncha yillardan so‘ng qo‘limizda nima qoldi?” — deya tortishamiz. Ehtimol, bular butun hayotim davomida eng sassiz va ibratli tortishuvlar bo‘lsa kerak. Barcha sukul saqlagan holda: “Ajabo, kimdir bu savolning javob bera olarmikin?” — deya diqqat bilan kutardi... Ammo hech kim lom-mim demaydi. “Nima uchun javobini bilmaysan?” — deganday, biri-biriga norozi qiyofada tikilardi.

Men bir paytlar oldingi men edim. Gapingiz to‘g‘ri... Lekin juda ham o‘zgardim. Kipriklarim ham qordek oppoq. Hamma qosh-u kiprik va sochlardagi oqlikning sababini qarilikda ko‘-radi, ammo bu sirni faqat sen bilasan. O‘zgargan faqat men emas. Qara, manzilim ham o‘zgardi. Farzandlarim o‘zları betashvish yashashlari uchun meni qariyalar uyiga olib kelishdi. Yaxshiyam-ki, o‘z vaqtida nodavlat tashkilotlar bilan ishlab bulardagi



muammolar bilan shug‘ullanganman, aks holda hozir hammasi boshimga bitgan balo bo‘lardi... Ba’zan: “Ajabo, o‘sha paytda meni bu yerga emas, bu yerdan keyingi manzilim — masjidning hovlisiga tashlab ketsalar bo‘lmasmidi?” — deb o‘ylanaman. U yerga faqat bolalarnigina tashlab ketishmaydi-ku, meni ham tashlab ketishlari mumkin edi. Meni esa ma’sum holim bilan imomning meni topib olishini kutardim. Hech bo‘limganda, hozir yashayotgan joyimdagidek “Qanday yashasang yasha, bir kun shu yoshga yetasan” kabi ibratlarni eshitmasdim. Ammo e’tirof etishim kerakki, bu ibratlarning har biri “inju”. Ammo hozirgi kunda olmos urf bo‘lganligi tufayli “inju”larni ham bu yerga tashlab ketishgan. O‘zgargan faqat men emas. Zamon, hattoki hayotning o‘zi ham o‘zgargan... Ikkalamiz tanishgan xiyobon hozir savdo markaziga aylangan. Ikkalamiz gaplashib o‘tiradi-gan, puding sotiladigan joyga hozir ko‘chmas mulki idorasi joy-lashgan. O‘zim ham u yerdagi biz har doim qo‘rqadigan oq so-qolli odamga aylandim. Tanishlarim, tuyg‘ularini baham ko‘rgan insonlar haqqiga qasam etamanki, men juda ham o‘zgardim. Ayniqsa seni va sen bilan o‘tgan kunlarni bir qabrga sig‘dirar ekanman, juda ham o‘zgardim...

Dunyo ishq bilan aylanadi, lekin “Oshiq bo‘ldim”, — deya aylanishini to‘xtatmaydi.

Quyosh ishq bilan chiqadi, “Oshiq bo‘ldim”, — deya chiq-may qolmaydi.

Hattoki gullar moviy osmonga oshiq, imkonsiz bo‘lsa-da, unga bo‘y cho‘zishga intilishadi. Ammo hech biri: “Oshiq bo‘ldim”, — deya bol yig‘ib yurgan ariga yordam berishni to‘xtatmaydi.

Inson esa oshiq bo'lar ekan, yekishdan ham, ichishdan ham to'xtaydi.

Ishonuvchan bo'lib qoladi, kuch-quvvatini boy beradi...

Haqiqatdan uzilib, xayollarga bog'lanadi...

Ammo hayot insonni qo'yib yubormaydi.

Ba'zan insonni muhabbat bilan bag'riga oladi, ba'zan esa musibat bilan.

Ba'zan baxtli qiladi, ba'zan baxtsiz. Hayot insonni qo'yib yubormas ekan, inson hayotni to'xtatishga urinishida qanday mantiq bor? Shuning uchun ham, nima bo'lishidan qat'iy nazar, inson hayotni mahkam quchoqlab olishi kerak. Hayotini qoniqarli yashashi lozim. Tabiiyki, ishqning afsuni ko'zni ko'r qilib qo'yadi. Ammo inson vaqt yo'qotmay ko'zlarini ochishi va qalbi-dagi bu tuyg'uga ega chiqish orqali yashashda davom etishi kerak. Oshiq bo'lib qolgani bilan hayot to'xtamasligini anglashi kerak. Davomiylilik tabiat qonunidir. Ishq kelishi bilan hayotning qonuniyatini buzish ishqning ta'mini buzadi. Axir, ishq hayot sho'rvasining tuzi-yu ziravoridir. Ikkalasi har bir onda va qiyomida bo'lsa, sho'rva totli bo'ladi. Shunday onlar keladiki, hayotning lazzati yo'qoladi. Aynan o'shanda hayot tarozisining bir pallasiga ega bo'lgan baxtiyorlikni, huzurini, ikkinchi pallasiga esa tashvishlarini va qayg'ularini qo'yib o'lchash kerak. Tashvish va qayg'ulari og'ir kelayotgan bo'lsa, taroziga jahl qilmaslik kerak. Xato bo'lsa, insonning o'zidadir. Tarozi o'lchaydi, xolos. Bunday paytda esa baxtiyorlik va huzurning yoniga sevgi va ishqni ham qo'shish kerakki, tarozi muvozanatga kelsin. Zotan, vaqt o'tishi bilan sevgi va ishq o'z og'irligini his ettiradi va tarozining baxt va huzur pallasi og'irlasha boshlaydi. Demoqchimanki, hayotning lazzati masallig'ida, masalliqdan o'rinli foydalana olish esa oshpazning mahoratida yashirindir.

## Ba'zan sabr kalit bo'ladi, ba'zan esa omad...

## Ba'zan ishtiyoq bilan eshiklarni ocharsan, ba'zan esa hirs bilan

Xotiralarim ko'zim o'ngimda yana jonlandi. Kichkintoyim, agar qahva tayyor bo'lsa, bir lira ham pulim bo'lmasa ham, qay holda bir oyga qolmay mashina sotib olganimni senga hikoya qilib berayki, kayfiyating joyiga tushsin.

Har kimning ham hayotida yo'qsil kunlari bo'ladi. Bo'lishi kerak ham... Chunki farovonlikning qadri yo'qsillikda yanada aniqroq bilinadi. Ammo mening ahvolim ancha yomon edi. Na ishim bor, na ishlashga imkonim. Hatto avtobusda yurish uchun ham pulim qolmagandi. Atrofimda mendan qarzdorlar bor edi, ammo hech biri qarzini to'lamayotgandi. Menga qarz bergenlar esa tinmay qarzini so'rashar edi. Ya'ni hamyonimda bir lira ham yo'q edim. Qayg'ularimni tarqatish uchun sohilni kezishga qaror qildim. O'sha kuni havo juda ham sovuq bo'lgani uchun ko'p yura olmadim. Chipta sotib olmaslik uchun avtobusning orqa eshididan yashirinchay minib olgandim. Tasodifni qarang, bir paytlar shu avtobusda men bilan "ko'z urishtirib yurgan" qizni yana shu avtobusda uchratib qoldim. Juda ham uyatga qoldim. Avtobusdan tushayotganimda ham ichim uyatga to'la edi, ammo boshqa hech nima qilolmasdim. Xuddi har narsa ustma-ust kela-yotgandek edi. Uyali telefonimning operatori ham raqamimni o'chirib tashlagan edi. O'nlab banklarda hisob raqamim bor edi-yu, hech birida pul yo'q edi. Aksiga olib, kredit kartamning ham

oxirgi to‘lov cheki ham kelgandi. Dengiz qirg‘og‘ida bir necha soat o‘tirdim. Qornim ochqadi. Ham sovuq, ham ochlik, ham muammolar haqida o‘ylab o‘tirarkanman, skameykada o‘tirgan joyimda uqlab qolibman. Ko‘zlarimni ochganimda kech tushgan edi. Avtobuslar qatnovi ham to‘xtagan edi. Demakki, uyimga yavov ketish vaqt kelgandi. Endi yo‘lga tushgan ham edimki, mast bir amaki mashinasiga minishga harakat qilayotganini ko‘rib qoldim. Menimcha, sohildagi hashamatli mehmonxonalarining birlidan chiqqan edi. Yiqilishiga oz qolganida ushlab qoldim. Yerga tushgan kalitini olib, mashinasiga minishiga yordamlashdim. Ichimda esa: “Bu holda mashina haydashiga yordamlashganidan ko‘ra, kalitini dengizga otib, qochsaydim”, — deb o‘yladim, ammo, baribir, yordam berdim. Endi eshigini yopayotganimda amaki qo‘limdan tutib: “Sen hayda”, — dedi. “Yo‘g‘-e, amaki, mening ishlarim bor”, — dedim. U esa so‘kish aralash: “Sen mehmonxona xodimi emasmisan, axir? Mashinani uyimga olib bor”, — dedi. Mashinaning uzatmalar qutisi ustidan bir amallab yon tarafda o‘rindiqqa o‘tib oldi. “Mayli, bir savob qilsam, qilibman-da”, — deb mashinaga o‘tirdim. Amaki uyi qayerda ekanligini zo‘rg‘a tushuntirdi. Olib bordim. Mashinani avtoturargohga qo‘ydim. O‘zimning uyimdan ham yanada uzoqlashib ketgandim. “Qancha qarz bo‘ldim?” — deya so‘radi amaki. Nima deyishimni bilolmay qoldim. “Tentakmisan, o‘g‘lim, qilgan xizmatingning narxini bilmaysanmi? Shu pulni ol, qaytimi o‘zingda qolsin”, — deya qo‘limga bir bog‘lam pul berdi. Pulni ko‘rib ko‘zlarim yaraqlab ketdi. Amaki uyiga kirganida so‘ng: “Pulini qaytarib olishni xohlab qolar, kim biladi, nima bo‘ladi?” — deya o‘ylab, tezda u yerdan uzoqlashdim. Keyingi kunlarda esa xuddi shu sohilga borib mast odamlarni izlay boshladim. Ko‘zim tushgan barcha mastlarga yordam berishga harakat qildim. Avvallari

mastlarni ko‘rar-ko‘rmas qochardim. Bir onda mastsevarga aylandim. Hatto ora-chora: “Qaniydi, hamma mast bo‘lib qolsa”, — deya o‘ylardim. Mana shunday ishlarni bir necha bor qilganimdan so‘ng ko‘ngilochar markazlarining qo‘riqchilari ham meni yoqtirib qolishdi va meni bevosita mijozlar bilan ta’minkay boshlashdi. Ajoyib ish edi. Mijozlarni o‘zlarining mashinasida uylariga olib borib qo‘yardim. Bir onda talantli shaxsiy haydovchiga aylangandim. Hushyor paytida bir lira sadaqa ham bermaydigan odamlar mastligida shunday ham saxiy bo‘lib ketishar ediki... Hatto mastlar bilan ishslash yoqa boshlagan edi. Hatto o‘zimcha “qo‘sishimcha foyda” keltiradigan ishlar: mashinaning ichini, sirtini yuvish, suv sepish, g‘ildiraklarini tozalash kabilar ham topib qo‘ydim. Cho‘ntagimga mashina atirini olib yurardim. Cho‘ntagimdagi saqich pullik, chinnigullar esa tekin edi. Hatto sho‘rvapazlar bilan ham kelishib qo‘ygan edim. Oyning oxirida aql bovar qilmas darajada ko‘p pul ishlab topgan edim va “ish joyim” bo‘lgan sohilga mashina minib boradigan bo‘ldim. Ammo bu ish bilan to‘rt-besh oygina shug‘ullana oldim. Qila-yotgan ishim tufayli topayotgan pulimni bilib qolgan klublar, ko‘ngilochar maskanlar, xodimlar meni uzoqlashtirib, bu xizmatlarni o‘zлari ko‘rsata boshlashdi. Hattoki biroz o‘jarlik qildim, natijada bir xilvat joyda kaltaklashdi. “Meni xohlasmagan joyda qolmayman”, — dedim va boshqa imkoniyatlar qidirishni boshladim...

”

Unutmang: bir yolg‘on mingta  
haqiqatni ifloslantiradi.

”

Opa demoq — jon degani! U — eng og‘ir  
kunlarda ham ukasiga ham madad  
bo‘ladigan, tamasiz mehr-muhabbat va  
fidoyilik ko‘rsatadigan bir hadyadir.

---

## Hayotimda bir necha davr bo‘ldi, ammo hech biri o‘n yetti yoshlik davrim kabi bo‘lmadi...

Jahit Sitki Taranjidan<sup>7</sup> so‘rasangiz, o‘ttiz besh yosh umrning yarmi ekanligini aytadi<sup>8</sup>. Garchi qirq olti yoshida vafot etgan bo‘lsa-da, bu she’ridan keyingi hayotini, ya’ni hayotining qolgan “yarmi”ni 11 yilga sig‘dira olganligi haqida gapirish mumkin. “Tez yasha va yoshroq vafot et”, — deya, umrini qoniqarli yashab o‘tgandir. Agar Jahit Sitki kabi yo‘lga chiqsam, o‘n yetti yosh — yo‘lning chorak qismidir! Qolgani yashab ko‘rib, o‘rganganimdan keyin aytaman.

Birinchi muhabbat, ikkinchi muhabbat, uchinchi muhabbat... Albatta, har muhabbatning o‘zgacha go‘zalligi bor. Ammo bunisi juda boshqacha edi: balki, gormonlar tufaylidir; balki, o‘zim tufaylidir; balki, u tufaylidir. Bundan oldin ham ishqqa o‘xhash bir nimalarni boshimdan o‘tkazgandim, ammo hech biri meni bunchalik ta’sirlantirmagandi. Telba bo‘lmoq nima degani va inson qachon shunday ahvolga tushadi? Bunday ahvolga tushganini qanday biladi va buning orzularga qanday ta’siri bor? Balki, bu haqida gapirmoq uchun shunchaki bir sababdir, ammo o‘sha paytdan so‘ng bu savollarning javoblari men tomonda har bir insonga o‘rgatiladigan ibratga aylangandi. Axir, o‘n yetti yil-

<sup>7</sup> **Jahit Sitki Taranji** (1910-1956) — turk shoiri, yozuvchi, tarjimon. “O‘ttiz besh yosh” she’ri eng mashhur she’rlaridan biridir.

<sup>8</sup> Taranji bu she’ri bilan 1946-yili “Respublika xalq partiyasi” tomonidan tashkil etilgan tanlovida birinchi o‘rinni egallagan. O‘ttiz besh yoshga bag‘ishlangan she’r o‘ttiz besh misradan (5 misrali 7 banddan) iborat.

lik yoshlik davrimda ishqqa oid eng asosiy saboqni eng ajoyib tarzda olgandim va “ishq matabini tugatishdagi g‘alabam” uni yo‘qotish bilan boshlangandi. Demoqchimanki, boshlanishi bilan tugadi, endi oldingi men hozirgi mendan juda uzoq... Bir lahma nigohim tushgan ko‘zlar bor-yo‘g‘i bir juft ko‘z edi... Bu ikki ko‘zning qay tarzda tomirimga dori kabi kabi kirib organini bilmay qoldim. Vujudimning har joyini o‘zi hukmiga olgan ushbu nigohning qarshisida bir hovuch hayajon bilan qotib qoldim. O‘sha onda oldin aslo duch kelmagan yolg‘izlikni qarshiladim va kechinmalarimning chiqargan badbo‘y hidi bugunga qadar olgan nafasimni ifloslantirardi. Go‘yoki oldingi kechinmalarim uning qadrini yanada yaxshiroq anglashim uchun yuz bergandek. Bu azobga har bir inson duch keladimi — bilmayman, ammo och ko‘zlarim ilk marotaba: “To‘yib ketdim”, — dedi. Ilk bor boshqa bir insonning qalbining duk-duklari bilan vaqtning qadrini his qillardim. Balki, minglab ayollarda bir xil atirni hidlagandirman, ammo bunchalar ajoyibini uchratmagandim. Qarshimdagи go‘zalmidi yoki undan boshqa barcha xunukmidi — anglolmadim. Balki, o‘n minglab shoirlar his qilgan azob, hayajon, qayg‘u, qo‘rquvni bir misra she‘r bilan qalbimning yangi hujrasida boshimdan o‘tkazardim.

Go‘yoki dengizman, bulutga aylanib, tuproq ustiga yog‘ardim va har chaqmoq chaqqanda tuproq ustiga tushgan o‘zimni yoqardim...

Bir martagina metroda yurish inson hayotini qanchalik o‘zgartirib yuborishi mumkin?

• Ha! Aybdorman...

Shoshilarkanman, ajalga duch keldim. O‘sha afsungar xonimga urilib ketdim va shu sababli qo‘lidagi telefoni metro relslariga tushib ketdi. Telefonni qahramonlar kabi relslardan olib

bermoqchi edim-u, lekin yonimizga yugurib kelayotgan xavfsizlik xizmati xodimining hayqirig‘i bilan ortga chekindim. “Janob! Siz shu yerda turing. O‘zim xavfsizroq bir yo‘l bilan olib bera-man. Iltimos, to‘xtang! Iltimos, to‘xta! To‘xtasang-chi, oshna, telbamisan, o‘lib ketasan-ku. U yer kuchli elektr toki bor. To‘x-ta!” Zотан, бу орада ular uchta bo‘ldi va meni zo‘rlik bilan to‘x-tatishdi.. Ammo ko‘zlarim Feyzani ko‘rganidan so‘ng tamoman ko‘r bo‘lib qolgani uchun qandaydir afsonaviy plashim va shi-mim bo‘lmasa-da, qahramonlik qilishga tayyor edim. O‘limim tufayli ortimdan aytiladigan gaplarni ham xayolimda tasavvur qilgandim: “*O‘z boshiga o‘zi yetdi*”, “*Mard yigit edi*”, “*Ko‘p qarzi, ko‘p tashvishlari bor edi*”, “*Sevgilisi tashlab ketgandi*”, “*Imtihonning stressga chiday olmagan*”, “*Oxirgi tryukini ba-jardi*”, “*Jinoyatning qurbanbi bo‘ldi*”, “*O‘zi yaxshi odam edi, ehtimol, miyasini zaharlashgandir*”, “*Aslo hazilkash emas edi*” va hokazo... Tabiiyki, metro xavfsizlik xizmati xodimlari qobi-lijatlarini mohirlik bilan ko‘rsatgan holda telefonni olib, tanta-nali tarzda xonimga berishdi. Garchi ular “tantana” qilar ekan, men esa ich-ichimdan qayg‘u bilan: “Inshaalloh, telefoni buzil-magan bo‘lsin. Buzilgan bo‘lsa, bu faqir holim bilan unga bun-day telefon qanday olib beraman, ishqilib, buzilmagan bo‘lsin. Buzilgan bo‘lsa ham, sug‘urtalangan bo‘lsin, ishqilib”, — deya duo qillardim. “Tantana” nihoyasiga yetib borar ekan, sutni to‘-kib yuborgan mushuk misoli ma’sumona kulib turardim. Ammo ishq beizn-u beruxsat suyaklarimgacha ta‘sirlantirgan va ichim-dagi bo‘ronlarning zilzilasini his qillardim. Demoqchiman-ki, bir tomondan, bu “ishq zilzilasidan paydo bo‘lgan yoriqlar” tufayli titrayotgan bo‘lsam-da, boshqa tomondan, kechirim so‘rar edim. Feyza: “Qilgan ishidan juda xijolat bo‘lgani uchun o‘zini shun-day tutyapti”, — deya o‘ylagan bo‘lishi mumkin. Lekin o‘zim

bilardimki, tishlarimning shikasti, ko‘zlarimning jarohati yuragimning notejis urishidan edi.

Menga nimalar bo‘lyapti?! Nimalar?! Lahzama-lahza ulg‘ayayotganimni his qilyapman. Bir paytlardagi manman-u sovuqqon va loqayd inson bir lahzada ulg‘ayib, uzr so‘rashni ham o‘rgandi. Hech kimi yo‘q qalbim haqiqat olovida qotib qoldi. Hattoki hech kim bilan baham ko‘rolmagan yolg‘izligimni unga armug‘on qilmoqchi edim.

Uzoq davom etgan uyatchanlikdan keyin: “Aytgancha, menning ismim Feyza”, — dedi... Bu ovoz uzrlar so‘rash urushimda erisha oladigan eng ajoyib marra edi. Urush o‘ljani qo‘lga kirdim. Ammo faqat bu bilan g‘alabamni e’lon qilolmasdim. Chunki bunday o‘lja bilan nihoyasiga yetgan urush umidsizlik bilan yakunlanar va tanishish mavzusi nihoya bilan bog‘lana olmasdi. Ko‘chada kimnidir ko‘rsatsangiz, yoniga borib suhbatlasha olardim, ammo barcha mahorat-u talantlarim unga ta’sir ko‘rsata olmasdi, ongim bilan o‘zaro aloqamda “qisqa tutashuv” yuz ber-gandi. O’n yetti yoshlik davrimda ilk bor mana shunday ishqqa duch kelgandim. O‘scha paytdagi ahvolimni so‘rasangiz, es-hushima yo‘qotib qo‘ygandim. Aqlimga bo‘lar-bo‘lmas, bema’ni xayollar kelardi. Masalan, o‘scha on Feyzaga: “Men bilan raqsga tushasanmi?” — deyish kabi...

Aqlim bilan vujudim orasidagi mutanosiblikda beqarorlik paydo bo‘lgandi. Aqlim tanishish uchun bir nimalar qilishim kerakligini aytardi, ammo faqat telbarardek kula olardim, xolos. Agar o‘scha onda bu imkoniyatni qo‘ldan boy bersam, keyin afsuslanishimga amin edim. Balki, o‘z azobolarim bilan so‘ngiszlik ichiga g‘arq bo‘lar edim. Bu imkoniyatni boy bermaslik uchun qo‘limdan kelganini qilishim kerak edi. Chunki Feyzaning nigoohlaring nuri bilan o‘sishni istagan nihol kabi edim... “Hatto

suvsiz ham yashay olaman”, — deydigan darajada telba edim... Gapirar ekanman, jumlalarimning so‘zлari betartib ekanligini bilardim, ularni to‘g‘rilashga urinar ekanman, jumlalarni ma’nomazmun tark eta boshlardi. Keyin esa chiday olmay bir qancha savol berdim, olgan yagona javobim u ishlaydigan restoran nomi edi. Natijada esa ahmoqona qiliqlarimning, hayajonlarim va al-moyi-aljoyi gaplarimning mevasini oldim. Aslida esa, u menga dunyoda o‘xhashi yo‘q, g‘alati jonzotga qilinadigan munosabatda bo‘layotgandi. Hozir esa: “Uning o‘rnida bo‘lganimda men ham shunday qilardim”, — deyapman. Hozir xavfsizlik xizmati xodimlarini chaqirib: “Bu odamni yonimdan olib ketinglar”, — deya baqirishi mumkinligi xayolimdan o‘tdi. Qilgan ishlarim, aslida, hayajon tufayli qilolmagan ishlarim edi.

Nihoyat, metroning chiqish joyiga keldik, ammo mening qo‘llarim ketib qolmasligi uchun quchoqlashga dasturlangandek unga “hujum” qilmoqchi bo‘lar, uni quchoqlamoqqa harakat qilardi. Faqat bu orada o‘ziga kelgan aqlimgina bu istakka qarshilik qilardi.

Shundan so‘ng Feyza qo‘limni siqib, aytgan ikki og‘iz xayrlashuv so‘zi bilan sochlarning havoda to‘lg‘anishi bir bo‘ldi. Sochlardan taralgan hid tufayli multfilmlarning yegulik topish uchun havoni hidlayotgan qahramonlari kabi havoda muallaq turib qoldim. Odatda bunday ishlar qilmasdim. Biror-bir g‘arazli niyatim ham yo‘q edi. Lekin u ketar ekan, negadir o‘zimni kamayib qolgandek his qildim va oz bo‘lsa ham kamayib qolgan joyimni to‘ldirishga intilardim. Taksiga mindi va ketdi-qoldi.

Feyzani yonimdan “yashirinchcha o‘g‘irlab ketgan” “34 THY...” raqamli taksi haydovchisiga hayqirardim (garchi yozar ekanman, go‘yoki hayqirish emas, so‘zlarga aylanish, hattoki harflarga aylanish yana ham qulay ko‘rinardi...):

“Ko‘zimga aslo ko‘rinma. Ko‘rgan joyimda seni yo‘q qilaman. Sen qilgan ishni Bolu beyi<sup>9</sup> qilmagan bo‘ldi. Uch lira uchun ilk muhabbatimni ko‘z o‘ngimda olib qochding. Takso-metring ishlamay qolsin! Mayli, buni qo‘yaver, inson ketar ekan, mashinasining quvuridan shunchalik ham ko‘p tutun chiqaradimi? Havodagi barcha muattar hidni ichimga chuqur-chuqur tortar ekanman, sen tufayli uglerod oksidan zaharlanyapman”.

Taksi va uning ichidagi orzularim sariq rangga kirgach, ko‘z-larimdan g‘oyib bo‘ldi va men esa turgan yerimda qolaverdim. Olmaning ichidagi uyi o‘g‘irlangan qurt kabi chorasiz edim... Keyin esa yo‘limda davom etdim. Sudralib va ortimda chang-to‘zon bulutini qoldirmay sekin-asta yurardim. Boshim egik, qal-bimning xonalari shu darajada bo‘shab qolganki, eshiklari hay-ratdan lang ochilib qolgan. Men endi oldingi men emasdum. Endi eng bekam-u ko‘st paytimda ham nimamdir kam. Eng gullagan davrimda — endigma o‘n yetti yoshimda ekanman, kayfiyatim yo‘q holda olomon ichida yolg‘iz edim.

---

<sup>9</sup> Turklar va ozarlarning “Ko‘ro‘g‘li” dostonlar turkumidagi yovuz qahramon. U zotdor ot topib kelish uchun kuyovi Yusufni safarga jo‘natgan. Lekin uning topib kelgan toychoqni yoqtirmaydi va Yusufning ko‘ziga mil torttiradi.



”

Aka — do'st degani. Qiyofasi qattiqqo'l,  
ammo qalbi ko'ngilchandir. Ukasiga  
huzur beradi, ishonch beradi, kuch  
beradi...

---

”

Men AZOBman, sen esa JANNATsan.

Va aslo unutma:  
“HAQQINGNI HALOL QIL”.

---

# **EMRE TUNJER**

# **ISHQ QALBNING**

# **DUOSIDIR**

**Tarjimonlar:**

Muqaddas **ABDUVOSILOVA**  
Ergashboy **MATYOQUBOV**

**Bosh muharrir:**

Alisher **RAVSHANOV**

**Nashrga tayyorlovchi:**

Ergashboy **MATYOQUBOV**

**Musahhih:**

Go‘zal **QO‘ZIBOYEVA**

**Kompyuterda sahifalovchi:**

Lolaxon **QO‘ZIBOYEVA**

*DIQQAT!!! “Zukko kitobxon” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Xayykitap” nashriyoti bilan 2022-yil 16-marida tuzgan shartnomasi asosida chop etdi. Shuning uchun ushbu kitobni o‘zbek tilida chop etish huquqi faqat “Zukko kitobxon” nashriyotiga tegishli. Boshqa nashriyotlar yoki shaxslarning ushbu kitobni yoki uning bir qismini gazeta va jurnallarda chop etishi, elektron ko‘rinishida tarqatishi, internetga va yoki ijtimoiy tarmoqlargaa joylashtirishi, shuningdek, asarda keltirilgan izoh va iqtiboslardan ijodiy foydalanishi qat’yan taqilganladi.*

**Litsenziya raqami AI № 7069. 22.10.2020 y.**

Bosishga 22.07.2022 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog‘i 12 Shartli bosma tobog‘i 15  
Garnitura “Times New Roman” offset qog‘oz.

Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 34

Bahosi kelishilgan narxda.

**“BOOK MEDIA PLUS”** xususiy korxonasida tayyorlandi.  
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28 A.

£ 26160.00



EMRE TUNJER

# ISHQ

qalbning duosidir

**Sen bo'l, so'nggisi bo'l, so'ngsiz bo'l!**

Ilk muhabbatimsan! Oxiring yo'q, avvaling g'oyib bo'lgan. Bo'limgan emas, boshqalar ham bo'lgan, ammo sen tufayli barchasi yo'q bo'ldi.

Sen xatolarim ko'rsatgan haqiqatsan, oldingilar ergashtirib kelgan huzur yo'lisan.

Ko'nglimga yog'gan sevgi yomg'irisan, har tomchingdan ishqim shifo topyapti!

Bolaligimsan! Samimiyatim, ta'rifsiz baxtiyorligimsan.

Tuproqning yomg'ir bilan atrofga yoyilgan iforisan, choyimning eng totli qultumisan. Sen mening javobsiz savollarimning javobi, har duomda tilaganim, har nafasda sog'inganimsan.

Ko'piga hojat yo'q, borining ichida sen bo'sang, kifoya.

Sen sevgilim deya yozilib, ayolim deya o'qilasan. "Bu dunyo bizga yetarli emas" deganim — jannatdagi yo'ldoshimsan.

Toshkent shahar Langar ko'chasi, 78 uy.

ISBN 978-9943-8222-8-3



9 789943 822283



ZUKKO KITOBXON



@t.me/Zukko\_Kitobxon

@zukko\_kitobxon

Zukko\_Kitobxon

+99871 200 09 95